

O‘ZBEKISTONDA MUZEY ISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



Nishanova Kamola Solijonovna

Muzeyshunoslik kafedrası dotsenti, s.f.f.d (PhD)

MUNDARIJA

1 ISHCHI DASTUR

2 MODULNI O‘QITISHDA INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

3 NAZARIY MATERIALLAR

4 AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI


5 KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

6 KEYSLAR BANKI

7 GLOSSARIY

8 ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ISHCHI DASTUR



Kirish

Ushbu dastur madaniyat sohasi mutaxassislarining malakalarini oshirishga qaratilgan. Madaniyat sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish, bilimlarini davlat talablari va jahon andozalari darajasiga ko'tarish, yangilash islohotlar davrining dolzarb masalalaridan biridir.

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6000-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3920-son, 2018-yil 19-dekabrda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi PQ-4068-son, 2020-yil 4-fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dasturda Muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklari. Muzei pedagogikasi. O'zbekiston Respublikasi "Muzeilar to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. Muzeilar faoliyatiga oid xalqaro me'yoriy hujjatlar va xartiyalar. Muzeidan tashqari ko'rgazmalar:

funksiya va tipologiya. Ko'rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalari. Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish. Muzey dizayni. Muzey va reklama hamda xalqaro tajribalar o'rganiladi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- "Muзейshunoslik (turlari bo'yicha)" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;
- "Muзейshunoslik (turlari bo'yicha)" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Tinglovchi:

- muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklarini;
- muzey pedagogikasini;
- muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me'yoriy hujjatlar va xartiyalarni;
- XXI asr muzeylarining yangi yo'nalishlarini;
- muzeylarda to'plash, hujjatlashtirish va interpretatsiya masalalarini;
- ekspozitsiyaning ilmiy, badiiy loyihlarini;
- yodgorlikning tarixiy-madaniy meros obyekti sifatidagi o'rnini;
- konservatsiya va restavratsiya atamalarining fanga kirib kelishi va yodgorliklarni saqlashdagi muhim ahamiyatini;
- "Chegarasiz ta'mirlash" tashkiloti faoliyatini;
- yodgorliklarni zamonaviy muzeylashtirish ishlari madaniy va tarixiy yodgorliklarining muhofazasi, metodologiyasi va sotsiologiyasini;
- O'zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash tarixini;
- XX asr boshlarida muzeylarda ta'lim-tarbiya tashviqot ishlarining shakllanish tarixini;
- muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllari tasnifini;
- Germaniya, Rossiya, AQSHda muzeyga oid ta'lim faoliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishni;
- muzey ekspozitsiyalarida turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar auditoriyasining psixologik-pedagogik ixtisoslashtirish jarayonlarini;
- muzey andragogikasini;

- nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasini;
- zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy uslublarini;
- nutq madaniyati va uning meyorlarini;
- mulohaza, muomala tushunchalarini;
- san'atning asosiy estetik kategoriyalarini;
- san'at va uning mohiyati, asosiy turlarini;
- estetik munosabat va estetik anglashni;
- san'atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash;
- muzey to'plamlarini komplektlash va ekspozitsiyaga qo'yishning ilmiy prinsipidan amaliyotda foydalanish;
- yodgorliklarni saqlash;
- yodgorlikning muhofazaga olish;
- maktab yoshigacha bo'lgan bolalar va maktab o'quvchilari uchun muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllaridan samarali foydalanish;
- Bolalar muzeylari: paydo bo'lish tarixi, hozirgi kundagi xolatini o'rganish;
- Amerika bolalar muzeyi tajribasining jahon muzeylarida qo'llanilishini tahlil etish;
- nutqning uslubiy turlarini qo'llash;
- nutq mahoratini rivojlantirishning o'ziga xos ahamiyatini anglash;
- san'at va uning estetik mohiyatini anglash;
- go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san'atda namoyon bo'lishini baholay olish;
- san'at turlari va janrlaridan foydalanish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ekspozitsiya tuzish metodlarini qo'llash;
- muzeydan tashqari ko'rgazmalardan foydalanish;
- ko'rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalarini qo'llash;
- muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish.
- yodgorliklarning madaniy obyekt pasportini tuzish va ularni qayd etish;
- turli ixtisoslikdagi muzeylarda talabalarga muzey klassifikatsiyasidan kelib chiqqan xolda ekskursiya matni va dasturiy loyixalar tayyorlash.
- muzey-fond ishida va ekspozitsiya faoliyatida axborot texnologiyalarning qo'llash;
- ovozdan foydalanish va nutq texnikasi rivojlantirish.;
- madaniy nutqning kommunikativ sifatlarini o'rganish; .
- o'qituvchining nutq mahorati rivojlantirish;
- badiiy ijodga estetik munosabat tarixini bilish;
- go'zallikni anglash va baholashda estetika tushunchalarining o'rnini va rolini tahlil etish *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ekspozitsiya tuzish metodlaridan samarali foydalanish;
- muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllarini qo'llash;
- O'zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash usullarini takomillashtirish;
- ko'rgazma faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ekspozitsiyaning ilmiy va badiiy loyihasini yaratish;
- muzey-fond ishida va ekspozitsiya faoliyatida xorijiy tajribalardan foydalanish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

<u>№</u>	<u>Модул мавзулари</u>	<u>Тингловчининг ўқув юкلامаси,</u>					
		<u>Хаммаси</u>	Аудитория ўқув юкلامаси				Мустақил таълим
			Жами	жумладан			
				Назарий	Амалий	Кўчма	
1.	O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me'yoriy hujjatlar va xartiyalar.	2	2	2			

2	Milliy muzey fondini tashkil etish va boshqarish masalalari	2	2	<u>2</u>			
3	Yangi tashkil etilgan muzeylar faoliyati	2	2	<u>2</u>			
4	Ekspozitsiya tuzish metodlari. Ekspozitsiyaning ilmiy loyihasi. Ekspozitsiyaning badiiy loyihasi.	4	4	4			
5	Ko'rgazma faoliyatining tarixi. Muzeydan tashqari ko'rgazmalar: funksiya va tipologiya	2	2		2		
6	Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish	4	4		4		
7	Muzey va reklama.	4	4			4	
	Жами	20	20	10	6	4	

II. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklari. O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me'yoriy hujjatlar va xartiyalar.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 12 sentabr «Muzeylar to'g'risida»gi Qonun, Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi «Muzeylar faoliyatiga taaluqli me'yoriy hujjatlar to'g'risida»gi 237-sonli, 2010 yil 12 apreldagi «O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 68-sonli qarorlari qabul qilindi. Muzeylarni rivojlantirishning innovatsion va amaliy mexanizmini ishlab chiqish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, jahon madaniyati maydonida mamlakatning nufuzini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3920-son qarori, 2018 yil 28 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4038-son qarori, 2018 yil 19 dekabrda «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ – 4068-son qarori, 2019 yil 19 dekabrda «2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 1019-son qarori, 2020 yil 26 maydagi «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF – 6000-son farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizda san'at va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya (14 noyabr, 1970 yil), Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (16 noyabr, 1972 yil), Suvosti madaniy merosini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (2 noyabr, 2001 yil), Nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya (15 oktabr, 2003 yil)

2-mavzu: Milliy muzey fondini tashkil etish va boshqarish masalalari

Asosiy fond, ilmiy – yordamchi fond, vaqtinchalik saqlov fondi. Ro'yxtaga olish hujjatlari. Qabul qilish va topshirish dalolatnomasi. Doimiy saqlovga qabul qilingan muzey ashyolarini kirim kitobiga kiritish. Muzey ashyolarini inventar (ilmiy ro'yxtaga olish) kitobiga kiritish tartibi. Vaqtincha qabul qilingan ashyolarni ro'yxtaga olish kitobi bilan ishlash. Ilmiy yordamchi materiallarni ro'yxtaga olish kitobi. Muzey ashyolarining ilmiy – tahliliy kartochkalari bilan ishlash. Kartotekalar bilan ishlash. Muzey fondlarini ro'yxtaga olish va qayd etish bo'limi faoliyati. Muzey ashyolarining harakatlanish jadvali. Muzey direktori muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash va fondni to'ldirib borish, hisobga olish, ilmiy ro'yxatdan o'tkazish, ta'mirlash va muhofaza qilish, muzey binosini kechayu kunduz qo'riqlash va yong'indan saqlash borasidagi majburiyatlari. Bosh muhofizlarni huquq va majburiyatlari. Muhofizlarning huquq va majburiyatlari.

3-mavzu: Yangi tashkil etilgan muzeylar faoliyati

Xalqimizning buyuk adiblari xotirasini abadiylashtirish maqsadida Marg‘ilon shahrida Erkin Voxidov memorial muzeyi, Jizzax shahrida Xamid Olimjon va Zulfiya muzeylari hamda Sharof Rashidov memorial muzeyi, To‘raqo‘rg‘on tumanida Ibrat muzeyi, Uchko‘prik tumanida Xaziniy muzeyi, Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy memorial va uy muzeylari tashkil etildi.

Shuningdek, Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan Navoiy viloyatida “Sarmishsoy”, Qashqadaryo viloyatida “Shahrisabz”, Surxondaryo viloyatida “Termiz” va Farg‘ona viloyatida “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalari faoliyati yangidan tashkil etildi.

Har bir viloyatlardagi tegishli oliy o‘quv yurtlarida Qatag‘on qurbonlar xotirasi muzeyining filiallari hamda Muynoq tumanida Ekologiya muzeyi, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida “Maqom muzeyi” ochildi.

4-mavzu: Ekspozitsiya tuzish metodlari. Ekspozitsiyaning ilmiy loyihasi. Ekspozitsiyaning badiiy loyihasi.

Ekspozitsiya tushunchasiga umumiy ta‘rif. Ekspozision material, tematik struktura, ekspozision komplekslar.

Ekspozitsiya mazmunining badiiy interpretasiyasi. Ekspozision jihozlar: stendlar, turniketlar, vitrinalar, podiumlar. Rang va yorug‘lik me‘moriy – badiiy ansamblning aktiv, spesifik komponentlari. Fazoviy yechimning ekspozitsiyasini his etishdagi ahamiyati.

Ekspozitsiya loyihalashning tarkibiy qismlari: ilmiy loyihalash, badiiy loyihalash, texnik va ishchi loyihalash. Ilmiy konsepsiya, kengaytirilgan tematik struktura, ekspozitsiyaning tematik rejasini, tematik – ekspozision rejasini (TER) tuzish ishlarini amalga oshirish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Ko‘rgazma faoliyatining tarixi. Muzeydan tashqari ko‘rgazmalar: funksiya va tipologiya.

Ko‘rgazmalarning turlari: tematik ko‘rgazma tuzishning asosiy prinsiplari, fond saqlovxonalaridagi eksponatlarni ko‘rgazmaga qo‘yish, restavrasiya yakunidan so‘ng, hisobot ko‘rgazmalar.

Ko‘rgazma faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Mahalliy ko‘rgazmalar. Xalqaro ko‘rgazmalar. Muzeydan tashqari ko‘rgazmalarni tashkil etish tartib qoidalari. Xalqaro ko‘rgazmalarni smeta loyihasini ishlab chiqish va ko‘rgazma konsepsiyasini yozish tartibi.

2-amaliy mashg‘ulot: Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish.

Muzey fondlarini saqlash: turli guruhlardagi harorat-namlilik tartibi; havoni bug‘latuvchi omillardan himoya qilish; to‘g‘ri yorug‘lik tartibi; biologik zarakunandalarga qarshi kurashish; muzey ashyolarini mexanik zararlanishlardan himoya etish; favqulotda holatlarda muzey zahiraxonalarida himoya tizimi va yangi texnologiyalarni qo‘llanilishi. IKOM tomonidan ishlab chiqilgan CIDOC va AFRICOM (1996-1997) katalogizasiya ma‘lumotnomasi, Buyuk Britaniyaning muzey hujjatlari assosiasiyasining SPECTRUM standarti (MDA-1997). Holm,2002, eksponatlarni noqonuniy savdosini oldini olish uchun

yo‘qolgan eksponatlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni e‘lon qiluvchi Thornes (1999) dasturi. Rossiyaning ADIT (Avtomatizatsiya deyatelnosti i informatsionniye texnologii v muzeye www.adit.ru) notijorat hamkori va KAMIS dasturi. YUNESKO axborot jamiyati bo‘limi loyihasi asosida tayyorlangan O‘rta Osiyo muzeylari uchun mo‘ljallangan “Muzeolog” elektron dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi “SKM- muzey” dasturi. Web–kataloglar.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-ko‘chma mashg‘ulot: Muzey va reklama

Muzey faoliyatini targ‘ibot va tashviqot qilishda reklamaning roli. Afishalar, flayerlar, bukletlar, taklifnomalar, web-saytlar, ko‘rgazmalarga bag‘ishlangan promo-roliklar, promo-saytlar yaratish. OAV bilan ishlash va prss-relizlar tayyorlash.



MODULNI O'QITISHDA FOYDALANADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

III. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generasiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generasiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirishimkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Namuna: Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbuli, ya‘ni vaziyatni normallashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.



«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod

dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysdaochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa(How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<p>1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audioyoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
<p>2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<p>3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
<p>4-bosqich: Keys yechimini i shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari

1. *Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni (kichik va individual guruhlarda aniqlash)*
2. *“Monna-Liza” portretini ishlashda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda rassomning mahoratini aniqlang. (guruhlarda tahlil yozma yoki og‘zaki.)*

Keys. Leonardo da Vinchi “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko‘tarilarmidi?

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

Φ	• fikringizni bayon eting
C	• fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	• ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
y	• fikringizni umumlashtiring


- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibdataqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko'pqomatli kompazisiya asarining g'oyasi".

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqalitahlil qiling.



Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'zshaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:
-

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
"V" – tanish ma'lumot.			
"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
"+" bu ma'lumot men uchun yangilik.			
"–" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tutiliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida- alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib,

o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va tinglovchilardanbu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farqchiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

IV. NAZARIY MATIRIALLAR



1 mavzu: O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 12 sentabr «Muzeylar to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi «Muzeylar faoliyatiga taalluqli meyoriy hujjatlar to‘g‘risida»gi 237-sonli qarori (Yo‘riqnomasi bilan);
3. 2010 yil 12 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining «Muzeylar to‘g‘risida»gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 68-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda “2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi (2008 yil) mamlakatimizda muzeylar ishida tub burilish yasadi. Mazkur Qonunni hayotga tadbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 noyabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taalluqli meyoriy hujjatlar to‘g‘risida”gi 237-son hamda 2010 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-son qarorlari qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 noyabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taalluqli meyoriy hujjatlar to‘g‘risida”gi 237-son qaroriga 1- va 2-ilovalarga muvofiq “Milliy muzey fondi to‘g‘risidagi Nizom” hamda “Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqladi.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-son qaroriga 1-8 ilovalarga muvofiq:

Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Davlat muzeylarining toifalari to‘g‘risidagi nizom;

Milliy muzey fondining Davlat katalogi to‘g‘risidagi nizom;

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Muzey mutaxassislarini tayyorlash, muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko‘rish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomlar tasdiqladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining:

Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritish;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini belgilangan tartibda Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazish uchun maxsus ruxsatnoma berish;

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko‘rish tartibi va shartlarini tasdiqlash;

muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

davlat muzeylari tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘larning maqsadli foydalanilishini nazorat qilish;

muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etishga oid bir qator buyruqlari qabul qildi.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi idoralararo kengashning majlislarida) respublika muzeylari oldida turgan dolzarb masalar yuzasidan qarorlar qabul qilinadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan muzeylar o‘z ishlarini ushbu hujjatlar asosida qayta ko‘rib chiqishgan.

Amaldagi Qonunga muvofiq mulkchilik shakliga ko‘ra muzeylar **davlat** muzeylari va **nodavlat** muzeylariga bo‘linadi.

Davlat muzeylariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari bilan tashkil etilgan muzeylar, shuningdek, vazirlik va idoralar, hududiy hokimliklar tarkibidagi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan muzeylar kiradi.

Ixtisoslashuviga ko‘ra muzeylar:

asosiy faoliyati muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o‘rganish hamda ommaga namoyish etishdan iborat bo‘lgan muzeylarga;

asosiy faoliyati tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va u bilan bog‘liq tabiiy landshaft tarkibiga kiradigan madaniy va tabiiy meros obyektlarini, shuningdek, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o‘rganish hamda ommaga namoyish etishdan iborat bo‘lgan muzey-qo‘riqxonalariga bo‘linadi.

“**Davlat muzeylarini** davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat boshqaruvi organlari hamda davlat tashkilotlari tomonidan *tashkil etish* O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.” (Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 apreldagi 68-son qaroriga 1-ilovaning 8-bandi).

Qonunida muzeylarni tashkil etishda **beshta asosiy maqsad** belgilab qo'yilgan.

Bular:

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash (*Muzey ashyosi - sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy boylikdir.*

Muzey kolleksiyasi - o'z kelib chiqish xususiyati yoki shaklan yaqinligi tufayli yoxud boshqa belgilari bo'yicha birlashtirilgandagina muzey ashyosi xususiyatiga ega bo'ladigan madaniy boyliklar majmuidir. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey kolleksiyasi bo'linmasdir.);

muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini aniqlash hamda to'plash; madaniy, ma'rifiy va ta'lim faoliyatini amalga oshirish;

muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini o'rganish (*Ilmiy ro'yxatdan o'tkazish asosiy fondagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o'rganish, ilmiy tahlil etish va tavsiflashning asosiy shakli hisoblanadi);*

muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini e'lon qilish (*Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini e'lon qilish - muzeyning muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini omma oldida namoyish etish, bosma nashrlarda, elektron va boshqa turdagi jismlarda takrorlash orqali jamiyatga taqdim etishning barcha shakllarini nazarda tutuvchi faoliyat turi hisoblanadi).*

Shuningdek, "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida muzeylarni **ko'rsatib o'tilgan maqsadlardan tashqari boshqa maqsadlar uchun tashkil etishga yo'l qo'yilmasligi** alohida ko'rsatib o'tilgan.

Qonunda muzeylar faoliyatini amalga oshirishda bajarishi lozim bo'lgan **to'qqizta asosiy vazifalar** belgilab berilgan:

1) **muzeylarda xalqimizning boy madaniy merosini, uning insoniyat tarixidagi rolini haqqoniy yoritish;** (*ya'ni, har bir muzey ashyosi yoki kolleksiyasini qiyosiy tahlil asosida tomoshabinga taqdim etilishiga erishish zarur. Faqat shundagina tashrifchi uning qimmatini to'g'ri baholaydi va esida saqlab qoladi.)*

2) **siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda mamlakatda erishilgan yutuqlarni keng targ'ib etishga qaratilgan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish;** (*ya'ni, muzeyning hozirjavob bo'lishi, mamlakatda yuz berayotgan voqea-hodisalarning haqqoniy ifodasini o'z vaqtida ko'rsata bilish va h.o.)*

3) **muzeylar fondlarida saqlanayotgan, xalqimizning madaniy boyligi hisoblangan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, mamlakat fuqarolariga namoyish etish, dunyo jamoatchiligiga tanishtirish va targ'ib etish** (*ya'ni, ilmiy muassasalar bilan bevosita aloqa o'rnatish, ekspeditsiyalar takil etish, ularning natijalarini e'lon qilish va yangi ko'rgazmalar tashkil etish);*

4) **muzeylardagi noyob eksponatlar orqali fuqarolarda, ayniqsa yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g'urur va iftixor, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash va kuchaytirish;**

5) **muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy tadqiq qilish ishlarini kuchaytirish va uning natijalarini e'lon qilib borish;**

6) muzey ekspozitsiyalarini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

7) muzeyshunoslikning dolzarb masalalariga oid ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish;

8) chet el muzeylari bilan ko'rgazmalar tashkil etish borasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

9) jahon muzeyshunosligi tajribasini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

Har bir muzey ish faoliyatini baholashda mazkur vazifalar asosiy mezon vazifasini o'taydi. YA'ni, muzey rahbariyati o'zining yuqori tashkilotiga hisobot berganda ushbu vazifalarning qanday bajarilganligini asos qilib olishi kerak.

XXI asr bu innovasion texnologiyalar davridir. Har bir ma'naviy tarbiya maskani zamon qo'yayotgan talablarga mos ravishda o'zini tashkil etmasa, u keraksiz makonga yoki eng kamida talab etilmaydigan joyga aylanib qolishi muqarrar.

Shuning uchun muzeylarni tashkil etish uchun:

a) muzey tematikasiga muvofiq muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining bo'lishi;

b) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash hamda ommaga namoyish etish talablariga javob beradigan moddiy-texnik bazaning, shu jumladan muzeyga mos binoning (xona yoki xonalar) bo'lishi;

v) zarur ko'rgazma jihozlarining mavjudligi;

g) muhofaza (kechayu kunduz elektr quvvatini ta'minlash hamda video kuzatuv) vositalari bilan jihozlanganlik;

d) yong'inga qarshi vositalarning bo'lishi;

ye) muzey faoliyatini ta'minlash uchun zarur moliyaviy mablag'lar mavjudligi talab etiladi.

Muzey notijorat madaniyat muassasasi shaklida tashkil etiladi va belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Muzey Nizomi amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda ishlab chiqiladi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi (faqat davlat muzeylari uchun) hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Muzey Nizomiga belgilangan tartibda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Muzey bank hisob raqamlariga, o'z nomi yozilgan muhrga, shtamp va blankalarga ega bo'ladi.

Muzeylar o'zlarining yuqori boshqaruv organi hamda tegishli hududiy mahalliy hokimliklar bilan kelishgan holda (faqat davlat muzeylari uchun) belgilangan tartibda o'z filiallarini tashkil etishi mumkin.

Muzey filiali o'zi bo'ysunadigan bosh muzey Nizomi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Muzey binosi fuqarolar kirib ko'rish uchun qulay joyga joylashgan bo'lishi lozim. Shuningdek, muzey binosining oldida avtomobillar uchun to'xtash joyi, tomoshabinlar, shu jumladan nogironlar uchun xalqaro andozalarga mos ravishda barcha qulayliklarning, shuningdek, suvinirlar va salqin ichimliklar bilan savdo qiluvchi shaxobchalarining bo'lishi talab etiladi.

Madaniy-tarixiy obidalarga joylashgan muzeylarda fuqarolar va xorijiy sayyohlar uchun zarur shart-sharoit belgilangan tartibda Madaniyat va sport ishlari vazirligi belgilagan tartib asosida tashkil etiladi.

“Davlat muzeyi joylashgan bino boshqa tashkilotlarga berilgan taqdirda ushbu masala bo‘yicha qaror qabul qilgan davlat organi davlat muzeyini teng qiymatdagi bino bilan ta‘minlashi hamda mazkur muzeyning muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini, shuningdek ko‘rgazma jihozlarini ko‘chirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashi shart.” (Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 apreldagi 68-son qaroriga 1-ilovaning 23-bandi).

Muzeyshunoslikda umummilliy siyosatning amalga oshirilishini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining zimmasiga yuklangan.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi muzeylarni boshqarish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritadi;

muзей ashyolari va muzey kolleksiyalarini belgilangan tartibda Milliy muzey fondi tarkibiga kiritadi hamda uning tarkibidan chiqaradi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazish uchun maxsus ruxsatnoma beradi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko‘rish tartibi va shartlarini tasdiqlaydi;

davlat muzeylari tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘larning maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi;

muзей xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining muzeylarni boshqarish sohasida vakolatlari quyidagilardan iborat:

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda o‘z hududida joylashgan muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishini ta‘minlaydi;

o‘z hududidagi davlat muzeylarini moliyalashtirish miqdorini o‘z vakolatlari doirasida belgilaydi;

muzeylarning aholiga xizmat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

o‘z hududidagi davlat muzeylarining muntazam faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat (nodavlat) muzeylari tegishli vazirliklar, tashkilotlar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining (nodavlat muzeylar - mulkdorlar, muassislar) kelishuviga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining taqdimnomasiga binoan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining (nodavlat muzeylar - mulkdorlar) qarori bilan qayta tashkil etiladi va (yoki) tugatiladi.

Muzey qayta tashkil etilganda uning faoliyati maqsadlari o'zgartirilmaydi.

Davlat muzeyi tugatilganda, uning tasarrufida bo'lgan va asosiy hisob hujjatlarida qayd etilib, Milliy muzey fondining Davlat katalogida ro'yxatga olingan barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari, faoliyat yo'nalishi o'xshash (yoki yaqin) bo'lgan davlat muzeyiga to'laligicha o'tkaziladi.

Faoliyati tugatilgan muzey fondida mavjud bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining turli muzeylar yoki boshqa tashkilotlarga tarqatib yuborilishi taqiqlanadi.

Faoliyati tugatilgan muzey fondidagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hamda asosiy hisob hujjatlarini qabul qilib olgan davlat muzeyi ularning but saqlanishini, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari o'z hisob hujjatlarida qayd etilishini hamda Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilishini, ulardan ilmiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarda foydalanishni va ekspozitsiyada namoyish etishni ta'minlashi shart.

Davlat muzeylarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat muzeylarini moliyalashtirish ularning mulkdori mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda o'z hududida joylashgan muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishini ta'minlaydi;

o'z hududidagi davlat muzeylarini moliyalashtirish miqdorini o'z vakolatlari doirasida belgilaydi;

muzeylarning aholiga xizmat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

o'z hududidagi davlat muzeylarining muntazam faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Muzeylarning moddiy-texnika bazasi zarur imoratlar, kommunikasiyalar, jihozlar, muzeylar fondini muzey ashyolari va kolleksiyalari bilan boyitish, ularni saqlash, aniqlash, to'plash, madaniy, ma'rifiy, ilmiy va ta'lim faoliyatini amalga oshirish, o'rganish, e'lon qilish sohasidagi boshqa vazifalarni hal etishda foydalaniladigan boshqa mol-mulkdan iborat bo'ladi.

Muzeylar binolari texnika xavfsizligi qoidalariga hamda sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq jihozlanadi va ulardan tegishli talablarga rioya qilingan holda foydalaniladi.

Davlat muzeylarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat muzeylari xodimlarining ish haqi qonun hujjatlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida davlat muzeylari toifalari darajalariga ko'ra oliy toifa, I toifa, II toifa, III toifadan iborat bo'ladi.

Muzeylarning asosiy fondida saqlanayotgan muzey ashyolari, muzey kolleksiyalarining noyobligi, ularning saqlanish holati, muzey binosining amaldagi talablarga mosligi, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlanganligi, tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, ekspozitsiyasining jahon standartlariga javob bera olishi, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilganligi hamda eksponatlar soni, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni davlat muzeylarining toifalarini belgilashda asosiy ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi.

Davlat muzeylariga:

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan to'liq ta'minlangan, tashrif buyuruvchilarga barcha qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob beradigan, xalqaro aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan hamda eksponatlar soni 40 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 40 ming nafardan ortiqni tashkil etgan bo'lsa - oliy toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlangan, tashrif buyuruvchilarga qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob beradigan, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilgan hamda eksponatlar soni 30 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 30 ming nafardan 40 ming nafargachani tashkil etgan bo'lsa - I toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud bo'lmagan, eksponatlar saqlanish holati talab darajasida, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan qisman ta'minlangan, tashrif buyuruvchilarga o'rtacha darajada qulayliklar yaratilgan, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga qisman javob beradigan, xalqaro aloqalar qoniqarli yo'lga qo'yilgan hamda eksponatlar soni 25 mingdan ziyod, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 20 ming nafardan 30 ming nafargachani tashkil etgan bo'lsa - II toifa;

asosiy fondida noyob muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari mavjud bo'lmagan, eksponatlar saqlanish holati qoniqarli darajada, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlanmagan, tashrif buyuruvchilarga yaratilgan qulayliklar darajasi past, ekspozitsiyasi jahon standartlari talablariga javob bermaydigan, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilmagan hamda eksponatlar soni 20 mingtagacha, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni 10 ming nafardan 20 ming nafargachani tashkil etgan bo'lsa - III toifa beriladi.

Yuqoridagi talablarga javob bermagan muzeylarga toifa berilmaydi va ular hududdagi boshqa yirik muzeylar tarkibiga o'tkaziladi va filial sifatida faoliyat yuritadi.

Yangi tashkil etilgan muzeylarga dastlab III toifa beriladi va bir yillik faoliyatidan so'ng belgilangan asosiy ko'rsatkichlar asosida tegishli ravishda toifasi o'zgartiriladi.

Davlat muzeylarining shtat jadvallari ular ega bo'lgan toifadan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Davlat muzeylari toifa olish, amaldagi toifasini o'zgartirish to'g'risida **o'zlari bevosita bo'ysunuvchi yuqori boshqaruv organlari orqali O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga** murojaat etadi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi maxsus komissiya davlat muzeylariga uning asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda toifa berilganligi to'g'risida **qaror qabul qiladi**.

Muzeylarning asosiy fondida saqlanadigan:

noyob durdonalarning boshqa muzeylarga berib yuborilishi, saqlanish holati yomonlashganda,

muzey binosi talabga javob bera olmay qolganda,

zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta'minlash to'xtab qolganda,

tashrif buyuruvchilarga yaratilgan qulayliklar qoniqarsiz bo'lganda,

ekspozitsiyasining jahon standartlariga javob bera olmay qolishi,

xalqaro aloqalarning susayib borishi,

eksponatlar sonining kamayishi,

muzeyga yil davomidagi tashrif buyuruvchilar soni ko'rsatkichlari pasayishi holati aniqlanganda ularning toifalari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi maxsus komissiyaning qaroriga asosan tegishli tarzda pasaytiriladi.

Muzeylarga ularning toifasini tasdiqlovchi maxsus guvohnoma **uch yil muddatga beriladi** va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Davlat muzeylarini toifalashtirishga oid hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligida saqlanadi.

Davlat muzeylari va ularning yuqori boshqaruv organlari rahbarlari asosiy fondga saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining soni hamda muzeyga yil davomidagi tashrif buyuruvchilar soni va moliyaviy natijalar to'g'risidagi yillik hisobotning mavjud holatdan kelib chiqqan holda haqqoniy tayyorlanishi uchun mas'uldirlar.

Mazkur Qonun va qonun osti hujjatlarni muzeylar faoliyatiga joriy etish jarayonida muzey xodimlarini malakasini oshirish va xorijiy muzeylar bilan tajriba almashish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda "2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 975-sonli qaror

Mazkur qarorning qabul qilinishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi **asos bo'ldi**.

YA'ni mazkur dastur ijrosi yuzasidan "2017-2027 yillarda muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kompleks chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 fevraldagi 119-son farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur farmoyish bilan malakali mutaxassis va ekspertlardan iborat Respublika komissiyasi tasdiqlandi. Bundan tashqari, Madaniyat vazirligida ushbu

farmoyish ijrosini ta'minlash bo'yicha alohida ishchi guruhi tasdiqlanib, faoliyati tashkil etildi.

Ushbu ishchi guruh 2017 yil 1 maydan boshlab respublikamizning barcha hududlariga xizmat safariga yuborildi. Farmoyish asosida hududlardagi 354 ta muzey va muzey faoliyati bilan bog'liq ko'rgazma muassasalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va tahlil qilindi.

2017 yil sentabr oyiga qadar xatlov natijalari hamda xalqaro tajribalarni chuqur o'rgangan holda Vazirlar Mahkamasining "2017-2027 yillarda muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kompleks chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi va tasdiqlandi.

Mazkur qaror bilan, 21 ta banddan iborat "2017 – 2027 yillarda muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi.

Ushbu chora-tadbirlar rejasida 5 ta Hukumat qarori, 10 dan ortiq umummajburiy tusdagi idoraviy-normativ hujjat loyihalarini ishlab chiqish, sohani tubdan takomillashtirish va modernizatsiyalashga qaratilgan qator vazifa rejalashtirilgan.

Shu bilan birga qarorda 7 ta yangi tashkil etiladigan, 21 ta qayta tashkil etiladigan va 33 ta tugatiladigan davlat muzeylari ro'yxati tasdiqlangan.

Shuningdek, 2018-2027 yillarda davlat muzeylari binolarini 9 tasini yangi qurish, 11 tasini rekonstruksiya qilish, 68 tasini mukammal ta'mirlash va jihozlashning manzilli dasturi ishlab chiqildi.

Tayyorlangan manzilli dasturni amalga oshirish uchun dastlabki xisob-kitoblarga ko'ra barcha manbalar hisobidan jami 572 mlrd.so'm mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

2017 yil davomida Qashqadaryo viloyati SHahrisabz shahridagi Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyining "Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyati"ga bag'ishlangan yangi ekspozitsiya yaratildi.

Shuningdek, taniqli xonanda va bastakor Komiljon Otaniyozov tavalludining 100-yilligiga bag'ishlab, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozovning uy-muzeyi tashkil etildi hamda uning tavalludi munosabati bilan qator respublika miqyosidagi tadbirlar doirasida muzeyning ochilish marosimi o'tkazildi.

Bundan tashqari, Jizzax viloyatida atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi SHarof Rashidov hamda taniqli dramaturg va shoir Xamid Olimjon va O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya xayoti va ijodiga bag'ishlangan 2 ta muzey ekspozitsiyasi yaratildi.

Shuningdek, hukumatning tegishli qaroriga asosan I.V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat san'at muzeyi uchun yangi muzey va fond binosi barpo etilib, ushbu muzeyda yangi ekspozitsiya tashkil etildi hamda shu yil mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirildi.

Kelgusi yillarda, dastur doirasida yani 7 ta yangi muzeylarni tashkil etish rejalashtirilgan:

1. Qoraqalpog'iston respublikasi Muynoq tumanida Ekologiya muzeyi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 fevraldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini 2017-2018 yillarda iqtisodiy rivojlantirish va aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2803-sonli qarori hamda VMning 2017 yil 01 iyundagi 01-02/1-426-sonli majlis bayoniga asosan Mo'ynoq tumani "O'lkashunoslik" muzeyini rekonstruksiya qilish belgilangan va bu bo'yicha "Uztransgaz" homiy etib biriktirildi. Xozirda ushbu tashkilot tomonidan muzey binosi yangidan qurilmoqda.

2. Buxoro davlat badiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi tarkibida Buxoro tarixi muzeyi;

Buxoro muzey- qo'riqxonasi zahira fondlarida 124 mingdan ortiq muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari mavjud bo'lib, ularni saqlash uchun aloxida fond binosi hamda ularni doimiy ko'rgazmasini namoyish etish uchun zamonaviy ko'rgazma zali mavjud emas. Shu sababli zamonaviy ko'rgazma zali va fond uchun yangi bino qurish zarur.

3. Buxoro davlat badiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi filiali sifatida Mutal Burxonov uy muzeyi;

O'zbekiston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, taniqli bastakor Mutal Burxonovning 2000 yil 19 apreldagi shahsiy uy-joyini muzey qilish xaqidagi vasiyatnomasi hamda Buxoro shahar hokimining 2016 yil 18 martdagi 32-sonli Farmoyishiga asosan Buxoro shahar B.Naqshband ko'chasi 182/1-uy Mutal Burxonov uy muzeyiga aylantirilgan. Muzey uchun ajratilgan xonadonni kadastr hujjatlari tayyorlangan. Ekspонат va inventarlari ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu muzeyni davlat ro'yxatidan o'tkazish va faoliyatini tashkil etish zarur.

4. Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi filiali sifatida Ergash Jumanbulbul o'g'li yodgorligi muzeyi;

O'zbek adabiyoti va folklori rivojiga katta hissa qo'shgan ushbu mashhur baxshi faoliyatiga bag'ishlab Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida muzey tashkil etilgan. Mazkur muzey binosini rekonstruksiya qilish va zamonaviy ekspozitsiya yaratish zarur. 2018 yilda Ergash Jumanbulbul o'g'lining 150 yillik yubileyi nishonlanadi. Ushbu yodgorlik muzeyi binosi rekonstruksiyaga muhtoj va xududdagi yagona ma'naviy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda.

5. Toshkent viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi;

Nurafshon shahri Toshkent viloyatining ma'muriy markazi etib belgilanishi munosabati bilan, Nurafshon shahrining bosh rejasiga asosan shaharda yangi zamonaviy muzey binosini qurish ko'zda tutilgan. Ushbu muzey barpo etilishi munosabati bilan Oqqo'rg'on tumani va Olmaliq shahridagi muzeylar tugatiladi. Yangi zamonaviy ekspozitsiya yaratiladi.

6. Farg'ona viloyat Oltiariq tumanida Erkin Vohidov uy-muzeyi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 7 dekabrda 2668-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 26 yanvardagi "Farg'ona viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorining 19-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri Erkin Vohidov xotirasini abadiylashtirish maqsadida Oltiariq tumanida "Uy-

muzeyi" tashkil etilgan. Ushbu muzeyni o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish va faoliyatini tashkil etish zarur.

7. Xorazm viloyati Urgench shahrida Avesto merosi muzeyi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 maydagi 301-f-sonli farmoyishiga asosan 2018 yilda Avesto merosi muzeyini tashkil etish va ushbu muzey binosini rekonstruksiya qilish va zamonaviy ekspozisiya yaratish rejalashtirilgan.

Tasdiqlangan qarorga asosan respublikamiz bo'yicha 33 ta muzey va muzey filiallari faoliyatini tugatish belgilangan.

Buning asosiy sabablaridan biri, respublika komissiyasi tomonidan joylardagi muzeylar faoliyati o'rganilganda ushbu muzeylar O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonun talablariga javob bermasligi aniqlangan, ya'ni:

ushbu muzey binolari va moddiy texnika bazasi belgilangan talablariga javob bermasligi;

muzey ashyolarining soni kamligi hamda ularni o'rnatilgan tartibda saqlash sharoitining yo'qligi;

iqtisodiy samarasizligi, tashrif buyuruvchilar sonining kamligi kabi qator sabablarga ko'ra ushbu muzeylar faoliyatini tugatish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Albatta ushbu tugatilayotgan muzeylarning muzey ashyolari, kolleksiyalari, yaroqli moddiy-texnika bazasi tegishli yo'nalishi bo'yicha o'z hududidagi yirik muzeylarga to'liq o'tkazib beriladi hamda ulardagi mavjud eksponatlarni kelgusi avlodga yetkazish bo'yicha zarur choralar ko'riladi.

Qayta tashkil etishda asosan muzeylarning nomlari o'zgartiriladi.

Respublikamizning viloyatlarida joylashgan aksariyat o'lkashunoslik muzeylarida yig'ilgan kolleksiyalar muzey joylashgan xudud tarixining barcha davriga mansub ashyolarni jamlaganligi bilan muhim hisoblanadi.

Mazkur muzeylarda yig'ilgan ashyolarning asosiy qismini arxeologiya, numizmatika, etnografiya ashyolari va foto materiallar tashkil etadi.

O'z tarixi davomida muzey bir necha marta nomi va maqomini o'zgartirgan. Sobiq sovet hukumatining muzeylarda olib borgan islohoti natijasida muzeylarimiz "o'lkashunoslik muzeyi" maqomini olgan. Bu davrda muzeylar o'z maqomidan kelib chiqib, asosiy faoliyat yo'nalishini sinfiylik tizimi ildizlarini o'rganish va uni ommaviy targ'ib qilishga qaratgan edi.

Mamlakatimiz mustakillikka erishgach esa o'lkashunoslik muzeylarining asosiy faoliyat yo'nalishi o'zgardi. Endi ular o'zbek xalqining boy madaniy merosini, davlatchilikning shakllanishini haqqoniy tarzda namoyish qilish va jahon miqyosida targ'ib qilishga yo'naltirildi.

Shu o'rinda ularning maqomini o'zgartirish davr talabiga aylanib qoldi. YA'ni o'lkashunoslik muzeyi nomini "...viloyati tarixi va madaniyati muzeyi"ga aylantirilishi bugungi viloyat muzeylarining faoliyat yo'nalishiga to'la mos tushadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek ushbu muzeylarda o'zbek xalqining barcha madaniy davrlariga va davlatchilikning shakllanishiga mansub boy kolleksiya yig'ilgan. Ular yordamida har bir hududning madaniy rivojlanishi tarixini to'la yoritib borish imkoniyati mavjud. Endilikda uni zamonaviy usuldagi jihozlar

yordamida, chuqur ilmiy asoslangan konsepsiyaga asoslangan holda namoyish qilish vazifasini amalga oshirish lozim.

Tarixdan ma'lumki, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari bilan bir qatorda hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Farg'ona viloyati hududlari ham Buyuk ipak yo'lining asosiy strategik nuqtalaridan biri hisoblangan.

Shuning uchun ham ushbu hududlarda ko'plab tarixiy qadamjolar mavjud bo'lib, madaniy meros obyektlari bugungi kunga qadar saqlanib qolingan.

Bugungi kunda, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida muzey-qo'riqxonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ammo, bular ham sobiq ittifoq davrida tashkil etilgan bo'lib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bironta ham muzey-qo'riqxonasi ochilmagan.

Ayni paytda madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha qator ibratli ishlar olib borilmoqda. Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Farg'ona viloyatlarida ham muzey-qo'riqxonalar tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tayyorlash dasturda belgilangan.

Chunki, bu hududlarda muzey-qo'riqxonalar ochish imkoniyati ham, sabab ham yetarli darajada. *Masalan:*

Surxondaryo viloyatida Fayoztepa budda manastri, Qirqqiz qal'asi, Sulton Saodat maqbarasi, Qoqildor ota xonaqoqi, at-Termiziy ziyoratgohi va boshqa shu kabi madaniy obyektlar negizida,

Farg'ona viloyatida qadimiy Qubo shahristoni, Mug'tepa arxeologik yodgorligi, Qo'qon Xudoyorxon O'rdasi, Jo'me masjid, Nobo'tabiy madrasasi, Milliy hammom, Osiyo banki, Miyon xazrat madrasasi, Marg'ilon shahrida Saidahmadxo'ja madrasasi, Pir Siddiq maqbarasi, Burxoniddin Marg'iloniy yodgorlik majmuasi, Xarbiy gubernator uyi;

Qashqadaryoda SHahrizabz shahrida 230 gektar tarixiy hududni egallagan YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan jami 18 ta tarixiy-me'moriy obidalar negizida,

Navoiyda Raboti Malik karvonsaroyi va sardobasi, Mavlono Orif Deggaroniy me'moriy obidasi, Mirsaid Bahrom Maqbarasi, SHayx Xo'ja Xisrav maqbarasi, Qosim SHayx me'moriy majmuasi, Nur qal'asi, «Chilustun» jome' masjidi, Ko'k gumbaz masjidi, SHayx Abul Hasan Nuriy maqbarasi, Nur chashmasi, Kiziltepatoshmachiti, Hazrat Boyazid Bastomiy ziyoratgohi, SHayx Abulxasan Xaraqoniy (Qalqonota), Sarmishsoy tabiiy-arxeologik majmua, Oqmasjid yodgorligi, Sangijumon toshi, Qilich ota maqbarasi, Jaraquduq hududidagi "tosh o'rmon" va shu kabi boshqa obyektlar negizida tashkil etiladi.

Bundan tashqari O'zbekistonning boy madaniy merosi va tarixini mahalliy va xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, saqlash, ilmiy tadqiq etish, turizmni yanada rivojlantirish va mablag'larni samarali boshqarish maqsadida Buxoro, Samarqand va Xiva tarixiy shaharlaridagi davlat muzey-qo'riqxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish zarur.

1.2. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro meyoriy hujjatlar va xartiyalar

Reja:

1. Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya (14 noyabr, 1970 yil).

2. Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (16 noyabr, 1972 yil);

3. Suvosti madaniy merosini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (2 noyabr, 2001 yil);

4. Nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya (15 oktabr, 2003 yil).

Madaniy qadriyatlarni saqlab qolish dunyoning barcha xalqlari uchun katta ahamiyatga ega ekanligini va ushbu qadriyatlar xalqaro himoyasini ta'minlash muhimdir. Har bir xalq dunyo madaniyatiga o'z hissasini qo'shishini e'tiborga olib, har bir xalqning madaniy boyliklariga yetkaziladigan zarar butun insoniyat madaniy qadriyatlariga yetkaziladigan zarar ekanligi hamda qurolli mojarolar paytida madaniy boyliklarga jiddiy zarar yetkazilganini va harbiy texnikaning rivojlanib borishi oqibatida madaniy boyliklar ko'proq vayron bo'lish xavfi yuzaga kelayotganligini inobatga olib 1954 yil 14 mayda Gaaga shahrida "Qurolli mojarolar chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilingan. Ushbu hujjat Gaaga shahrida qabul qilinganligi sababli uni qisqa qilib, Gaaga konvensiyasi deyiladi.

1999 yil 26 martda mazkur konvensiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida Ikkinchi protokol ishlab chiqilgan.

1970 yilning 12 oktabridan 14 noyabrigacha Parijda o'zining XVI sessiyasiga yig'ilgan Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMTning Bosh konferensiyasida "Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to'g'risida"gi konvensiya qabul qilingan. Konvensiyada madaniy qadriyatlar sivilizatsiyalar va xalqlar madaniyatlarining asosiy unsurlaridan biri hisoblanishini va ular o'zining kelib chiqishi, tarixi va atrof muhiti aniq ma'lum bo'lgandagina haqiqiy qimmatiga ega bo'lishi;

har bir davlat o'z hududida joylashgan madaniy boyliklarni o'g'rilik, yashirin qazishlar va noqonuniy olib chiqib ketish xavfidan asrashga majburligi;

ushbu xavflarning oldini olish maqsadida har bir davlat, ham o'zining madaniy boyliklariga, ham boshqa xalqlarning madaniy boyliklariga nisbatan axloqiy majburiyatlarini yanada chuqur anglab yetishi lozimligi;

muzei, kutubxona, arxivlar madaniyat muassasalari hisoblanib, ularning kolleksiyalari umumbashariy axloqiy prinsiplar asosida tuzilishi uchun sharoit yaratishlari kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

1972 yil 16 noyabrda Parij shahrida madaniy va tabiiy merosning har qanday obyektiga putur yetishi yoki uning yo'qolishi dunyo xalqlari mulkining qashshoqlashuviga sabab bo'lishi hamda bunday merosning muhofazasi milliy darajada ko'pincha u talab etadigan, katta xarajatlarning yetarli bo'lmaganligi, yangi xavf, tahdidlarning miqyosli va jiddiyligini inobatga olib "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya qabul qilingan.

Suvosti madaniy merosidan tijorat maqsadlarida foydalanishning, ayniqsa suvosti madaniy merosini sotish, sotib olish yoki ularni barter qilishga qaratilgan harakatlarning ko'payib borayotganligini inobatga olgan holda 2001 yil 2 noyabrda Parij shahrida "Suvosti madaniy merosini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya qabul qilingan. Unda davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot

instituti, ixtisoslashgan tashkilotlar, arxeologlar, g'avvoslar, manfaatdor tomonlar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligida xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada suvosti madaniy merosini o'z joyida saqlab qolish uchun samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Globalashuv va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni hamjamiyatlar o'rtasida o'zaro muloqot o'rnatish uchun qulay zamin yaratish bilan bir qatorda murosasizlikning kelib chiqishi, degradasiyalanishning jiddiy tahdid manbai bo'lishi, xususan, nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha mablag'larning yetishmasligi oqibatida uning yo'qolib yoki buzilib ketish xavfi ostidaligini anglagan holda 2003 yil 15 oktabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" bo'yicha Xalqaro konvensiya qabul qilingan. Konvensiyada hamjamiyatlar, xususan tub aholiga mansub va ayrim hollarda alohida shaxslarning nomoddiy madaniy merosini barpo etishda, muhofaza qilishda, saqlash, qayta bunyod etish va shu tariqa madaniy turli-tumanlikni boyitishda va insoniyatning ijodkorlik qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynashiga urg'u berilgan.

YUNESKOning xalqaro konvensiyalari xalqlar va davlatlarning fan, ta'lim, madaniyat oldida turgan vazifalarini bahamjihat bajarishga qaratilgan. Bu konvensiyalar ijtimoiy hayotning turli-tuman sohalarini jumladan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, sport sohalarini qamrab oladiki, ularda ona-zaminimizni, tarixiy merosimizni, insoniy, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ularni rivojlantirish va himoyalash g'oyalari mujassamlashgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 49-moddasida madaniy meros obyektlari davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo'yilgan. "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi, "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Arxiv ishi to'g'risida"gi, "Muzeylar to'g'risida"gi, "Geodeziya va kartografiya to'g'risida"gi, "Turizm to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari, qator meyoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturi doirasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya" (Parij, 1972 yil 16 noyabr), "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya" (Parij, 2003 yil 17 oktabr) ratifikatsiya qilindi.

Yurtimiz o'zining boy tarixi, o'tmishi, buyuk allomalari-yu tarixiy shaharlari bilan dunyo jamoatchiligi, ilm ahli va sayyohlarni jalb etib kelmoqda. Respublikamiz hududida jami 7 ming 345 moddiy-madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, shundan 4 ming 124 tasi arxeologiya obyektlari, 2 ming 277 tasi arxitektura obyektlari, 657 tasi monumental san'at asarlari, 287 tasi diqqatga sazovor joylar hamda 53 tasi nomoddiy madaniy meros obyektlari hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va SHahrisabz shaharlari muhofaza etiladigan tarixiy yodgorliklar sifatida, Navro'z umumxalq bayrami, milliy musiqa san'ati — Katta ashula, SHashmaqom, milliy hajv san'ati — askiya esa nomoddiy madaniy meros obyektlari sifatida YUNESKOning Umumjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Bundan tashqari, muzeylarda 2,5 milliondan ziyod eksponat va kolleksiyalar mavjud, arxivlarda madaniy meros obyektlariga oid millionlab hujjatlar saqlanmoqda.

2- mavzu: Milliy muzey fondini tashkil etish va boshqarish masalalari

Reja:

1. Asosiy fond, ilmiy – yordamchi fond, vaqtinchalik saqlov fondi.
2. Ro‘yxatga olish hujjatlari. Qabul qilish va topshirish dalolatnomasi. Doimiy saqlovga qabul qilingan muzey ashyolarini kirim kitobiga kiritish.
3. Muzey ashyolarini inventar (ilmiy ro‘yxatga olish) kitobiga kiritish tartibi.
4. Vaqtincha qabul qilingan ashyolarni ro‘yxatga olish kitobi bilan ishlash. Ilmiy yordamchi materiallarni ro‘yxatga olish kitobi.
5. Muzey ashyolarining ilmiy – tahliliy kartochkalari bilan ishlash. Kartotekalar bilan ishlash.
6. Muzey fondlarini ilmiy komplektlash.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish deganda O‘zbekiston Respublikasining umumxalq mulki bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini aniqlash va tegishli tartibda qayd etish tushuniladi.

Hisobga olish muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining huquqiy himoyalanihini ta’minlaydi, ularni o‘rganish va unumli foydalanish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olishning asosiy huquqiy hujjatlari – eksponatlarni qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining kirim kitobi va inventar kitoblaridan iboratdir.

Dalolatnomalar, kirim va inventar (ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish) kitoblariga aniq va lo‘nda, dog‘ qilmasdan, o‘chirib yozmasdan va o‘zgartirishlarni alohida eslatib o‘tish yo‘li bilan yozilishi shart. Bu hujjatlardagi xato yozuvlarni tuzatishga faqat favqulodda hollardagina ruxsat etiladi.

Muzey fondlarini davlat ro‘yxatiga olish ikki bosqichda amalga oshiriladi: muzeyga kelib tushgan buyumlarni o‘rganib qayd etish maqsadida dastlabki himoya hujjatlarini tuzish (dalolatnomalar yozish, kirim kitobiga ularning qisqacha tavsifini yozib qo‘yish);

ularni inventar kitoblarida ro‘yxatga olish (olingan manbalarni ashyolar va kolleksiyalarning xillari va san’at turlariga qarab turkumlashtirish, ularni aniqlab, kitoblarda kengaytirilgan va aniq tavsiflarni aks ettirish).

Qo‘shimcha yozuvlar faqat qizil siyohda yoziladi. Bunday hollarda eski yozuvlar ustidan bir chiziq tortib, ularni o‘qib olish imkoniyati qoldiriladi. Shu sahifaning o‘ziga o‘zgartirish sanasi qayd etilib, imzolanadi.

Muzeyga kelib tushgan barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari qat’iy tartibda ro‘yxatga olinib, hujjatlashtirilishi shart. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini qabul qilib olish yoki berish jarayonida darhol tegishli dalolatnomalar rasmiylashtiriladi. Qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari (1,2

– ilovalar) ro‘yxatga olish ishidagi dastlabki huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Bunday dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilmagan buyumlarni muzeylarda saqlash qat’iyan taqiqlanadi.

Dalolatnomalarda buyumning kimdan (yoki kimga), qanday maqsadlarda va qancha muddatga olinganligi yoki berilganligi, qayerda va qachon ushbu hujjat tuzilganligi aniq, ravshan ko‘rsatib o‘tilishi shart. Bu hujjatda har bir muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari birma-bir tavsiflab yozib chiqiladi, ularning hajmi, materiali, yaratilish texnikasi, saqlanish holati, g‘ilof va boshqa qo‘shimchalari, agar boshqa muzeydan kelib tushgan bo‘lsa, ilgarigi dalolatnoma, kirim va inventar kitoblaridagi tartib raqami, shifri ko‘rsatib o‘tiladi. Doimiy foydalanish uchun olingan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini qayd etishda sotib olingan narxi yozib qo‘yiladi. Dalolatnomaga, iloji bo‘lgan taqdirda, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining kelib chiqishi, shu davrgacha qayerlarda saqlanib kelinganligi, qanday tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liqligi, kimlar tomonidan bunyod etilganligi haqidagi ma’lumotlar ilova qilinishi maqsadga muvofikdir.

Agar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga kengroq sharh yoki mutaxassisning xulosasi zarur bo‘lsa, dalolatnomaga tegishli tashkilotning ekspertiza komissiyasi yoki o‘sha mutaxassis ishlayotgan idora tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hujjat ilova kilinadi.

Tarkibida qimmatbaho metall va toshlar bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini qabul qilib olish yoki berish “O‘zbekiston Respublikasi Davlat muzeylarida qimmatbaho metall va toshlardan iborat bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ro‘yxatga olish va saqlash to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma”ga asosan amalga oshiriladi. Bunday muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ta’mirlash yoki probasini aniqlash uchun boshqa tashkilotlarga yuborish chog‘ida, o‘sha tashkilotning kafolatnomasi olinishi, buyumning saqlanish holati va berilayotgan muddati aniq ko‘rsatilgan dalolatnoma tuzilishi, bosh muhofiz (fond mudiri)ning roziligi bilan muzey direktorining buyrug‘i chiqarilishi kerak.

Orden va medallarni muzey fondiga qabul qilib olish va saqlash tartiblari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga asosan Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat muzeylarida qimmatbaho metall va toshlardan iborat bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ro‘yxatga olish va saqlash to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma”ga asosan amalga oshiriladi.

Muzey fondiga qurollarni qabul qilib olish yoki berish yuqori tashkilotlarning hamda Ichki ishlar idoralarining maxsus ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari kompyuterda yoki qo‘lda yoziladi. Agar qo‘lda yozilgan taqdirda qora yoki binafsha rang pastali ruchka ishlatiladi.

Ekspонат yig‘ish uchun joylarga chiqilganda muzeyning ilmiy xodimlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma yoki maxsus kvitansiyalar (arxeologik, geologik va boshqa ekspeditsiyalarning joylarda tuzilgan ro‘yxatidan tashqari) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining birlamchi huquqiy hujjati hisoblanadi. Bu hujjatlar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini topshirgan shaxs va qabul qilib olgan muzey xodimi tomonidan imzolanadi. Topshirilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining to‘liq ro‘yxati uch nusxada tuzilib, mazkur hujjatga ilova

qilinadi. Espedisiyaning katta miqdordagi materiallari, baholash yoki xulosa chiqarib berish uchun tekshirishga vaqtinchalik berilgan buyumlari alohida xonalarda saqlanib, ularni saqlab turish javobgarligi shu muddatga biron-bir muhofizga yuklatiladi. Bu xodim muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kvitansiyalar yoki kolleksiyalar ro'yxati (4-ilova) ga asosan qabul qilib oladi, fond ishlari va sotib olish komissiyasida masala ko'rib chiqilguncha o'zida saqlab turadi.

Ekspedisiya materiallarining muhofizi muzeyga sotish uchun, sovg'a sifatida, ekspertiza va boshqa maqsadlarda tushadigan ashyolarni ham vaqtinchalik saqlashi mumkin. Bunday ashyolar ham buyum egasidan dalolatnoma yoki kvitansiya tuzish yo'li bilan qabul qilib olinadi.

Muhofiz tushgan buyumlar hujjati va manbasi, ularning ro'yxati, fond ishlari va sotib olish komissiyasining qarori, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini egalariga qaytarish yoki ularni ilmiy bo'limlarga o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladigan "Fond ishlari va sotib olish komissiyasi hujjatlarini qayd etish kitobi"ni olib boradi. U muzeyga kelib tushgan buyumlar kartotekasini ham tutadi.

Fond ishlari va sotib olish komissiyasining tegishli qarori ko'rsatilgan bayonnoma tasdiqlangach, muzeyning bosh muhofizi (fond mudiri) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini doimiy saqlash va keyinchalik kirim kitobiga yozish maqsadida qabul qilib olish dalolatnomasini tuzadi, bu dalolatnoma bir vaqtning o'zida muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini vaqtinchalik saqlab turgan ilmiy xodimning topshirish hujjati bo'lib ham hisoblanadi, bu hujjat bosh muhofiz (fond mudiri) va ilmiy xodim tomonidan imzolanadi va direktor tomonidan tasdiqlanadi.

To'liq rasmiylashtirilmagan dalolatnomalar ijro uchun kabul qilinmaydi.

Qabul qilib olish va berish dalolatnomalari eng kamida uch nusxada yozilishi kerak. Uning birinchi nusxasi bosh muhofiz (fond mudiri) yoki ro'yxatga olish bo'limida, ikkinchi nusxasi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari saqlanayotgan yoki berilgan bo'limda, uchinchi nusxasi topshirgan yoki qabul qilib olgan shaxsda saqlanadi.

Agar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bosh muhofiz (fond mudiri) qo'lida saqlansa, dalolatnomaning birinchi nusxasi muzey direktoriga topshiriladi.

O'z tizimlarida muzeylar bo'lgan boshqa vazirliklar va idoralar muzeylaridan eksponatlarni berish tegishli vazirlik va idoralarning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Vaqtincha ko'rgazmalar tashkil etayotgan muassasa va tashkilotlarga vaqtinchalik foydalanishga beriladigan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari uchun tuziladigan dalolatnomada eksponatni qabul qilib olayotgan o'sha muassasaning mas'ul vakili Yo'riqnoma bilan tanishib chiqqanligi va uni so'zsiz bajarishga va'da berganligi alohida ta'kidlab o'tilishi kerak. Bundan tashqari, o'sha muassasadan eksponatni but saqlash va vaqtida qaytarish to'g'risida kafolatnoma olinadi hamda bu haqda dalolatnomada qayd etib o'tiladi. Zarur hollarda muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini idishlarga joylash, tashish, o'rnatish va saqlash qoidalari, shart-sharoitlari ham dalolatnomada eslatib o'tilishi mumkin. Boshqa shaharlardagi tashkilotlarga eksponat jo'natilayotganda uni idishlarga joylash va dalolatnomasini tuzish chog'ida qabul qiluvchi tashkilotning vakili albatta qatnashishi shart.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini faqat tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ishonch qog'ozini bergan shaxsga topshirish mumkin. Qabul qilib

olgan shaxs bu ashyolarni oxirgi manzilga yetib borguncha kuzatib borishi kerak. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini qabul qilib olish yoki berish dalolatnomasiga transport hujjatlarining nusxalari ham ilova qilinishi kerak.

Eslatma: Muzeida vaqtinchalik saqlanayotgan eksponatlarni ularning egasidan ruxsat olmay turib boshqa shaxs yoki tashkilotlarga berish qat'iy taqiqlanadi.

Vaqtinchalik foydali uchun olingan eksponatlarni egalari qaytarishga muzei direktorining buyrug'i chiqarilib, bu buyruq bilan bosh muhofiz (fond mudiri), ro'yxatga olish bo'limining mudiri va o'sha eksponatga moddiy javobgar bo'lib turgan shaxs tanishtiriladi hamda o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuziladi.

Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini muzei ichida qisqa muddatga bo'limdan fotolaboratoriyaga yoki ilmiy maqsadlarda ilmiy xodimga berish bosh muhofiz (fond mudiri)ning ruxsati bilan qabul qilib olgan shaxsning tilxati asosida maxsus kitobda qayd etib, amalga oshiriladi.

Dalolatnomalar. Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini doimiy yoki vaqtinchalik saqlash uchun tuziladigan qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari alohida tartib raqamlariga ega bo'lishi kerak. Bunda vaqtinchalik saqlanuvchi buyumlarga "VS" shifri beriladi. Masalan: VS /№ 101. Alohida-alohida tartib raqamlari berilgan vaqtinchalik va doimiy saqlash dalolatnomalari alohida-alohida ikkita kitobga tartib raqamiga qarab tikib boriladi.

Dalolatnomalar kamida uch nusxada tuzilib, ularning ikkita nusxasi muzeida saqlanadi.

Katta muzeylarda dalolatnomalar bosh muhofiz (fond mudiri) va ro'yxatga olish bo'limi mudirida, kichik muzeylarda esa muzei direktori va bosh muhofiz (fond mudiri)ning qo'lida saqlanadi.

Yilning oxirida barcha dalolatnomalar kitobga tikilib, muhrlanadi hamda har bir sahifasiga tartib raqami beriladi. Bu kitoblar alohida joylarda doimiy saqlanadi. Dalolatnomalar kitob to'lguncha qayd etib borilishi mumkin, lekin har yili yana 1-sondan boshlab raqamlanadi.

Muzei ashyolari va muzei kolleksiyalarini doimiy saqlash uchun berish dalolatnomalarini qayd etish uchun alohida kitob tutiladi va bu kitob to'lguncha tartib raqamini o'zgartirmasdan kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Doimiy saqlash uchun berish dalolatnomalari alohida tikib muqovalanadi.

Muzeiga doimiy saqlash uchun kelib tushgan barcha muzei ashyolari va muzei kolleksiyalari dalolatnomalarda qayd etilib, fond ishlari va sotib olish komissiyasida ko'rib chiqilgandan keyingi bir oy ichida asosiy fondlarning kirim kitobida ro'yxatga olinishi shart. Muzeiga vaqtinchalik saqlash uchun topshirilgan buyumlar maxsus kirim kitobida qayd etiladi.

Muzeylarga vaqtincha saqlash uchun topshirilgan ashyolar 20 yil davomida uning egasi tomonidan talab qilinmagan taqdirda muzeining kirim kitobi (KK) ga ro'yxatga olinadi.

Davlat himoya hujjatlari hisoblangan kirim kitobini tutishdan asosiy maqsad buyumni alohida tartib raqami ostida qayd etish va buyumga shu raqamni berish, uni almashtirib qo'yishning oldini olish, yo'qolganda yoki o'g'irlanganda qidiruv ishlarini osonlashtiradigan qisqacha tavsifini yozib qo'yishdir. Buyumning kirim

kitobidagi tartib raqami bir vaqtning o'zida uni muzeyga qabul qilib olingan dalolatnomada ham qayd etib o'tiladi.

Eslatma: Agar muzeyga katta miqdorda bir turdagi buyumlar kelib tushsa, (tangalar yoki grafik suratlar kolleksiyasi, bir voqeaga bag'ishlangan bir qancha fotosuratlar va boshqalar) u holda o'sha kolleksiyalar guruhi kirim kitobiga bir marotaba qayd etiladi, lekin bu yerda kolleksiyaga kirgan har bir buyumning tartib raqami qo'shib hisoblanadi. (Masalan, K.K. Kirim kitobi- 523-623. Chust pichoqlari. XX asr boshlari, po'lat, kandakorlik uslubida naqsh berilgan, g'ilofda) yoki kolleksiyaga bir tartib raqami berilib, undagi har bir buyum esa kasriy raqamlarda qayd qilinadi. (Masalan, K.K. – 17/1-15 Lutfulla Abdullayev, Oybekning "Bolalik" qissasiga ishlangan grafik suratlar, qog'oz, akvarel, 18x24, 15 dona). Kolleksiyalar guruhini kirim kitobiga faqat bir marotaba qayd etishga shu kolleksiyalarning mukammal ro'yxati mavjud bo'lgandagina ruxsat etiladi. Qayd etilayotgan yozuvda mana shu ro'yxat albatta eslatib o'tilishi kerak. Tarkibida qimmatbaho metall va toshlar mavjud bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini guruhlab qayd etishga ruxsat berilmaydi.

Arxeologik, etnografik, geologik va boshqa xil ekspedisiyalar natijasida muzeyga kelib tushgan eksponatlarning joylarda tuzilgan ro'yxatlari kirim kitobida eslatib o'tiladi. Agar muzeyga boshqa tashkilotlarning ekspedisiyalari tomonidan kolleksiyalar berilsa, u holda bu kolleksiyalardagi bir xil turdagi materiallar umumiy bitta yozuv bilan qayd etiladi, shu kolleksiyadagi eng nodir yodgorliklar esa birma-bir yozib ko'rsatiladi.

Kirim kitobiga yozishdan avval kolleksiyadagi buyumlar saralanib, asosiy va ilmiy-ko'makchi fondlar uchun ajratib olinadi. Bunda bir xil turdagi ilmiy yoki tarixiy qiymatta ega bo'lmagan, yaxshi saqlanmagan buyumlar (sopol parchalari, tosh qurollar va boshqalar) ilmiy-ko'makchi fondga kiritiladi. Kelib tushgan arxeologik, geologik materiallar guruhi yoki biror bir tarixiy shaxsdan yodgorlik bo'lib qolgan, hali o'rganib chiqilmagan shaxsiy arxiv kirim kitobida bitta tartib raqami bilan qayd etiladi. Kolleksiyadagi barcha buyumlar esa birma – bir kasriy son bilan ro'yxatdan o'tkaziladi. Agar bunday kolleksiyalarni ro'yxatdan o'tkazishdan avval turkumlashtirish, quritish yoki ishlov berish kabi bir qator ishlarni bajarish lozim deb topilsa, u holda kirim kitobiga ro'yxatlash ishlarining eng so'nggi muddati fond ishlari va sotib olish komissiyasi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Muzeyga kelib tushgan xazinalar butunligicha saqlanadi. Ularni boshqa xazinalar yoki buyumlar bilan aralashtirib yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Kirim kitobida xazinaga bitta tartib raqami beriladi va xazinadagi har bir tanga – chaqa, taqinchoq yoki boshqa buyumlar mukammal tavsiflanib yozib chiqiladi.

Ekspedisiyada yig'ilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining joylarda tuzilgan ro'yxatlari shu ro'yxatni tuzgan shaxs tomonidan imzolanadi, ekspedisiya rahbari tomonidan tasdiqlanib, so'ngra muzeyda muqovalanadi, har bir sahifaga tartib raqami berilib, muhrlanadi. Ekspedisiyalarning joylarda tuzilgan ro'yxatlari maxsus kitobga qayd etib boriladi.

Muzeyning kirim kitoblarini ularga yozishdan avval himoya hujjati sifatida har bir sahifasiga tartib raqami berilib, shnurlanadi va yuqori tashkilotning muhri bilan muhrlanadi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari kirim kitobida ro‘yxatga olingach, ularga muzeyning shifri va kitobdagi tartib raqami yozib qo‘yiladi. Masalan: DSM (Davlat san’at muzeyi) — KK-118 yoki OUM (Oybek uy-muzeyi) KK-3523. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini shifrlashda qog‘oz materiallarning orqa tomoniga oddiy qalam bilan, moybo‘yoq asarlarda esa ularning bagetiga flomaster bilan belgi qo‘yiladi. Chinni buyumlarga ko‘rinmas joyiga qora siyohda yozilib, qurigandan so‘ng ustidan rangsiz lak bilan bo‘yaladi. Mayda va nozik buyumlarga esa karton qog‘ozdan yorliq boylab yoziladi.

Nodir muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining barchasi albatta fotosuratga olinishi shart.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish.

Ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish asosiy fondagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o‘rganish, ilmiy tahlil etish va tavsiflashning asosiy shaklidir. Muzeyga doimiy saqlash uchun kelib tushgan barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari ilmiy ro‘yxatga olinadi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida ularni asosiy fondni yuritishda qabul qilingan turkumlash tartibi bo‘yicha turlarga, navlarga, guruhlarga ajratib chiqiladi. Katta miqdordagi kolleksiyalar kelib tushganda, ularni avval muzeyning bo‘limlariga ajratib beriladi va bu buyumlar har bir bo‘limning ichida alohida turkum va navlarga ajratiladi. Bu muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o‘rganish, ilmiy ro‘yxatlash va zarur sharoitlarda saqlashni osonlashtiradi.

O‘lkashunoslik muzeylarida buyumlar manbalari, kolleksiyalari, material navlari, san’at turlari, bajarilish texnikasi va qo‘llanishiga qarab turlarga bo‘linadi.

Masalan,

moddiy manbalar

tabiat tarixiga oid yodgorliklar;

arxeologik kolleksiyalar;

numizmatik kolleksiyalar (tanga-chaqalar, orden va medallar, hazina, qog‘oz pullar va boshqalar);

etnografiyaga oid kolleksiyalar;

metall, yog‘och, sopol, mato va boshqa materiallardan tayyorlangan buyumlar (qurol, mebel va boshqalar).

Tasviriy manbalar (moybo‘yoq va grafik asarlar, haykallar, xalq amaliy san’ati asarlari, fotosuratlar).

Yozma manbalar (qo‘lyozma va toshbosma hujjatlar, nodir kitoblar);

kino, video, fono materiallar

yodgorlik buyumlari guruhi

Uncha katta bo‘lmagan muzeylar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o‘zlari belgilab olgan turlash tartibi bo‘yicha 3-4 guruhga ajratib yozishlari mumkin.

Badiiy muzeylarda muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari san’atning turlariga qarab (moybo‘yoq asarlar, haykallar, grafik suratlar, xalq amaliy san’ati namunalari va boshqalar), yasalgan materiali va texnikasiga qarab (yog‘och, metall, suyak, gravyura, kandakorlik va boshqalar) yoki ularning qo‘llanishiga qarab (mebel, numizmatika, yoritish chiroqlari va boshqalar) turkumlanadi.

Katta miqdordagi badiiy kolleksiyalari mavjud bo'lgan muzeylar uchun muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini quyidagicha turkumlash tavsiya etiladi:

moybo'yoq asarlar;

xoch va butlar;

grafik suratlar (qalamda va akvarel bo'yoqda chizilgan suratlar, gravyura va litografiya, plakatlar va boshqalar);

haykallar;

me'morchilik asarlarining bo'laklari va namunalari;

xalq amaliy san'ati asarlari (sopol va shisha, metall, yog'och, suyak, toshdan yasalgan buyumlar);

numizmatika materiallari (tanga-chaqalar, orden, medal va jetonlar, hazinalar, qog'oz pullar va boshqalar);

arxeologik kolleksiyalar.

Uncha katta bo'lmagan muzeylarda 3-4 guruhlariga bo'lib turkumlash mumkin:

moybo'yoqli suratlar, xochlar va butlar;

grafik suratlar va me'morchilik chizmalari;

haykallar va me'morchilik namunalari;

xalq amaliy san'ati namunalari (mebel, mato, chinni va boshqalar).

Guruhlariga bo'lib turkumlash tartiblari aniqlab olingach, barcha muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari tegishli guruhlariga bo'lib chiqiladi, har bir bo'lim tegishli ravishda shifrlanadi.

Har bir bo'lim o'zining shifrlangan inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobiga (5-ilova) ega bo'ladi. Masalan: moybo'yoqli suratlarga "M" – shifri (belgisi) qo'yilsa, grafik suratlarga — "G" belgisi, haykallarga—"X" belgisi, yog'ochga— "YO" belgisi, fotosuratlarga — "F" belgisi qo'yiladi.

Katta muzeylarda muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari bo'limlarga bo'linib saqlanadigan bo'lsa, bu buyumlarga asosiy belgidan tashqari qo'shimcha, o'sha bo'lim belgisi ham yozib qo'yiladi. Masalan: Xalq amaliy san'ati bo'limidagi yog'och buyum "XAS/YO"—belgisiga ega bo'lishi mumkin.

Ko'p miqdordagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga ega bo'lgan ayrim katta muzeylar shu kolleksiyalar uchun shakli muzey direktori tomonidan tasdiqlangan maxsus inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblarini tutishlari mumkin.

Eslatma: ilmiy kutubxona va muzey arxivining materiallari tegishli idora va boshqarmalar tomonidan tasdiqlangan maxsus yo'riqnomalar asosida ro'yxatga olinadi;

katta miqdordagi badiiy asarlar to'plamiga ega bo'lgan muzeylarda suratlarining nafis va go'zal ishlangan ramkalari uchun ham alohida inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobi tutiladi va bu kitobga ramkaning hajmi, materiali, uning naqshlari va boshqa bezaklari, unga o'rnatilgan suratning tartib raqamlari qayd etib qo'yiladi.

Badiiy qiymatta ega bo'lmagan ramkalar esa muzeyning xo'jalik bo'limida ro'yxatga olinadi.

Muzeyning inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblarini kirim kitoblari singari ularga yozishdan avval huquqiy hujjat sifatida har bir sahifasiga tartib raqami

berilib shnurlanadi, tegishli yuqori tashkilot tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblarida qayd etilgan yozuvlar keyinchalik xuddi shu kitoblardagi kabi kataklarga bo'lingan inventar kartochkalariga ko'chirib yoziladi. Inventar kartochkalari fan va san'atning mazkur sohasi bo'yicha tegishli malakaga ega bo'lgan muzeyning ilmiy xodimlari tomonidan tuziladi. Ilmiy ro'yxatdan o'tkazish matni kitobga yozilishdan avval bo'lim mudiri, muzey direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, bosh muhofiz (fond mudiri) yoki muzey direktori tomonidan ko'rib chiqilib, imzolanadi.

Eslatma: Katta miqdorda bir xil turdagi materiallar (gravyuralar, numizmatika kolleksiyalari va boshqalar)ga ega bo'lgan muzeylarda bunday materiallar uchun umumlashtirilgan va soddalashtirilgan ilmiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi ishlab chiqiladi va yuqorida ko'rsatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ilmiy xodim ilmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun olgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini iloji boricha tezroq va har tomonlama o'rganib chiqadi va tavsiflaydi. Shundan so'ng ashyo navbatdagi tartib raqami bo'yicha inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobiga qayd etiladi va bir davrda shu tartib raqami muzeyning kirim kitobidagi maxsus katakka yozib qo'yiladi. Bu bilan kirim kitobi va inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobi bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi.

Har bir buyum haqidagi asosiy ma'lumotlar inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobiga alohida raqam bilan qayd etiladi. Buyumning kitobda qayd etilgan tartib raqami bir vaqtning o'zida shu buyumning inventar raqami hisoblanadi va belgilangan tartibda buyumning o'ziga yozib qo'yiladi.

Masalan, bir necha alohida qismlardan iborat bo'lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro'yxatdan o'tkazishda ularga bir tartib raqami berilib, ularning barcha qismlari kasriy sonlar bilan qayd etiladi. Misol uchun: Qilich qini va kamari bilan — qilich M—675/1, qini M—675/2, kamari M—675/3 yoki bo'lmasa samovar—1927/1, jo'mragi - - 1927/2, kampragi – 1927/3, barkashi — 1927/4, qopqog'i — 1927/5.

Mebel garniturlari va servizlar kabi komplekt buyumlarda shu komplektga kiruvchi har bir buyum alohida tartib raqami bilan ilmiy ro'yxatdan o'tkaziladi, lekin yozuvda shu buyum qaysi komplektga tegishli ekanligi eslatib o'tiladi.

Grafik suratlar yoki fotosuratlar albomi bitta ilmiy ro'yxatdan o'tkazish raqamiga ega bo'lib, albomning har bir sahifasi kasriy raqamlarda belgilanadi. Bunda albom varaqlarining soni unga chizilgan rasmlar soni yoki o'rnatilgan fotosuratlar miqdori, bo'sh sahifalari matnda eslatib o'tiladi. Agar mazkur albom har xil mualliflarning asarlaridan iborat bo'lsa, u holda bunday albomning har bir sahifasi alohida ilmiy ro'yxatdan o'tkaziladi. Buyumni tavsiflash chog'ida avvalo uning nomi yozilib, keyin boshqa sifatlari, ko'llanish maqsadi va boshqa tomonlari aytib o'tiladi.

Badiiy asarlarni tavsiflashda ularning badiiy qiymatga ega bo'lgan jildlari, g'illoflari, ramkalari va asoslari ham qayd etib o'tiladi.

O'simlik va hayvonot dunyosi namunalarini ilmiy tavsiflash chog'ida avval o'zbek tilida, so'ngra lotin tilida ularning nomi yoziladi va bu namunalar yig'ilgan joyida tuzilgan yorliqdagi barcha ma'lumotlar qayd etib o'tiladi. Hujjatli

materiallarni tavsiflash uning muallifi yoki tuzuvchisining ismi sharifini yozishdan boshlanadi. Muallifi bo‘lmagan holda avval hujjatning nomi yoziladi.

Fotoportretlarni tavsiflaganda avval suratdagi shaxsning ismi sharifi, keyin shu surat olingan sana va undan so‘ng surat turi (bosh qismi, ko‘kragigacha, beligacha yoki butun bo‘yi-basti bilan) yoziladi. Ko‘pchilik aks ettirilgan fotosuratlarda avval qanday guruhning surati ekanligi aytilib, keyinchalik, har bir shaxs alohida tavsiflanadi. Turli voqealar, ishlab chiqarish jarayonlari, joy va ashyolarning tasvirlari tushirilgan suratlarni ilmiy tavsiflashda avval ularning mavzusi ko‘rsatiladi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining hajmi santimetrlarda (grafik suratlarda esa millimetrlarda) quyidagi tartibda o‘lchanadi:

to‘g‘ri burchakli buyumlar — bo‘yi va eni;

yumaloq va ellipssimon buyumlar — eng katta diametri;

hajmli buyumlar — bo‘yi, eni va chuqurligi.

Haykalchalar agar ular yaxlit qo‘yilgan bo‘lsa, asosi bilan birgalikda o‘lchanadi. Ko‘zalarning balandligi va eng katta diametri hisobga olinadi. Grafik suratni o‘lchashda suratning o‘zi va surat chizilgan qog‘ozning hajmi alohida-alohida, moybo‘yoqli suratda esa suratning o‘zi va mato tortilgan ramka alohida-alohida o‘lchanadi. Kiyimlarni o‘lchashda yelka yoki belning kengligi, kiyimning uzunligi yozib qo‘yiladi.

O‘lchashda cho‘ziluvchan o‘lchov asbobidan foydalanish taqiqlanadi.

Qimmatbaho metall va toshdan yasalgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari, materialidan qat‘iy nazar barcha numizmatikaga oid buyumlar hamda nodir minerallar va yirik kristallarning og‘irlik vazni ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Inventar (ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish) kitobining “Buyumning saqlanish holati” katagida tavsiflanayotgan yodgorlikning uzilgan, darz ketgan, uchgan, singan, shishgan, qirilgan, qatlami ko‘chgan joylari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Bunda buyumning jiddiy shikastlangan joyi va hajmi aniq tavsiflanib yoziladi.

Qimmatbaho metallardan yasalgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida umumiy ma‘lumotlardan tashqari ularning vazni, tarkibiga kirgan turli xil qimmatbaho metallarning nomlari va vaznlari grammlarda alohida-alohida ko‘rsatiladi. Agar buyumda qimmatbaho toshlar mavjud bo‘lsa, ularning soni, nomi, hajmi va karatlarda o‘lchangan vazni yozib qo‘yiladi. Buyumdagi toshlari tushib qolgan bo‘sh ko‘zlarning soni ko‘rsatib o‘tiladi.

Qimmatbaho metall va toshlardan iborat bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish faqatgina ularning sofligi va aniq vazni aniqlab ko‘rsatilgan zargarlik ekspertizasining dalolatnomasi mavjud bo‘lgan holdagina amalga oshiriladi.

Tarkibi butunlay qimmatbaho metall va toshlardan iborat bo‘lgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini inventar kitobning “Buyumning materiali” katagida shu buyum yasalgan metall va toshlarning nomi ko‘rsatiladi. “Buyumning hajmi va og‘irligi” katagida esa shu buyumning bo‘yi, eni, chuqurligi (agar buyum yumaloq bo‘lsa, uning diametri) 1 millimetrgacha aniqlik bilan ko‘rsatilishi kerak. Qimmatbaho metallardan yasalgan muzey ashyolari va muzey

kolleksiyalarining vazni 100 grammgacha bo'lganda 0,01 grammgacha aniqlik bilan, 100 grammdan yuqori bo'lsa 0,1 grammgacha aniqlik bilan o'lchanadi.

Qimmatbaho toshlarni o'lchashda 0,01 karatgacha aniqlikda o'lchash shart. Yaxlit yirik buyumlar (qurollar, qadaxdar, qutichalar, kamarlar va boshqalar) ular tortilgan tarozining imkoniyati darajasida aniqlikda o'lchanadi va o'lchangan tarozi rusumi maxsus eslatib o'tiladi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari tarkibidagi qimmatbaho metallar va toshlarning vaznini aniqlash maqsadida ularni buyumdan ajratib olish qat'iyon taqiqlanadi.

Qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini inventar kitobning "Buyumning tavsifi" katagida uning umumiy ko'rinishidan tashqari tarkibidagi materiali ham aytib o'tiladi. Masalan: "Surmadon, oltindan yasalgan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, quticha qopqog'ining chetlarida 26 ta brilliant o'rnatilgan, nafis naqshlar berilib, o'rtasiga qur'on oyatlari yozilgan, yon tomonlarida 8 ta yoqut ko'zi bor" va shu kabilar.

Kitobning "Buyumning materiali" katagida shu buyum tarkibidagi har bir qimmatbaho metallarning va qimmatbaho toshlarning nomi va mutaxassis tomonidan hisoblab chiqarilgan vazni ko'rsatib o'tiladi.

O'z fondida katta miqdordagi qimmatbaho metall hamda toshlardan iborat muzey ashyolari va muzey kolleksiyalariga ega bo'lgan muzeylar bunday boyliklar uchun maxsus tasdiqlangan inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini tutadilar.

Tasarufida muzeylari bo'lgan boshqa vazirlik va idoralar rahbarlarining yozma ruxsatisiz asosiy fondagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini doimiy foydalanish uchun boshqalarga berib yuborish, ro'yxatlardan o'chirish qat'iyon taqiqlanadi. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobidan o'chirish uchun yuqori tashkilot buyrug'i chiqarilishi shart. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari yemirilganda, o'g'irlanganda yoki yo'qolganda muzeylar o'zlari bo'ysunadigan vazirlik yoki idora nomiga darhol yozma ravishda xabar qiladilar, bu hujjatga yuz bergan hodisaga qarab yemirilgan yodgorlikni tiklab bo'lmasligi haqida ta'mirchi va muhofizlar ishtirokida tuzilgan komissiyaning xulosasi, buyumning yo'qolishi yoki shikastlanishi haqida dalolatnoma yoki buyumning o'g'irlanishi munosabati bilan muzey direksiyasi tomonidan uni topish uchun ko'rilgan chora-tadbirlar ro'yxati ilova qilinadi.

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy ro'yxatlash kitobidan vazirlikning buyrug'iga asosan chiqarish chog'ida kirim va inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblarining "Eslatma" katagida mazkur ashyolarni ro'yxatdan o'chirish uchun asos bo'lgan sharoit va hujjatlar qayd etiladi va bu yozuv muzey direktori va bosh muhofiz (fond mudiri) tomonidan imzolanib muhrlanadi.

Inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblaridan chiqarib yuborilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining tartib raqamlarini ro'yxatdan o'tayotgan yangi buyumga berish qat'iyon taqiqlanadi.

Yodgorlikni bir inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobidan boshqasiga (masalan: xalq amaliy san'ati namunalari uchun tutilgan kitobdan xontaxtani mebellar uchun tutilgan kitobga) buyum asosiy fondga qolishi sharti bilan o'tkazish va buning natijasida uning inventar raqamlarini almashtirish fond ishlari va sotib

olish komissiyasining qarori hamda muzey direktorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Davlat tili to'g'risidagi qonunga asosan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ro'yxatga olish va ilmiy ro'yxatlash ishlarining barcha hujjatlari belgilangan tartibda olib boriladi. Muzey rahbariyati, yuqori tashkilot organlari bu ish uchun zarur bo'lgan o'zbek tilida chop etilgan hujjat va kitoblar bilan ta'minlashi, zarur hollarda tarjimonlar va tilshunoslarni bu ishga jalb etishi zarur.

Keyinchalik muzeyning inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblarini yangisi bilan almashtirish, o'sha muzey bo'ysunadigan vazirlik va idoralarning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kitobni almashtirish uchun ruxsat olinib, eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini yangisiga ko'chirib bo'lgandan so'ng solishtirish ro'yxati va inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini almashtirish dalolatnomasi tuziladi va bu hujjatlar tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Almashtiruv dalolatnomalari tasdiqlangunga qadar eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblari o'z huquqiy kuchini saqlab turadi.

Eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini yangisiga almashtirish dalolatnomasi tuzilayotganda bu hujjatda almashtirish qanday sabablarga ko'ra, kimning buyrug'i bilan va qachon amalga oshirilganligi ko'rsatib o'tilishi kerak. Bundan tashqari bu dalolatnomada:

- yangi kitobga o'tkazilgan tartib raqamlarining miqdori;
- ilgari ro'yxatdan chiqarib yuborilgan tartib raqamlarining miqdori;
- topilmagan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining tartib raqamlari miqdori aniq ko'rsatib o'tiladi.

Muzeyning yangi inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini yozishda unga avvalgi inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobida qayd etilgan barcha buyumlar haqida ma'lumotlar ko'chirib yozilishi shart. Bunda tegishli tartiblarga asosan ilgari inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblaridan chiqarib yuborilgan ashyolar yangi kitobga kiritilmaydi. Yangi kitoblarda qayd etilayotgan har bir ashyoning eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobidagi tartib raqami maxsus katakda ko'rsatib o'tiladi, shu bilan bir vaqtning o'zida eski ilmiy ro'yxatlash kitobining maxsus katagida o'sha buyumning yangi tartib raqami ham yozib qo'yiladi.

Eslatma: barcha eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblari muzeyda ehtiyot qilib saqlanishi shart. Ularni yirtish, yozuvlarini o'chirish yoki yo'qotib yuborish qat'iyan ma'n etiladi va buning uchun qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko'riladi.

Agar eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobida ro'yxatdan chiqarilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari kamroq bo'lsa, muzey ashyolariga qo'yilgan tartib raqamini o'zgartirmaslik uchun iloji boricha yangi kitobda eski tartib raqamlarini saqlab qolishga harakat qilish lozim. Unday holda yo'qolgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining tartib raqamlari satriga ularning yo'qolish sabablari va moddiy javobgar shaxsning ismi sharifi yozilib, tegishli dalolatnomalar ilova qilinadi.

Eski inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitobini hisobdan chiqarish dalolatnomasi to'rt nusxada tuziladi. Bu dalolatnoma muzeyning yuqori tashkilotida tasdiqlanib, uning birinchi nusxasi muzey arxivida, ikkinchi nusxasi hisobdan chiqarilgan kitobning ichiga tikib qo'yiladi, uchinchi nusxasi shu dalolatnomani tasdiqlagan yuqori tashkilot arxivida qoldiriladi, to'rtinchi nusxasi ma'lumot uchun Madaniyat vazirligiga yuboriladi.

Turli xil muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini bir xonada saqlash zarur bo'lganda muhofiz imkoniyati boricha, ularni har xil joyda (javonlar, stellajlar va boshqalarda) asrash uchun bir-biridan ajratishi darkor. Masalan, sopoldan va metallardan ishlangan, mayda va o'ta yiriq, nozik va haddan tashqari og'ir, shuningdek, yorug'likning, namlikning turlicha shart-sharoitlarini talab qiluvchi buyumlar birgalikda (bir javon yoki bir tokchada) saqlanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Zahiraxonaning jihozlanishi unga kelib tushayotgan materiallarga monand ravishda va yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatib o'tilganiga mos bo'lishi kerak.

Yaxlit saqlash zahiraxonalarida harorat-namlik shart-sharoitlari yaxlit ekspozitsiyalar uchun belgilangan sharoitlar bilan aynan bir xil, ya'ni havoning nisbiy namligi 50-65% bo'lishi lozim.

Zahiraxonalarda qo'rg'oshindan va qalaydan ishlangan buyumlar saqlansa, xonadagi havo harorati +18 S dan pasaymasligi kerak.

Zahiraxonaning yoritish tizimi ikki tartibga moslanishi darkor: oddiy ish tartibiga (yoritish 50-75 lyuks) va ashyolarning qanday saqlanayotganini tekshirish tartibiga (150 lyuks).

Yorug'likka chidamsiz barcha materiallar (gazlamalar, qog'ozlar, kitoblar, fotomateriallar, bardoshsiz bo'yoqlarda bajarilgan asarlar va boshqalar) yorug'lik o'tkazmaydigan yopiq jihozlarga joylashtirilishi zarur.

Xonaning harorat-namlik shart-sharoitlari buzilib, namlik oshib yoki tushib ketgan taqdirda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

xonadagi namlik miqdori pasayganda binodagi namlikni oshiruvchi umumiy vositalardan foydalanish;

namlik miqdori yuqori bo'lgan vaqtda zich yopilgan javonni devorga yaqin qo'yish mumkin emas. Devor va jihozlar orasida kamida 10-15 sm. joy qoldirilishi kerak. Ish vaqti tugagach, kechasi javonlarni va tokchalarni ochiq qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Ekspонатlarning saqlanish holatini ko'zdan kechirganda asosiy e'tiborni charmdan yasalgan ashyolarga, rangli qalamda chizilgan suratlarga, foto va qog'oz materiallarga, shuningdek, qora va rangli metall buyumlarga hamda arxeologiya materiallariga qaratmoq lozim.

Muzey fondlarini komplektlash

Muzey fondlarini komplektlash - muzey faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mohiyati muzey ahamiyatidagi ashyolarni yig'ish va aniqlashdan iborat va maqsadi ularni muzey ashyosiga aylantirish va muzey to'plamini to'ldirishdir. Komplektlash muzey hayotining barcha bosqichlarida davom etib, fondlarni ilmiy loyihalash dasturiga mos tarzda muntazam olib boriladi.

Oldinlari komplektlash fond ishlarining yo‘nalishlaridan biri hisoblanar edi. XX asrning oxiriga kelib, komplektlashni – muzey faoliyatining mustaqil yo‘nalishi sifatida ajratish haqida tendensiyalar mavjud bo‘ladi.

Fondlarni komplektlash - muzey ishining zamonaviy amaliyoti va nazariyasining juda murakkab va kam ishlab chiqilgan muammolaridan biridir. XX asrning II yarmigacha “muzey fondlarini komplektlash” terimini “yig‘uvchilik ishi” termini bilan tenglashtirib kelingan edi. Keyinchalik yig‘uvchilik ishi – muzey fondlarini komplektlashning tarkibiy qismi deb yuritila boshlandi va komplektlash dasturini amalga oshirishdagi amaliy faoliyat deb qaraldi.

Shunday qilib “muzey fondlarini komplektlash” tushunchasi yangi mazmun bilan to‘ldirilib, muzey to‘plamlari bilan ishlashning yangi, konseptual darajasini aks ettira boshladi.

Muzey fondlarini komplektlashning ilmiy konsepiyasi, muzey ilmiy konsepiyasining tarkibiy qismi bo‘ladi. U muzey ixtisosligiga mos ravishda - maqsadlari, yo‘nalishlari, shakllari va komplektlash uslublari haqidagi umumlashtirilgan tizim haqida tasavvurni tashkil etadi. Unda muzey maqsad va vazifalariga qarab, fondlarga material tanlash mezonini aniqlanadi.

Komplektlashning ilmiy konsepsiyasidan kelib chiqib, aniq maqsadlarini hisobga olgan holda fondlarni komplektlash loyihasi tuziladi. Bu loyixa 5–10 yilga mo‘jallangan, shuningdek perspektivali yoki joriy, yani bir yillik bo‘lishi mumkin. Ular fond va ekspozision bo‘limlari ishchilarining rejali talabnomalari asosida shakllanadi. Mazkur talabnomalar, o‘zaro qo‘shimcha ravishda kelishilib, asosiy e‘tibor va kuchlar komplektlashning muhim, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalariga qaratiladi.

Uslubiga ko‘ra komplektlashning uch asosiy turi mavjud – sistematik, tematik, kompleksli. Sistemali komplektlash, bir xil turdagi muzey ashyolari bilan muntazam ravishda muzey kolleksiyalarini to‘ldirib boradi, boshqacha qilib aytilganda u tizimli kolleksiyalarning shakllanishi va to‘ldirib borilishiga qaratilgan. Tematik komplektlash esa, aniq bir mavzuga yo‘naltirilgan, muzey ahamiyatiga ega har xil turdagi ashyolarni to‘playdi va ilmiy tadqiq qiladi. U muzey o‘rganayotgan mavzular bo‘yicha jarayon va hodisalarni hujjatlashtirishga, shuningdek tematik kolleksiyalarni shakllantirish va to‘ldirishga imkon beradi.

Sistematik va tematik komplektlashning vazifalari kompleksli komplektlashni birlashtiradi, bu asosan uncha katta bo‘lmagan muzeylarda amalga oshiriladi.

Muzey mutaxassislari, fondlarni komplektlash muammolarini yechishni yanada optimal yo‘llarini izlash maqsadida, doimo muzey ahamiyatidagi ashyolarning egalari yoki egasi bo‘lishi mumkin shaxs yoki tashkilotlar bilan vaqtinchalik yoki doimiy aloqa o‘rnatadilar. Bunga kolleksionerlar, rassomlar, fotograflar va boshqa ijodkorlar, badiiy hunarmandchilik buyumlari va kundalik hayotda foydalaniladigan buyumlarni loyihalovchi va ishlab chiqaruvchi korxonalar, antikvar va bukinistik magazinlar, kolleksiya yig‘uvchi ilmiy muassasalar (lekin ularni saqlamaydigan, masalan, gumanitar ixtisosligidagi ilmiy institutlar, OO‘YU ning tarix fakulteti, arxeologiya va etnografiya kafedralari) kabilari kiradi.

Muzey fondlarini komplektlash shakllari har xil bo'lishi mumkin. Bu muzey smetasiga kiritilgan maxsus hisob evaziga sotib olingan kolleksiya yoki alohida ashyolar; tashkilotlar yoki xususiy shaxslar tomonidan bepul (sovg'a) muzeyga berilgan kolleksiya yoki ashyolar; dublet va noixtisoslik materiallarni, muzey to'plami tavsifi va ixtisosligiga mos keladigan ashyolarga almashish; original ish bajartirish uchun maqsadli buyurtmalar bo'lishi mumkin. Muzey to'plamini komplektlash loyihasiga binoan, muzey ahamiyatidagi ashyolarni yig'ish uchun komplektlash bo'yicha maxsus komandirovkalar uyushtiriladi. Shuningdek, ma'lum mavzuni o'rganish va to'plovchilik ishlarini o'tkazish maqsadida, muzeylar – arxeologik, etnografik, tarixiy-maishiy, tabiiy-ilmiy ekspedisiyalar tashkil etadilar. Ular ko'p hollarda boshqa muzeylar yoki ilmiy muassasalar bilan birgalikda o'tkaziladi.

Komplektlashning yana bir turi, voqea yoki hodisa yuz berayotgan payt tugashi bilan amalga oshiriladi. Bu ahamiyatli siyosiy voqealar, obyektlarning ochilish marosimi, kongress va kengashlar paytidagi to'plovchilik ishi bo'lishi mumkin. O'zbekiston tarixi Davlat muzeyida 1966 yilgi zilzila asoratlari fototasvirlari, 1998 yilgi fevral voqealari (terrorchilarning qo'poruvchilik ishlari natijasida ko'rilgan talofatlar) fototasvirlari, mustaqillik davrida erishilgan yutuqlar xaqidagi ekspozision materiallar bunga misol bo'la oladi.

Materiallarni komplektlashda muzey xodimlari turli muammolarga duch keladilar. Ba'zida – bu alohidagi tarixiy davrlarning muhim yodgorliklarini qidirish muammosi bo'lsa, boshqalarida – hozirda mavjud bo'lgan va uzluksiz paydo bo'layotgan yangi materiallarning katta qismidan material tanlash muammosi bo'lishi mumkin.

Ashyolarni tanlash sistemasi, umumiy va xususiy tavsifga ega mezonlarning majmuasidan iborat. Umumiy mezonlar informativlik, representativlik, attraktivlik, ekspressivlikka oid ashyo tavsiflarini e'tiborga oladi. Xususiy mezonlar kolleksiyaning konkret spesifikasini, ashyoning turi, ko'rinishi va turli – tumanligini manba sifatidagi o'ziga xosliklarini inobatga oladi. Bunda, ashyoning yoshi, asl nusxaliligi va kamyoblighi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tavsiflarni aniqlash uchun ashyo turlarining tarixini, materiallarning qo'llanilishi tarixini bilish; ashyoning aslligini isbotlovchi belgilar bilan tanish bo'lish lozim: yozuvlar, monogrammalar, emblemalar, fabrika belgilari, tamg'alari, muallif imzolari, nashrlar, ekslibrislar (kolleksionerlarning markaga o'xshaydigan maxsus belgisi) shular jumlasidandir. Bu belgilar fond ishlari jarayonida to'liq ochib beriladi, lekin tanlash bosqichida ham ularning birlamchi atribusiyasi bo'lishi zarur.

Ashyo bilan ishlashning boshlang'ich bosqichida, uning muzeyda uzoq vaqt saqlanish imkoniyatini hal qilish masadida, materialini aniqlash shart. Muzey to'plamlarini zamonaviy davr bo'yicha komplektlash o'ziga xos murakkabliklarga ega, chunki tanlash mezonlari yaxshi ishlab chiqilmagan. Bu muammoni yechish maqsadida, muzey xodimlari, jamiyat fikrini aniqlash uchun, ijtimoiy tadqiqotning sinalgan uslublarini qo'llaydilar.

O'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lgandagina, muzey xodimlari fondlarni komplektlash ishlarini sifatli olib borishlari mumkin. Ashyo muzey ahamiyatiga egami, yoki muzey to'plami uchun shu ashyo kerak ekanligini aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun jamoaviy ekspertiza o'tkaziladi. Uni maxsus

organ – fond – sotib olish komissiyasi amalga oshiradi, uning tarkibiga turli ixtisoslik mutaxassislari, ekspozision va fond bo‘limlari ishchilari kiradi. Mazkur organ, nafaqat muzey ahamiyatiga ega ashyoni sotib olishga qaror qabul qilibgina qolmay, balki uni asosiy yoki ilmiy – yordamchi zahiriga qo‘shadi, shuningdek fond ishlarining uslubiy masalalari bilan shug‘ullanadi. Uning qarori bayonnomada hujjatlashtiriladi va bosh xazinachi qo‘l qo‘yib, muzey direktori tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu hujjat ashyoning muzey to‘plamiga kiritilishi va uning muzey ashyoiga aylanishiga yuridik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ba‘zi muzeylarda 2 ta – fond va sotib olish komissiyalari mavjud.

Fondga kelib tushishidan oldin, muzey ahamiyatidagi ashyolar uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tadi, uning asosiy muhim bosqichlari maxsus hujjatlarga yozib qo‘yiladi. Agar ashyolar tashkilot yoki xususiy shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa, ular qo‘shimcha, vaqtinchalik saqlovga qabul qilinadi, bu maxsus qabul qilish akt bilan hujjatlashtiriladi va ashyo egasi bilan muzey xodimi tomonidan imzolanadi.

Bir vaqtning o‘zida ashyo haqida ma‘lumotlar yoziladi. Unda ashyoning kelib chiqishi, yashash muhiti, qo‘llanilish uslubi, shuningdek egasi xaqida ma‘lumot beriladi. So‘ngra, ashyolarni mutaxassislar ekspertiza qilib, yozma xulosa beradilar. Agar ashyo yoki kolleksiya sovg‘a qilingan bo‘lsa, qabul qilib olayotganda, muzeyda sovg‘a shartnomasi tuziladi, ashyo sotib olib qabul qilinganda esa, sotib olish shartnomasi yoziladi. Ashyolar almashishinuv natijasida qabul qilinsa, almashinuv shartnomasi tuziladi. So‘ngra ashyolarni doimiy saqlovga qabul qilinganligi haqida akt tuziladi va u muzey direktori tomonidan tasdiqlanib, muhr bosiladi. Agar saqlovga kolleksiya qabul qilinsa, aktga kolleksion ro‘yxat ilova qilinib, unda har bir ashyoning nomi, tashqi ko‘rinishi, qanday materialdan va texnikadan foydalanilganligi, hajmi, og‘irligi bartafsil yoziladi.

Maxsus xujjatlashtirish ekspedisiya yoki komandirovkalar davomida ham olib boriladi; u ish jarayoni va shakllanayotgan kolleksiya tarkibini aks ettiradi. Ekspedisiyaning maqsad va vazifalariga ko‘ra, dala hujjatlashtirilishi - dala ro‘yxati, dala kundaligi, folklor yodgorliklarini, muzey qiziqtirgan voqealarning qatnashchilari, guvohlarining esdaliklari va xikoyalarini yozish, ashyolarning afsonasi, negativning tartib raqami ko‘rsatilgan fototasvirlar, tasvirga olingan joy, vaqt va syujet reyestri kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ekspedisiyaning asosiy hujjati – dala ro‘yxati bo‘lib, muzey ahamiyatiga ega ashyolarni ro‘yxati va xisobi yoziladi. Unda ashyoning tartib raqami; topilgan kuni va joyi (yoki sotib olingan); nomlanishi va qisqa ta‘rifi; ashyolarning soni (ba‘zida bitta raqam ostida bir necha o‘xshash ashyolar yoziladi); ashyoning ishlangan vaqti, texnikasi, materiali (ishlangan vaqti aniq bo‘lmasa, taxminan yoziladi); uni nimaga mo‘ljallanganligi, yashash muhitida qanday foydalanilganligi va saqlanganligi; o‘z muhitidagi tarixi; kirim manbasi yoki ashyoning egasi haqida ma‘lumot; bahosi (shu yerda sovg‘a qilinganligi xaqida xam yoziladi); ilova yoziladi. Berilgan raqamlar ostida dala ro‘yxatiga barcha dala xizmatlari kiritiladi.

Ikkinchi asosiy hujjat – dala kundaligi xisoblanadi. Unda xronologik tartibda yig‘uvchilik ishining olib borilishi, voqelik ustida kuzatuv, uchrashuvlar, dala ro‘yxati qismisidan tashqari shu doiraga kiruvchi ashyolar haqida ma‘lumot,

harakatlanish grafigi, kelgusi tadqiqot va izlanishlar haqidagi taxlilij reja kabilar yozib boriladi.

Ekspedisiyadan muzeyga qaytgach, yig'ilgan materiallarni dala hujjatlari bilan birga fond – sotib olish komissiyasi ko'rib chiqadi. U kolleksiyani bir butunligicha – qo'yilgan mavzuni aks ettirishining to'liqligi nuqtai nazaridan va har bir ashyoni alohida – uning muzey ahamiyatiga ega ekanligi nuqtai nazaridan baholaydi. Fond komissiyasi qaror qabul qilganidan so'ng, ashyolarning bir qismi asosiy fondni, qolgani – ilmiy – yordamchi fondni to'ldiradi va bularning hammasi maxsus bayonnomaga yozib qo'yiladi. Dala ro'yxatining oxirgi betlarida, materiallarni fond xodimlariga berilganligi haqida fakt ham yozib qo'yiladi va boshqa ekspedisiya hujjatlar bilan birgalikda doimiy saqlovga topshiriladi.

Bunda turli tipdagi ashyolardan tashkil topgan tematik ekspedisiya kolleksiyalari, turli fond bo'linmalariga ajratib yuboriladi.

Har bir ashyo mavjud muzey to'plami tasnifi asosida shakllangan, ma'lum muzey kolleksiyasi tarkibida, mutaxassislar tomonidan o'rganilib, saqlanishi lozim.

Shunday qilib, fondlarni komplektlash jarayonini qo'yidagi o'zaro bog'liq bosqichlarga bo'lish mumkin. Avvalambor, muzey fondlarini komplektlashning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Unda muzeyda mavjud fondning mazmuni va tuzilishining bahosi; kolleksiyalarni to'ldirish yoki komplektlash tavsifining yo'nalishini asoslash; muzey oldida turgan maqsad vazifalarni hisobga olgan holda fondlarga material tanlash mezonlarini aniqlash kabilar yoziladi.

Keyin, aniq mavzulari belgilangan komplektlash rejasi tuzilib, ularning har biri o'zining obyektiga, komplektlash shakli va uslubiga ega bo'linadi, mutaxassislarning ekspert so'roqlari o'tkaziladi. Navbatdagi bosqich to'plovchilik ishiga tayyorgarlik bo'lib, bu jarayonda mavzu bo'yicha adabiyotlar, arxiv fondlari o'rganiladi, boshqa muzeylarning kolleksiyalari tahlil qilinadi, ixtisoslik sohalari bo'yicha mutaxassislar bilan muzokaralar o'tkaziladi, aniq mavzu bo'yicha to'plash rejasi tuziladi. So'ngra to'plovchilik ishi boshlanadi – ashyoning yashash muhiti o'rganiladi, komandirovka va ekspedisiya chog'ida yoki komplektlashning doimiy obyektlarida muzey ahamiyatiga ega ashyolarni to'plash va aniqlash ishlari olib boriladi, muhim dala hujjati tuziladi. Nihoyat muzey ahamiyatidagi ashyolar, u bilan bog'liq hujjatlar va hisobotlar bilan fond – sotib olish komissiyasiga topshiriladi, komissiya qaroriga ko'ra, ular muzey fondiga topshiriladi, ya'ni doimiy saqlovga qabul qilinadi.

4-mavzu: Ekspozitsiya tuzish metodlari. Ekspozitsiyaning ilmiy loyihasi.

Ekspozitsiyaning badiiy loyihasi.

Ekspozitsiya so'zi lotincha “expono” (ko'rgazmaga qo'yish, yoyish) va shundan kelib chiqqan exposition bayon etish, ta'riflash so'zidan paydo bo'lgan. Namoyishga qo'yilgan barcha predmetlarning majmuasini ekspozitsiya deyish mumkin. Lekin muzey ekspozitsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega. Uning asosini har qanday predmet emas, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan predmetlar tashkil etadi. Ekspozitsiyada ular yangi huquqiy holatga ega bo'ladilar: ular ekspozitsiyaga aylanadi, ya'ni namoyishga qo'yiladigan predmetlar bo'ladi. Ekspozitsiya sifatida asl nusxalarning “o'rnini bosuvchi” predmetlar ham bo'lishi mumkin, ya'ni muzey predmetlarining qayta tiklanganlari shuningdek xarita, sxema, diogramma va

boshqa mavzuni ochib berishga va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ravshanroq ko'rsatish uchun zarur ilmiy-yordamchi materiallar ham eksponat sifatida qo'yilishi mumkin. Ekspozisiya tarkibiga turli xarakterga ega yozma matnlar, ko'pincha ovoqli materiallar ham kiradi. Muzei predmetining o'rnini bosuvchi eksponatlar, modellar, ilmiy-yordamchi materiallar va matnlarning yig'indisi ekspozision material deyiladi.

Ekspozisiyaning hamma qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va uning tematik strukturasi tashkil etadi. Shunga muvofiq ekspozision materiallar strukturali birliklarga-ekspozision majmualarga, ya'ni bir-biri bilan mazmun jihatidan yoki boshqa belgilari orqali bog'liq predmetlar guruhiga ajratiladi. Ekspozision majmua sifatida, betakror ko'rinishga ega va yagona loyixa bo'yicha yaratilgan ekspozision zalni ham ko'rish mumkin.

Ekspozisiyada buyumlarning belgisi xususiyati namoyon bo'ladi. Belgi – bu boshqa predmetlar, voqealar, hodisalar haqida axborot tarqatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladigan predmetdir. Agar predmetlardan amaliy maqsadlarda foydalanilsa, ularning belgi funksiyalari ikkinchi planga chekinadi, birinchi planga ularning biron ishda foydalanish uchun mo'ljallangan funksiyalari chiqadi. Masalan, qadimiy tangalar o'z davrida savdo-sotiq muomilasida ishlatilgan bo'lsa, muzeyda ular o'sha davrdan axborot beruvchi tarixiy manba, ya'ni belgiga aylanadi. Muzei ekspozisiyasidagi predmetlar ilmiy tashkil etilgan majmuani o'zida namoyon etadi, chunki ularni tanlash va joylashtirish muzei kollektivi tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi.

Predmetlar ma'lum mazmuni aks ettirish uchun vosita sifatida xizmat qiladi, demak, belgisi sistemani yuzaga keltiradi. Shuning uchun muzei ekspozisiyasi o'ziga xos "matn" bo'lib, uni nafaqat kuzatmoq balki, tushinib yetmoq ham kerak. Eksponat-belgilar, ularni qachonlardir yaratgan yoki muloqotda bo'lgan odamlarning va ekspozisiya muallifining g'oyalarini, his-tuyg'ularini, mulohaza va tasavvurlarini yetkazib berish mumkin.

Ekspozisiya, muzei kommunikasiyasi asosini ham tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida ma'lum bo'shliqda joylashtirilgan ekspozision materiallarning tomoshabinlar tomonidan ko'rib, qabul qilish yo'li bilan amalga oshadi. Tomoshabinlarning eksponatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozisiya yaratishda nafaqat olimlar, balki muzeyning siymoli negizini yaratuvchi rassomlar ham qatnashadilar. Muzei sohasida ilm va san'atning yagona maqsadi bo'lib, u ham bo'lsa, tomoshabinlarga buyumlar va hodisalarning mantiqiy aloqadorligini anglashga yordam berish, uni dunyoni bilishga yetaklashdan iborat. Ilm va san'at sintezi natijasida yaratiladigan timsol, o'ziga xos muzei timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tasavvurga binoan, muzei ekspozisiyasi- bu predmetlarning bir maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan namoyishi bo'lib, ular kompozision tashkil etilgan, sharh, izohlar bilan ta'minlangan, texnik va badiiy jihozlangan va natijada tabiiy, ijtimoiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatli timsolini yaratadi.

Muzei nafaqat doimiy, balki vaqtinchalik ekspozisiyalar – ko'chmas va ko'chib yuruvchi ko'rgazmalar ham yaratadi. Ularning vaqtinchalik tavsifi eksponatlarning tarkibida namoyon bo'ladi. Ko'pincha ko'rgazmalarda boshqa muzeydagi, shaxsiy kolleksiyalardagi, shuningdek, uzoq vaqt davomida zaxira

saqlovxonalaridan boshqa joyda saqlab bo'lmaydigan predmetlar namoyish etiladi (akvarel, yozma manbalar, noyob buyumlar shular jumlasidandir).

Hozirgi kunda muzey amaliyotida muzey ko'rgazmalarining uchta asosiy tipi shakllangan asosida ma'lum syujet yotuvchi tematik ko'rgazma, tomoshabinlarni kam taniqli va hamma ham ko'rishga muvassar belavermaydigan nodir kolleksiyalar bilan tanishtiruvchi-zaxira ko'rgazmalari, ta'mirlash ishlari natijalari bo'yicha, zaxiralarni komplektlash ishlarining yakunlari asosida (ya'ni yangi qabul qilingan eksponatlar asosida) – xisobot ko'rgazmalari mavjud.

Ko'rgazmalar yaratish, muzeylarning ekspozision ishlarining tarkibiy qismiga kiradi. Ko'rgazmalar muzey zaxiralarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi, xususiyl to'plamlardagi yodgorliklarni ilmiy va madaniy qo'llanilishiga imkon beradi, muzeyning madaniy-ta'lim va ekspozision uslublarini takomillashtirish va meyoriga yetkazish ishlarida yordam beradi, uning faoliyati doirasini kengaytiradi.

Bugungi kunda ko'rgazmalar bilan xalqaro almashinuv aktiv rivojlanmoqda, bu turli madaniyatning o'zaro boyishiga yordam beradi.

Ekspozisiyaning ilmiy loyixasini tuzish

Muzey ekspozisiyasini yaratish murakkab tadqiqotchilik, ijodiy va texnik-ishlab chiqarish jarayoni bo'lib, ilmiy xodimlarning, rassomlarning, dizaynerlarning, muzey pedagoglari va injenerlarning birgalikda ishlashini talab qiladi. U ekspozisiyaning ilmiy mazmunini, uning me'moriy badiiy yechimini, texnik jixozlashni qayta sistemali ishlab chiqarishga muhtoj. Shuning uchun ekspozisiya loyixasining tarkibiy qismi quyidagicha:

1. Ilmiy loyixalash – bunda ekspozisiyaning asosiy g'oyalari va konkret mazmuni ishlab chiqiladi.
2. Badiiy loyixalash- mavzuning ifodali, mutanosib holda amalga oshirilishi.
3. Texnik va ishchi loyixa – har bir eksponatning, matnning, texnik vositalarning joyini aniq belgilab beradi.

Ekspozisiyaning ilmiy loyixasi tayyorlov bosqichidan boshlanib, unda mavzu bo'yicha zarur ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallar o'rganiladi. Bunda muzey vositalari orqali voqea, hodisa va faktlarni aks ettirishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olish lozim. Paralel holda, ekspozisiyaga qo'yilishi mumkin bo'lgan kolleksiya o'rganilib, analiz qilinadi va kerakli eksponatlarning kartotekalari tuziladi.

Keyingi bosqichda ilmiy konsepsiya ishlab chiqiladi va ekspozision mazmunni ochib beradi. Shuningdek bo'lajak ekspozisiya haqida umumiy tasavvurga ega etadi. Unda ekspozisiyaning maqsad vazifalari, ularning asosiy muammolari va tematik strukturasi belgilanadi, ekspozision materiallarning xarakteristikasi beriladi, ularni namoyish etish uslublari taklif etiladi, bo'lajak ekspozisiya bilan oxirgi ekspozisiyaning farqi ko'rsatiladi, shuningdek u bilan bir xil ixtisoslikdagi muzey ekspozisiyalari bilan solishtirganda, o'ziga xos tomonlari ham namoyon bo'ladi. Ilmiy konsepsiyada rassom ishtirokida bo'lajak ekspozisiyaning badiiy loyixasiga bo'lgan spesifik v umumiy talablar aniqlanadi. Ilmiy konsepsiya yagona xujjat sifatida rasmiylashtirilib, uning tarkibiga ekspozision zallarning chizma-loyixalari, ekspozision bo'limlarning mo'ljaldagi joylari ko'rsatilgan holda kiritiladi. Shuningdek, unda katta xajmdagi

eksponatlardan dioramalar, texnika namunalari, maketlar va xokazolarning joyi ham belgilanadi.

Ekspozisiya loyixalashning ikkinchi bosqichi kengaytirilgan tematik struktura ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu xujjatda bo'lajak ekspozisiyaning o'zaro bog'liq bo'laklarga, ya'ni bo'lim, mavzu, ekspozision komplekslarga ajratilishi qayd etiladi. Unda ekspozisiyaga qo'yilishi kerak bo'lgan muzey predmetlarining guruhlari va boshqa materiallar sanab o'tiladi. Ma'lum me'morial komplekslar, ilmiy rekonstruksiyalar ajratiladi. Ekspozisiyani muzey tomoshabinlariga ta'sirini kuchaytirishga yordam beruvchi texnik vositalardan turli audiovizual moslamalar, xarakatdagi modellar, maketlar namoyish moslamalari aniqlanadi. Muzey amaliyotida kengaytirilgan tematik strukturaga, ko'p hollarda ekspozisiyaning tematik loyixasi to'g'ri keladi. Bu xujjat bir vaqtning o'zida ekspozision materiallarni saralash bilan birga tuziladi va loyixalashtirilayotgan ekspozisiyaning tematik strukturasi va mazmunini belgilaydi.

Ilmiy loyixalashning uchinchi bosqichida tematik ekspozision loyixa (TEL) ishlab chiqiladi va kengaytirilgan tematik strukturaga xos tarzda ilmiy xodimlar muzey fondlaridan zarur materiallar tanlaydilar va ularni ekspozision komplekslarga guruhlaydilar. Ekspozisiyaga faqat ilmiy tomondan yaxshi o'rganilgan va atributiv ma'lumotga ega bo'lgan predmetlar tanlanadi. Ishning aynan shu bosqichida ilmiy –yordamchi materiallar va qayta tiklashni tayyorlash uchun tegishli xujjatlar tayyorlanadi, predmetlarni konservasiya va restavrasiya qilish bilan bog'liq masalalar ham yechiladi. Tematik-ekspozision loyixaning xujjat sifatidagi mohiyati shundan iboratki, unda ekspozision materiallarning konkret tarkibi, unga xos barcha ilmiy tavsiflari bilan o'z aksini topadi.

Tematik ekspozision loyixa sxema bo'yicha tuziladi, lekin har bir muzeyda turlicha o'ziga xos xususiyatlari bo'lishi mumkin.

Qoidaga muvofiq, tematik-ekspozision loyixa quyidagilarni o'z ichiga oladi: bo'limlarning, mavzularning, tematik komplekslarning nomlanishi, yetakchi mavzular va qisqacha ma'lumotlar, asosiy atributiv ma'lumotlar ko'rsatilgan ekspozision kompleksdagi eksponatlar ro'yxati, ekspozision materiallarning tavsifi haqida ma'lumot (asl nusxa yoki ko'chirma nusxaligi) va ularning xajmi, materiallarning saqlanish joyi va ularning shifrini ko'rsatmasi. Tematik – ekspozision loyixaga etiketaj, ilmiy rekonstruksiyalar yaratish uchun xujjatlar, ilmiy – yordamchi materiallar ilova qilinadi va konkret badiiy yechimlar uchun ko'rsatma beriladi: eksponatlarni birinchi yoki ikkinchi planga ajratish, asosiy badiiy uslublar, eksponatlarni saqlovini ta'minlash ko'rsatiladi.

Tematik – ekspozision loyixani to'liq tuzib bo'lgandan keyin, sinov ekspozisiya qilinadi. Ekspozisiyaga qo'yishga mo'ljallangan eksponatlar, ekspozision maydonga tematik struktura va tematik loyixa asosida, me'moriy badiiy yechim loyixasiga ham mos tarzda qo'yib ko'riladi. Bu esa o'z navbatida kompleksning kompozitsiyasini, devorlarning, vitrinalarning optimal egallanadigan joyini ko'rishga yordam beradi. Bu jarayon- ilmiy xodim va rassomning birgalikdagi ijodiy ishining natijasi hisoblanadi. Ularning natijasi tanlab olingan materiallarning kartotekasida, tematik- ekspozision loyixada va me'moriy badiiy yechimning eskiz loyixasida yoziladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari ekspozisiyaning modelini yaratishga imkon beradi, unda eksponatlarning kompyuter tasviridagi

xajmlari devorlarga “ilib” chiqiladi yoki kompyuter modeli zallariga joylashtiriladi. Tematik - ekspozision loyixani ishlab chiqish, ilmiy loyixalashning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Ekspozisiyaning badiiy yechimi

Deyarli XX asrning ikkinchi yarmigacha ekspozisiya tuzish butunlay muzeyning ilmiy kollektivi zimmasiga yuklangan. Tematik strukturasi ham o‘zlari tuzgan. Ekspozisiyaning badiiy tomonlariga e’tibor berilmasdi, chunki rassom muzeyda ikkinchi darajali ishlarni, ya’ni etiketaj tayyorlash, eksponatlarni oldindan tuzilgan loyixa bo‘yicha joylashtirib chiqish kabilarni bajargan. Natijada ekspozisiya ketma-ket takrorlanuvchi vitrina va stend materiallaridan iborat, bir xil tUSDagi zerikarli ko‘rinishga ega bo‘lardi. Ijtimoiy madaniy hayotda o‘zgarishlar yuz bera boshlagach, ekspozision ishlarga ham yangicha yondashish paydo bo‘ldi. Muzeylarning oldida o‘z ekspozisiyalarini ifodali va taassurot qoldira oladigan qilib yaratish vazifasi qo‘yildi. Eksponatlarga emosional ta’sir manbasi sifatida qaralishi, muzey to‘plamini namoyish etish tartibini qayta ko‘rib chiqish va tubdan o‘zgartirishga undadi. Rassom faqatgina eksponatlarni joylashtirishda emas, balki ekspozisiyaning badiiy mazmunini izohlashda ham katta rol o‘ynaydi. Muzey ekspozisiyasi, tabiat va jamiyatda ro‘y berib kelayotgan jarayonlarni maksimal aniq aks ettirish kerak, shuningdek u emosional, obrazli, qiziqarli tilda gapirishi lozim. Bu ishni amalga oshirish juda murakkab albatta. Shuning uchun rassom eksponatlashtirilayotgan obyektни har tomonlama, chuqur o‘rganishi lozim. Tayyorlanish texnikasi, materiali, xajmi va boshqa belgilari bo‘yicha turlicha bo‘lgan predmetlar ekspozision mamuada bir butun narsadek aks etishi kerak, ya’ni ko‘zlangan mavzuni ochib bera olishi lozim. Aynan shu yaxlitlikni yaratishda, turli me’moriy-badiiy vositalardan ijodiy foydalangan holda rassom o‘z mahoratini namoyon qiladi. Tarkibiga muzey predmetlari, ilmiy-yordamchi materiallar, me’moriy-badiiy va texnik vositalar kiritilgan majmua, yagona fikrga bo‘ysundirilib, o‘zaro bog‘liq, mutanosib bo‘lsa, zamonaviy ekspozisiyaning eng yaxshi shakli xisoblanadi. Rassom ekspozisiyaga predmetlarni shunday joylashtira olishi kerakki, ma’lum jarayon yoki hodisalar haqida yangi axborot, yangi bilimlar paydo qila olishi kerak.

San’at va texnika vositalarining har xil turlari qo‘shilib, muzey ekspozisiyasini loyixalashda yangicha tushuncha, ya’ni ekspozision va ko‘rgazma dizayni vujudga keldi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy muzey ekspozisiyalari qiyofasini tubdan ijobiy tomonga o‘zgartira boshladi. Toshkentdagi kino san’ati muzeyi ekspozisiyasi muzeyshunos va dizaynerlarning birgalikdagi mehnatining samarasidir.

Ekspozisiyani ifodali, obrazli qilib yaratishda predmetlarning asl nusxalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Lekin, asl nusxadagi predmetlar bitta joyda namoyish etilganda, ular kutilgan natijani bera olmasligi, predmetlar bir xil tipda bo‘lishi yoki yangi ekspozision obraz yaratish uchun predmetlar bir – biriga mos bo‘lmasligi va kam bo‘lishi mumkin.

Bunday hollarda boshqa vosita va uslublardan foydalanish zarurati tug‘iladi. Mazkur vositalar qatoriga xaritalar, sxemalar, diagrammalar, turli ilmiy rekonstruksiya, xajm, rang va shakl kiradi. Asl nusxadagi predmetlar bilan ilmiy yordamchi materiallar uyg‘unlashib, ma’lum hodisa, voqea, jarayon haqida obrazli

tasavvur beradi. Lekin ilmiy-yordamchi materialdan shunday foydalanish kerakki, u asl nusxadagi predmetdan ustunroq bo'lib qolmasligi kerak, shuningdek ulardan chegaralangan doirada foydalanish lozim. Aks holda muzey ekspozitsiyasining spesifikasi yo'qolib ketishi mumkin.

Zamonaviy ekspozitsiyalarni yaratishda foydalaniladigan badiiy-ifodaviy vositalar majmuasini ishlatishda, eksponatlarni namoyish etish uchun maxsus moslamalarni, ya'ni ekspozitsion jihozlarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Ekspozitsion majmuada u 2 xil vazifani bajaradi. Birinchisi, eksponatlarni atrof-muhitidagi zararli ta'sirlardan, shikastlanishidan, o'g'irlanishidan muhofaza etsa, ikkinchi vazifasi me'moriy-badiiy funksiya bo'lib, ekspozitsiyaning xajmli – fazoviy muhitini va predmetlarini oqilona joylashtirishga optimal sharoitni yaratadi.

Zamonaviy muzey amaliyotida noyob va universal asbob-uskunalar qo'llaniladi. Maxsus asbob-uskunalar namunalari aniq muzey uchun eksponatlarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa zarur faktorlarni xisobga olingan holda yaratiladi. Universal asbob-uskunalar, egiluvchan, shaklini o'zgartirsa bo'ladigan moslamalar bo'lib, ulardan asosan yirik muzey markazlari yoki ko'rgazmalarda foydalaniladi.

Ekspozitsion materialning shakliga va ekspozitsiyaning me'moriy badiiy yechimiga moslab, ekspozitsion asboblarning har xil turlari tanlanadi. Yassi ekspozitsiyalar uchun maxsus vertikal shitlar yoki stendlardan foydalaniladi. Ba'zida ekspozitsion maydonda xaddan ziyod eksponat ko'paytirmaslik maqsadida ekspozitsion materiallarning bir qismi turniketlarga joylashtiriladi. Uning ko'rinishi kitobga o'xshaydi va varaqlari qattiq bo'lib, sharnirlarga maxkamlanadi. Turniketlarda asosan xujjatlar, plakatlar, fotosuratlar joylashtiriladi.

Keng joydagi ekspozitsiya uchun vitrina, podium va universal modulli sistemalardan foydalaniladi. Vitrinalar turli konstruksiya va shakllarga ega bo'lib, gorizontal, vertikal, stol ustida turadigan, osib qo'yiladigan, atrofida aylanib ko'rsa bo'ladigan, devoriy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Podiumlar (taglik) – xajmdor predmetlarni ochiq tarzda namoyish etish uchun qo'llaniladi. Universal modulli sistema – karkasli, karkassiz, aralash, romli va fazoviy – strejnlil, ya'ni shaklini o'zgartirsa bo'ladigan moslamalardan ham foydalaniladi.

Yuqorida qayd etilgan asboblardan, eksponatlar va ekspozitsion zallarga, intereriga stili, rangi va xajmi bo'yicha mos kelishigiga qarab tanlanadi. Ular juda neytral va ko'zga tashlanmaydigan bo'lishi lozim emas, balki ekspozitsiyaning obrazli yechimiga mutanosib bo'lishi kerak.

Shuningdek ekspozitsiya tuzishda rang va yorug'lik ham katta rol o'ynaydi. Ular yordamida ekspozitsion namunalarni yagona garmonik yaxlitlikka jamlash, asosiy eksponat va kompozitsiyalarga urg'u berish, tomoshabinlarning ma'lum emosional reaksiyasiga erishish mumkin. Yorug'likdan to'g'ri foydalanish, eksponatlarning rangini aniq berishga yordam beradi. Ma'lum rang va yorug'lik yechimlari ekspozitsiyani yanada ifodalibroq bo'lishiga yordam berishi mumkin.

Ekspozitsiyani his qilish (yoki qabul qilish)da fazoviy yechim ham ulkan ahamiyat kasb etadi. YA'ni, ekspozitsion xonada ekspozitsion asboblardan va ekspozitsion materiallarni to'g'ri joylashtirish lozim. Ekspozitsion majmua elementlarining mutanosibliigi, ularning o'zaro bog'liqligi, guruhlanishi – bularning hammasi badiiy ekspozitsion obraz yaratishda birinchi navbatda muhimdir.

Shunday qilib, ekspozitsiyaning xarakteri, uning tematikasi va boshqa aniq shartlarga qarab, rassom ekspozitsion obraz yaratish uchun barcha vositalarni yoki ularning bir qismini ishlatadi. Yaxshi natijalarga erishish uchun, asosan muzey predmetlari va ularning majmualari kompanovka qilinadi. YA'ni ekspozitsion ansambl obrazi, muzey predmetlari asosida yaratiladi.

Muzey ekspozitsiyalarini badiiy loyixalashning asosiy bosqichlari

Ekspozitsiya asosan me'morlar, rassomlar, injenerlar, dizaynerlar va albatta muzeyning ilmiy xodimlari bilan birgalikda yaratiladi. Bunda ishning ketma-ketligini, har bir bosqichidagi faoliyatning xarakterini, loyixa xujjatlarining tarkibini aniq belgilash kerak va har bir ekspozitsiya loyixasi qatnashchilarining mehnati samarador bo'lishi lozim. Shuningdek badiiy loyixalashning asosiy bosqichlari, ilmiy loyixalash bosqichlari bilan solishtirilishi kerak.

Ekspozitsiyaning me'moriy-badiiy loyixalash ishlarini boshlash uchun asos xujjat bo'lib ilmiy konsepsiya xizmat qiladi va unda umumiy ekspozitsion fikrning yetarlicha to'liq tavsifi mavjud. Uning asosida ko'p hollarda , tematik loyixadan keyin ekspozitsiyaning bosh yechimi yaratiladi, ya'ni birlamchi badiiy loyixa tuziladi. Ushbu loyixada bo'lg'usi ekspozitsiya qiyofasiga doir me'moriy-badiiy muammolar yechiladi va muallifning ijodiy fikri ochib beriladi. Loyixalashning oxirgi bosqichlarida barcha kamchiliklar bartaraf etilib, mukammallashtiriladi. Ekspozitsiya loyixalashning zamonaviy uslublari ekspozitsiyaning bosh yechimini – ekspozitsiyaning badiiy konsepsiyasi shaklida ishlab chiqishni ko'zda tutadi. U chizmalar, maketlar va tushintirish xujjatlari ko'rinishida bajariladi. Bu badiiy uyushma va muzey jamoatchiligi orasida muxokama qilinadi. Shuning uchun uning ifodaviy tili va vositalari turli mutaxassis egalari uchun aniq va tushinarli bo'lishi lozim.

Badiiy loyixalashning ikkinchi bosqichida, tematik-ekspozitsion loyixa va ssenariy tuzilib, tasdiqlanib bo'linganidan so'ng ekspozitsion loyixa ishlab chiqiladi. Unda badiiy konsepsiya (bosh yechim) tafsilotlanadi. Eskiz loyixada quyidagi masalalar qayta ishlanadi: bo'limlarning ekspozitsion maydonlari; mavzular aniq bo'linadi, barcha ekspozitsion materiallar joylashtiriladi; ekspozitsiyaning xajmli - fazoviy va rangli yechimi belgilanadi; zallarni, ekspozitsiyalarni va alohidagi eksponatlarni yoritish uslublari hal qilinadi; ekspozitsion asbob-uskunalar, audiovizual va texnik vositalar joylashtiriladi.

Eskiz loyixada eksponatlarni joylashtirish va ko'rsatib berish muhim ahamiyatga ega. Muzeyda shunday uslublarning borki, ular yordamida predmetlar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, ekspozitsiyadagi eng asosiy eksponatni ajratib namoyish qilish mumkin. Masalan, yetakchi eksponat ko'p hollarda ekspozitsion maydonning markaziga joylashtiriladi va bu bilan tomoshabinni o'ziga jalb qiladi. Uning ahamiyatini rangli fon, yorug'likni yo'naltirish yoki atrofida maxsus yaratilgan bo'shliq yordamida ham ko'rsatish mumkin. Lekin rassom, asosiy eksponatga jalb qila turib, namoyish etish vositalari va asboblarning tobe va ikkinchi darajali o'rinni egallashi kerakligini unutmasligi kerak.

Badiiy loyixalashning yakuniy bosqichi texnik va ishchi loyixani ishlab chiqishdan iborat. Bunga montaj listlari, asboblarning badiiy konstruktorlik yechimining muallif tomonidan ishlab chiqilgan, eksponatlarni yoritish va

mahkamlash uchun moslamalar, isitish, ventilyasiya, yong'in va saqlash signalizatsiyalarining injenerlik yechimlari kiradi.

Montaj listlari – ma'lum materiallarning joylanishi ko'rsatilgan ekspozitsion zallarning loyixalarini o'zida aks ettiradi. U rassom tomonidan yaratilib, 1:10 masshtabda chiziladi.

Barcha kerakli asboblari va ilmiy yordamchi materiallar tayyorlangach, ekspozitsiyaning montaji boshlanadi. Unda ekspozitsion maydonda texnika vositalari va asboblarni yig'ish jarayoni, ekspozitsiya loyixasiga binoan ekspozitsion materiallarni joylashtirish ishlari qilinadi. Montaj, maxsus tayyorgarlikni o'tagan montajchi-ishchilar va muallif-loyixachilar tomonidan amalga oshiriladi.

Rassom, montaj ishlari rahbariyati bilan birgalikda ekspozitsiyani reklama qilish uchun muhim materiallarni tayyorlashda va uning tantanali ochilishida qatnashadi.

Xulosa qilib aytganda, oxirgi o'n yilliklarda muzey ekspozitsiyasi san'ati, ijodning mustaqil turi sifatida tasdiqlandi. Zamonaviy muzey ekspozitsiyasi – bu muzey ilmiy xodimlari va ekspozitsioner-rassomlarning birgalikda olib borgan mehnatining samarasidir.

Lekin shuni ta'kidlash joizki, muzey ekspozitsiyasi san'atida yechilmagan muammolar ham ko'p. Shuning uchun u muzey ishi kabi, ijodiy tajribaga muxtoj va uni har tomonlama mukammal o'rganib chiqish lozim.

Ekspozitsiya yaratish uslublari

Ilmiy asoslangan va ekspozitsiya mazmunidan kelib chiqib ekspozitsion materiallarning guruhlanish va tashkillashtirish tartibi – ekspozitsiya yaratish uslubi deyiladi. Sistematik, ansambl, landshaft va tematik uslublar shular jumlasidandir.

Sistematik ekspozitsiya qurish uslubi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida qo'llanila boshlangan bo'lib, ilm-fandagi rivojlanish jarayonlari va ilk ixtisoslik muzeylarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sistematik ekspozitsiyaning asosiy tarkibiy birligi – tipologik (sistemali) qatordir; u predmetlarning biologik, texnik, estetik evelyusiyasini ko'rsatadi. Bu uslub asosan tabiiy-ilmiy, ilmiy-texnik, arxeologik va etnografik muzeylarda, amaliy bezak san'ati muzeylarida ko'proq qo'llaniladi. Masalan, sistematik ekspozitsiyada turli davrlarda ishlab chiqilgan dazmollar, telefon apparatlari, samovarlar yoki qushlar to'plamini namoyish etish mumkin.

XIX asrning o'rtalarida etnografik muzeylarning rivojlanishi ekspozitsiya tuzishning ansambl uslubining paydo bo'lishiga olib keldi. Ansambl ekspozitsiyaga asosan me'morial muzeylar, muzeylashtirilgan tarixiy va madaniy yodgorliklar kiradi. Bunga tarixiy intererlar yoki ulardan lavhalarni misol qilish mumkin.

Jahon muzeyshunosligi amaliyotida ansambl ekspozitsiyalar keng tarqalgan. Chunki, u tomoshabin tomonidan tez qabul qilinadi, qiziqish uyg'otadi va kuchli emosional ta'sir ko'rsatadi. Ko'p muzeylar o'zining deyarli hamma ekspozitsion maydonini turar joy va ishlab chiqarish intererlarining qayta tiklangan ko'rinishi bilan to'ldiradilar.

Ansambl ekspozisiya bilan bir vaqtda landshaft ekspozitsiyalar ham shakllangan. Uning asosiy tarkibiy birligini – bino guruhlar va landshaft dioramalari tashkil etadi.

Bioguruh (biologik guruh) ko‘rinishidagi landshaft ekspozitsion uslub XIX asrning II yarmida tabiiy - ilmiy muzeylarda vujudga keldi. Bunga hayvonat yoki o‘simlik dunyosi obyektlaridan tashkil topgan ekspozitsion majmua kiradi.

Landshaft ekspozitsiyasining tashkil etilishida, XIX asrning II yarmida Londonda o‘tkazilgan Jahon sanoat ko‘rgazmasi muhim ahamiyat kasb etdi. Unda hayvonlarning hayotidan olingan biologik guruhlar namoyish etildi. Shundan so‘ng Britan tabiiy tarix muzeyi ham o‘zining sistematik ekspozitsiyasiga bioguruhlarini kirita boshladi. Ekspozitsiya aniq xujjatlar asosida yaratildi. Qushlar va inlardan iborat bioguruhga ular yashagan muhitdagi yer va o‘simliklar keltirilib, ekspozitsiya yaratilgan. Har bir barg, gul va o‘tlar ishlarga mos keladigan materiallardan qilinib, xuddi tabiatdagidek joylashtirilgan. Bunday biologik kolleksiyalar yonida sistematik kolleksiyalar tomoshabinni tez charchatadigan, zerikarli bo‘lib tuyuladi. Chunki biologik kolleksiyalar vitrajlarining har birida, tabiat lavhasining xuddi o‘ziday qilib tiklangan bir bo‘lagini ko‘rish mumkin. Barcha vitrajlardagi narsalar tabiatning jonli illyustratsiyasiga o‘xshatib qilingan.

XIX asrning oxirlariga kelib, tabiiy-ilmiy muzeylarning amaliyotiga panorama va dioramalar kirib keldi. Bular ekspozitsiya tuzishning landshaft metodini o‘ziga xos turlaridir. Panorama (grekchadan rap- hammasi va horama- ko‘rinish) – katta hajmdagi tasmasimon kartina bo‘lib, silindrik shakldagi podramnining ichki tomoniga tortilgan polotnogo chiziladi.

Undagi tasvirlar birinchi planga qo‘yilgan predmetli plan- ya’ni maketlar, inshootlar, figuralar bilan uyg‘unlashtiriladi. Panorama o‘zining markazidagi maydonchadan tomosha qilinadi va tomoshabin o‘zini xuddi tasvirlanayotgan muhitning ichida turgandek his qiladi. Birinchi panorama 1787 yili Irland rassomi R.Barker tomonidan yaratilgan bo‘lib, Edinburg shahrining aylana tasvirini aks ettirgan.

Dioramadagi (grekchadan dia – orqali, ichidan, horama - ko‘rinish) tasvir faqat oyna ortidan tomosha qilinadi (uch tomonlama, alkovli deb nomlangan dioramalar bundan mustasno). U gorizontning faqat bir qismini qamrab oladi va yarim aylana yoki to‘g‘ri burchak shaklidagi xonaga devorda joylashishi mumkin. Dioramalar, panoramaga o‘xshab juda ko‘p maydonni egallamaganligi bois, tabiiy-ilmiy muzeylarda unga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi.

Bioguruh va dioramada hayvonlardan tashqari mahalliy manzaradagi turli lavhalar- o‘simliklar, vulqonlar, qoyalar, daryo, ko‘llarning qirg‘oqlari, o‘rmonning botqoqliklari kabilar ham namoyish etiladi. Shuningdek unda ma’lum joyning landshafti bilan bir qatorda xayvonning haqiqiy qiyofasini va uning harakat dinamikasini ko‘rsatish mumkin. Bioguruh va dioramalardagi har bitta detal, tabiatdagi o‘simlik va hayvonat dunyosi, tabiiy muhit va hokazolar juda aniq berilishi shart. Aks holda ekspozitsiya ishorasiz, sifatsiz chiqadi. Toshkentdagi tabiat muzeyida mazkur uslublardan keng foydalanilgan.

Tematik ekspozitsiyada – ekspozitsion materiallar orqali ma’lum mavzu ochib beriladi, ya’ni tasvirlanadigan voqea yoki hodisalarning muzey obrazi yaratiladi. Tematik ekspozitsiyaning asosiy tarkibiy birligi – tematik ekspozitsion majmuadir. U

o'zida turli predmetlar guruhini – buyumlar, xujjatlar, tasviriy materiallarni aks ettiradi. Sistematik va ansambl ekspozitsiyalardan farqi shundaki, undagi predmetlarni tipologik belgilari yashash muhitidagi real yoki tipik bog'liklari emas, balki ma'lum voqea yoki hodisani tasdiqlovchi eksponat darajasidagi sifati birlashtiradi. YA'ni tematik ekspozitsiyadagi predmetlar ma'lum mavzuni ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur uslub tarixiy va o'lkashunoslik muzeylarida yetakchi o'rinni egallaydi.

Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan uslublar birlashtirilishi ham mumkin: sistematik ekspozitsiya ansambl yoki sistematik ekspozitsiyalarning elementlarini kiritishi mumkin. Ekspozitsiyalash uslublarini tanlash bir qator faktorlar bilan bog'liq: muzey ixtisosligi, mavzu, yaratilayotgan ekspozitsiyaning maqsadli ko'rsatmalari, kolleksiyaning spesifikasi, ekspozitsion maydonlarning hajmi shular jumlasidandir.

Ekspozitsion materiallar:

Muzey ekspozitsiyalarida, ma'lum muzey to'plamlaridagi tarixiy va madaniy yodgorliklar namoyish etiladi. Shuning uchun uning asosini muzey predmetlari tashkil etadi. Ekspozitsion material sifatida, ko'p hollarda muzey predmetlarining qayta tiklangan nusxalari va nomuzey obyektlar ham uchraydi. Bunga kopiyalar, reproduksiyalar, gips yoki shunga o'xshagan materialdan qilingan nusxalar, mulyajlar, modellar, maketlar, ilmiy rekonstruksiyalar, gologrammalar, asl nusxa materialidan qayta tiklangan nusxalar kiradi.

Kopiya – bu asl nusxaga o'xshatib ishlangan predmet bo'lib, asl nusxa o'rnida ishlatiladi. Kopiyalar 2 xil bo'ladi. 1. Muzey predmetining qayta tiklangan zamonaviy nusxasi bo'lib, imkon qadar asl nusxani aniq takrorlaydi. Kopyaning bu turi ilmiy – yordamchi zaxira tarkibiga kiritiladi va asl nusxa yo'qolsa yoki umuman yaroqsiz holga kelgan bo'lsa, uning o'rniga muzey ahamiyatidagi predmet sifatida qo'yiladi. Kopyaning ikkinchi turi san'at asarlarining takrorlanishi bo'lib, u muallif yoki boshqa rassom tomonidan yoziladi. Agar nusxani muallif yaratsa, muallif takrori yoki replika deyiladi. Kopiya originalidan texnikasi yoki hajmi bo'yicha ajralib turishi mumkin, lekin uning uslubi, kompozitsiyasi bir xil bo'lishi kerak. Replikada esa originalning ikkinchi darajali detallari o'zgarishi mumkin. Mashhur badiiy asarlardan nusxa ko'chirish er.av.II asrlardayoq qadimiy Rimda keng tarqalgan. Kopiyalarning ikkinchi turdagilari tarix va madaniyat yodgorliklari hisoblanadi va muzeyning asosiy zaxirasi tarkibiga, muzey predmetlari sifatida kiritiladi.

Reproduksiya deb rangtasvir, grafika yoki fotografik tasvirning bosma usulda kattalashtirib yoki kichiklashtirib chiqarilganiga aytiladi.

Haykaltaroshlik va amaliy bezak san'ati asarlari nusxalari – qattiq, gips, mum, plastilin yoki boshqa materiallar yordamida qolip olinib, ichiga gips qo'yilib olinadi. Asosan gips yordamida olingan qoliplardan aniq nusxa qilish mumkin.

Mulyajlar – asl nusxaning xajmini, shaklini, rangini va fakturasini aniq qilib takrorlaydi. Ular asl nusxani aniq o'lchamlari, ba'zida esa chizmatasvirlari bo'yicha tiklanadi.

Maketlar – ma'lum bir masshtabda ishlanib, namoyish etilishida ba'zi shartliliklarga yo'l qo'yadi. Maket tarzida asosan ishlab chiqarish va maishiy

intererlar, ma'lum bino va inshootlarning, landshaft va relief joylarning ko'rinishlari ishlanadi.

Model – originalning konstruktiv prinsiplari va fakturasi saqlangan holda yaratiladi. Model asosan predmetning masshtabi, ekspozitsiyaga sig'maganligi uchun o'zgartirilishi kerak bo'lganda, uni ishlatilish jarayoni ko'rsatilishi lozim bo'lsa va boshqa hollarda qilinadi.

Gologramma – bu predmetning hajmdor optik nusxasini yaratuvchi, oxirgi o'n yilliklarda muzey sferasida keng tarqalgan uslubdir. U predmet tasvirini yoruklikka sezuvchan plastina yoki lazer texnikasi yordamida yaratadi. Yorug'lik uyuni ta'siri ostida natural kattalikdagi tasvir paydo bo'ladi. Golografiya texnikasi yordamida predmetlarni turli xajmda tasvirlash mumkin.

Ekspozision materiallar tarkibiga ilmiy-yordamchi materiallar, ya'ni xaritalar, sxemalar, tablialar, diagrammalar va hokazolar, matnlar, bosh matnlar, yetakchi matnlar, tushintirish matnlari, etiketaj, ko'rsatkichlar, fonokommentariyalar ham kiradi.

5-mavzu. Ko'rgazma faoliyatining tarixi. Muzeydan tashqari ko'rgazmalar: funksiya va tipologiya.

Uzoq vaqtlardan beri insoniyat turli iste'mol mahsulotlarini sotish maqsadida yarmarka va ko'rgazmalardan foydalanadi. Hozirgi davrda yarmarka faqat mahsulotlarni sotish joyi emas, balki ko'rgazmalarning asosiy vazifasi hisoblangan fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlarini namoyish qilish joyiga aylanyapti.

Ko'rgazmalar avvaldan inson faoliyatining u yoki bu sohasidagi yutuqlarini namoyish qilishga mo'ljallangan edi. O'z rivojlanishi jarayonida ular amaliy aloqalar o'rnatish va savdo bitimlari tuzish mo'ljallanadigan tadbirlar o'tkazish joylariga aylandi.

Hozirgi vaqtda «ko'rgazma» va «yarmarka» atamaları shunchalik yaqin ma'no kasb etganki, ular ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ko'llaniladi.

Savdo-sanoat ko'rgazmasi - bu qisqa muddatli, davriy va odatda har doim bir joyda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uning doirasida ko'pgina korxonalar namunalari (eksponatlar) yordamida bir yoki bir necha sohalarning tovarlari taklifining keng manzarasini namoyish etadilar va iste'molchilarga savdoni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, o'z firmalari va uning mahsulotidan xabardor qilishga intiladilar.

Savdo yarmarkasi - qisqa muddatli, davriy va asosan, bir joyda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uning doirasida ko'p sonli korxonalar namunalari (eksponatlar) yordamida tashrif buyurgan tijoratchi ularning tadbirkorlik imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari maqsadida, bir yoki bir necha sohalarning tovarlarini namoyish qiladilar. Bu tadbirni o'tkazuvchi, shuningdek, namoyish qilinayotgan tovarlar yordamida o'z firmalari va ularning mahsulotlari haqida axborot tarqatishga va to'g'ridan-to'g'ri savdo bitimlari tuzishga intiladilar.

Ko'rgazmalarning ixtisoslashishi, tashkiliy xususiyatlari va ularni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish darajasiga ko'ra ko'rgazmalarning quyidagi turlari farqlanadi:

- fan va texnikaning butun bir sohasini qamrab oladigan xalqaro tarmoq ko'rgazmalari («Paxta», «Tibbiyot», «Qishlok xo'jalik texnikasi» va x.k.); fan va texnikaning ayrim yo'nalishlari va kichik tarmoqlarini qamrab oladigan, xalqaro

ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalar (salonlar) (masalan, «Stomatologiya», «Innovasiya» va h.k.);

- kongresslar, anjumanlar, simpoziumlar doirasida o'tkaziladigan xalqaro ko'rgazmalar;
- ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik to'g'risida davlatlararo tuzilgan bitimlarga muvofiq tashkil etiladigan milliy ko'rgazmalar;
- alohida bir mamlakatning madaniyat kunlari (xaftalari, o'n kunliklari);
- davlatlararo munosabatlarning o'rnatilish sanalari, firma yoki uning ma'lum bir bozordagi faoliyati yubileyi va h.k.larga bag'ishlab o'tkaziladigan yubiley ko'rgazmalari;
- ko'rgazma-simpoziumlar; ularda tashkilotchilar tomonidan turkum ma'ruzalarning o'qilishi, muhokama etilayotgan masala bo'yicha eksponatlar namoyish qilinadigan, ilmiy xabarlar yetkazilishini ta'minlaydilar;
- ayrim firmalar yoki firmalar guruhi kataloglari ko'rgazmasi;
- ayrim firmalarning taklifi bo'yicha aniq bir bozorda mahsulot sotishni ko'paytirish maqsadida o'tkaziladigan ko'rgazmalar;
- moda haftaliklari.

Ixtisoslashish darajasiga ko'ra ko'rgazma va yarmarkalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- universal;
- ko'ptarmoqli;
- alohida soxaga bag'ishlangan;
- iste'mol mollari ko'rgazmalari.

Ko'rgazma turi tashrif buyuruvchilarning asosiy tarkibi va davra xususiyatini belgilaydi.

Bu, albatta, ko'rgazma qatnashchilari tomonidan uning aloqa o'rnatish siyosati va umuman, marketing faoliyati nuqtai nazaridan istisnosiz xisobga olinishi lozim.

Yirik xalqaro ko'rgazmani tashkil qilish chizmasini quyidagicha tasavvur etish mumkin:

- Ko'rgazmani o'tkazish xaqida qaror qabul qilish.
- Ko'rgazmani o'tkazish to'g'risida ko'rgazma maqsadlari, asosiy mavzulari, buyurtmalar taqdim etish xamda ko'rgazmaning ishlash muddatlari va x.k.lar ko'rsatilgan holda rasmiy e'lon qilish.
- Ko'rgazmani tayyorlash va o'tkazishni boshqarish tarkibini shakllantirish.

- Ko'rgazmada qatnashish uchun buyurtmalar qabul qilish.

Ko'rgazmani tayyorlashga oid tashkiliy-texnik tadbirlar:

- ko'rgazma maydonlari qatnashchilar o'rtasida taqsimlanadi;
- qatnashuvchi firmalarga ko'rgazma xonalari rejasining nusxalari, eksponatlar taxtalavxalari chizmasi aniq ko'rsatilgan holda yuboriladi;
- ajratilayotgan maydonlar va moddiy resurslar uchun xisob-kitob amalga oshiriladi, avans (bo'nak) to'lovlar miqdori kelishib olinadi;
- transport yuriqnomalari ishlab chiqiladi (turli yuklar uchun kodlari va x.k.lar ko'rsatilgan holda manzil bekati aniqlanadi).

Ekspozitsiyalar montaji.

- Ko'rgazmaning tantanali ochilishi va rasmiy tanishuv.
- Ko'rgazmaning tomoshabinlar uchun ochilishi. Odatda, bu rasmiy ochilish kunining ertasiga bo'ladi.
- Ko'rgazmada ishchi dasturning bajarilishini ta'minlash.
- Ko'rgazmaning rasmiy yopilishi.
- Ko'rgazma ekspozitsiyalarini demontaj qilish. Ekspонатlar va asbob-uskuna, jixozlarni taqsimlash, sotish, tekinga berib yuborish yoki joyiga yetkazib berish.
- Tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rgazmadan ko'zlangan maqsadlarga erishish (tashrif buyurganlar soni, tuzilgan bitimlar miqdori va x,.k.) nuqtai nazaridan yakun yasash.

Ko'rgazma faoliyati quyidagi marketing vazifalarini xal qilish imkonini beradi:

- yangi bozorlarni qidirish;
- xaridorlar sonini kupaytirish;
- yangi tovarni bozorga olib chiqish;
- yangi vositachilarni qidirish;
- o'z mahsulotini namoyish qilish;
- yangi tovarga talab ehtimolini aniqlash;
- ko'rgazma tashkilotchisi bo'lgan mamlakat amaliy doiralari bilan aloqa o'rnatish;
- aniq bir bozorda firmaning maqbul nufuzini shakllantirish;
- yangi tovar reklamasini kuchaytirish;
- bevosita mahsulot sotish.

Biz ushbu qo'llanmada ko'rgazma va yarmarkalarda qatnashishning barcha o'ziga xos jihatlarini batafsil yoritish maqsadini ko'zlaganmiz. Ko'rgazma va yarmarkalarda qatnashish bosqichlari haqida batafsil ma'lumotlar tegishli adabiyotlarda yoritilgan.

6-mavzu: Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish

1. IKOM tomonidan ishlab chiqilgan CIDOC va AFRICOM (1996-1997) katalogizasiya ma'lumotnomasi.

2. Buyuk Britaniyaning muzey hujjatlari assosiasiyasining SPECTRUM standarti (MDA-1997).

3. Eksponatlarni noqonuniy savdosini oldini olish uchun yo'qolgan eksponatlar to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qiluvchi Thornes (1999) dasturi.

4. Rossiyaning ADIT (Avtomatizasiya deyatelnosti i informacionniye texnologii v muzeye www.adit.ru) notijorat hamkori va KAMIS dasturi.

5. YUNESKO axborot jamiyati bo'limi loyihasi asosida tayyorlangan O'rta Osiyo muzeylari uchun mo'ljallangan "Muzeolog" elektron dasturi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi "SKM- muzey" dasturi. Web-kataloglar.

"KAMIS" va "Muzeolog" elektron kataloglarini muzeylar faoliyatiga joriy etilish.

KAMIS — bu muzeylar haqida umumiy ma'lumot beradigan, ular bilan bog'liq keng ko'lamdagi masalalar yechimini ta'minlaydigan eng zamonaviy kuchli axborotlashtirilgan sistema hisoblanadi. Ushbu avtomatlashtirilgan axborot tizimi kompyuterda joylashtirilgan hisobot va muzeylar xodimlarining ma'muriy jihatdan boshqaruvi uchun mo'ljallangan. KAMIS yordamida muzeylar kolleksiyasida saqlanayotgan turli xil fondlarga tegishli buyumlar (tekstlar, tasvirlar, audio, video, animasiya,) ni aniqlash mumkin.

- Mazkur sistema o'z tizimidan foydalanuvchi mijozlari uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi :

- muzey kolleksiyalari va muzeyda joylashgan buyumlar ma'lumotlarini e'lon qilish, qayta ishlash va saqlash ;

- amaldagi hisobotlar qo'llanmasi talabiga muvofiq hisobot xujjatlarini rasmiylashtirish va muzeylarda saqlanayotgan buyumlar va muzey kolleksiyasi asarlarini saqlash;

- muzeydagi ilmiy mavzularga doir ma'lumotlardan foydalanish, saqlash va tasniflash;

- audio, video va tasviriy san'at materiallari haqida ma'lumotlarni e'lon qilish va saqlash;

- NTML shaklida elektron ko'rinishdagi e'lonlarni yaratish;

- muzeylarda saqlanayotgan ma'lumotlar ustidan statistik nuqtai nazardan qayta ishlov berish;

- muzeylardagi kataloglar va internetdan olingan ma'lumotlar negizida yig'ilgan axborotlarni muayyan shaklga keltirish ;

- biror bir mavzuga bag'ishlangan SD disklarini ishlab chiqarish;

- muzeylarda bo'lib o'tayotgan ko'rgazmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tez sur'atda Internetga joylashtirish va hattoki tamomila muzeyga tegishli bo'lgan sayt loyihasini tuzish;

- matn hamda tasvirlarni o‘z ichiga qamrab olgan muzey kolleksiyalari (asar kartotekasi, muallifi, ko‘rgazmalar ro‘yxati, adabiyotlar ro‘yxati, tematik tezaurus va terminologiyasi) ma’lumotlarini yaratish;

- muzey qaysi yo‘nalishga ixtisoslashtirilgan bo‘lishiga qaramasdan uni tizimga moslashtirish ;

Muzeylarda KAMIS sistema (tizim,tarmoq) sini joriy etish.

Muzeylarda KAMIS tizimini joriy etish 7-10 kun ish vaqtini talab etib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

- kompyuterda ushbu tizimni o‘rnatish;

- tizimni aniq belgilar asosida hamda muzey mutaxassislari takliflariga binoan soddalashtirish (har bir fondga saqlanayotgan eksponatlar tavsifini tizim doirasida to‘ldirish va bazadagi variantlar negizidagi ma’lumotlar xulosasi namunasi , hisobga oid xujjatlarni to‘g‘irlash va boshqalar);

- muzey mutaxassislari maslahatlariga ko‘ra muzeydagi hisobotlarni avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish;

- xodimlarga ushbu tizimdan foydalanishni o‘rgatish.

Mazkur tizim muzeylar to‘g‘risida ma’lumotlarni tuzib, ularni tezda topish, turli xil ro‘yxatlar, kataloglar, xujjatlarni tayyorlash imkoniyatini beradi. Ushbu tizimdan foydalanish o‘zining qulay hamda oddiyligi bilan ajralib turadi. KAMIS sistemasi mutaxassislardan tomonidan 9 yillik tajriba asosida yaratilgan bo‘lib, bu sistema bir biriga o‘zaro aloqador bo‘lgan ikkita kichik tizim ya’ni “Fondlar kartotekasi ” va “Muzeylar hisoboti”dan iborat.

“Fondlar kartotekasi” tizimidan ilmiy va fondga oid bo‘limlar muzeylarda saqlanayotgan asarlar to‘g‘risida ma’lumot olish, ularni tartibga solib, tavsiflash hamda bir qator hisobot xujjatlarini tayyorlash uchun foydalanishadi.

“Muzeylar hisoboti” tizimidan esa hisobot (hisobga olish, qayd etish) bo‘limlari zaruriy xisobot xujjatlarini rasmiylashtirish, ma’lumot olish va muzeylarda joylashgan asarlar o‘rnini topish uchun foydalanishadi.

KAMIS – yordamida muzeylarning har bir fondga kartotekalari kartochoqlari, katalog turlari tuzilishini o‘zgartirish hamda tartibga solish mumkin. Shuningdek mazkur tizim rangtasvir, grafika, ikona, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, numizmatika, arxeologiya, qo‘lyozma va noyob kitoblar kabi muzey fondlarning barcha turlari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Ushbu sistemada ishlash qulayligini ta’minlash uchun bir qator fondlarda yordamchi kartotekalar (grafikaga oid albomlar va boshqalar) ishlab chiqilgan. Mazkur tizim o‘zining qulay va samaradorligi bilan ajralib turadi.

KAMIS tizimi barcha vazifalarini 4 ta maxsus bo‘limda amalga oshiradi: “Ilmiy-saqlash bo‘limi”, “ Hisobot bilan bog‘liq masalalar bo‘limi” , “Muzeydagi buyumlarni qayd etish bo‘limi”, “Ma’muriy boshqarma bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshiruvchi bo‘lim ”.

“Muzeolog” elektron katologi dasturi. Jahon muzeylarida “KAMIS” elektron katologi dasturi bilan bir qatorda “Muzeolog” elektron katologi dasturidan ham keng foydalanilib kelinmoqda quyida mazkur dastur bilan ishlash xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

“KAMIS” elektron katolgini o‘rnatilgandan so‘ng quyidagi tarzda ishga tushiriladi:

Programmani ishga tushirish uchun “Explorer”ni manzilini teramiz:

- “Muzeolog” serveri Muzeyda o‘rnatilgan
- Markaziy server Yuneskoning <http://www/museology.unesco.kz> manziliga o‘rnatilgan

Programmaning ishga tushurish

Kompyuter oynasida namoyish etilayotganlaridan shuni ko‘ramizki, rejimlarning hoxlagandan birini tanlash imkoniga ega bo‘lamiz:

- “o‘qish” rejimi, Muzeologga tashrif buyuruvchilar uchun kirish tugmasi
- ikkinchi rejim “Foydalanuvchilar rejimi” muzey xodimlariga mo‘ljallangan tugmadir.

Navbatdagi oynada programma foydalanuvchisi o‘zining ismi va parolini kiritadi.

Asosiy menyu va qatorlarni to‘ldirish. Asosiy menyuda “Ashyolar va boshqalar” bandida- yangi ma‘lumotni “Ashyolar” tipiga qo‘shiladi;

“Arxeologiya” – yangi ma‘lumotni “Arxeologiya” tipiga qo‘shiladi;

“Tabiiy ilm” – yangi ma‘lumotni “Tabiiy ilmiy” tipiga qo‘shiladi;

Avval asosiy qatorlarni to‘ldiriladi. *belgisidagi qatorni to‘ldirish majburiydir.

Administratorning asosiy menyusida “ro‘yxatlar importi” va “tezaurusning importi” mavjud.

“Ro‘yxatlar importi”ni tanlagach, oyna ochiladi, shunda hoxlagan avtorizatsiyali ro‘yxatni tanlash imkoniga ega bo‘ladi. Bundan keyin oyna ochilib, mutaxassis tomonidan maxsus saqlanadigan tekst shaklida rasmiylashtirilgan faylni tanlash imkoni tug‘iladi. Shunda kerakli faylni tanlab, OK tugmasini bosiladi.

- Tezaurusni import qilish uchun yuqoridagi barcha ishlar qaytariladi.

- Qatorlarni to‘ldirish oddiy, lekin tezauruslar va avtorizatsiyalangan ro‘yxatlar bor joyda tegishli qayd (zapis) tugmasni bosib, kerakli toifani tanlanadi. Qo‘llanmaning navbatdagi sahifasida tegishli oynalar mavjud.

Qaydlarni (zapis) qanday tahrir qilish

Bazaga kiritilgan qaydlarni (zapis) tahrir qilish uchun asosiy menyudagi “mening ishchi makonim” bandi tanlanadi, mazkur bandda bazaga kiritilgan barcha foydalanuvchilarning ma‘lumoti va shaxsiy paroldan iborat bo‘ladi. Qaydni (zapis) tanlaymiz va “o‘zgartirish” rejimini bosamiz.

Qaydlarni (zapis) izlash

-asosiy menyuni tanlaganda, mazkur banddagi menyudan siz boshqa menyuga kirasiz, unda siz turli toifadagi qaydlarni (zapis) izlash imkoni tug‘iladi.

-tanlangan operatsiyadan so‘ng, bir necha toifadan iborat bo‘lgan izlash bandi mavjud. Misol tariqasida, eksponatning nechanchi yilda keltirilganligini bilsangiz, tegishli qatorga ma‘lumotlar kiritiladi va izlash tugmasi bosiladi. Keyingi oynada shu yili keltirilgan barcha eksponatlar soni va ro‘yhati chiqib keladi. Bundan so‘ng kerakli eksponatni topish imkoni yengillashadi.

Qaydlarni (zapis) o‘chirish

Asosiy menyudan “Mening ishchi makonim” bandiga kiriladi. Mazkur menyuda kerakli toifadagi eksponatni va tegishli qaydni (zapis) tanlanadi. Ro‘yhatdagi barcha qaydlarni pastki qismida o‘chirish buyrug‘i mavjud. Shunda tegishli qaydni belgilab o‘chirish buyrug‘ini bosamiz. Bundan keyin qayd o‘chirilganlik to‘g‘risida tasdiqlovchi yozuv chiqadi.

Mening ishchi makonim

Mazkur dastur bazasiga ma'lumotlarni kiritish va o'zgartirish kiritish, shuningdek boshqa ishlarni faqatgina bazaga parol bilan kira oladigan foydalanuvchigina amalga oshira oladi. "Muzeolog" qaydlarini tashrifchilarga ochiqiligini ta'minlash uchun dastlab menyudagi "mening ishchi makonim" qaydlarni muallif sifatida tasdiqlash zarur. Shundan so'ng "muzeolog" tashrifchilari qaydlarni o'chiraolmaydi yoki o'zgartiraolmaydi. Tashrifchida faqatgina qaydlarni tomosha qilish imkoni mavjud bo'ladi xolos.

Qaydlarni (zapis) eksport qilish

Bazaga kiritilgan eksponatlarning nusxalarini va ma'lumotlarini saqlab olish zarur. Buning uchun asosiy menyudan "qaydlarni eksport qilish" buyrug'ini tanlanadi. Arxivlangan faylni saqlash uchun dialogli oynadagi papkani tanlaymiz va nomlaymiz.

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirib o'tilgan dasturlar Respublikamiz muzeylari xodimlari uchun yot emas. Jumladan 2010 yilda Samarqand shahrida "Desht-i-Art" Zamonaviy madaniyat markazi / "Jamiyatni rivojlantirish laboratoriyasi" tashkiloti tomonidan kompyuter ma'lumotlar bazasini yaratish yuzasidan ishlab chiqilgan "Muzeolog" dasturi bo'yicha tashkil etilgan o'quv seminarida mamlakatimizning 50 dan ziyod muzey xodimlari ishtirok etishib mazkur dasturning ishlash jarayoni bilan yaqindan tanishganlar.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlariga katta e'tibor qaratish zarur.

Muzeylarda elektron axborot tizimining joriy etilishi, unda namoyish qilinadigan saytlarning shakli, tartibi, ko'rinishlari, tuzilishi va sohaning boshqa masalalariga bag'ishlab qator ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunida muzeyga quyidagicha ta'rif berilgan: "Muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi".

Zahiraxona kolleksiyalar butligi va ochiqiligini ta'minlagani bois, bilim, tadqiqot va ilhom manbai markazlari sifatida o'z rollarini davom ettirmoqchi bo'lgan muzeylar oldida kolleksiyalarni tegishlicha avaylash hamda ular saqlanishini boshqarish kabi dolzarb vazifa turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi "Muzeylar faoliyatiga taaluqli meyoriy hujjatlar to'g'risida"gi 237-sonli, 2010 yil 12 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 68-sonli Qarorlarida Milliy muzey fondi to'g'risidagi va Milliy muzey fondining Davlat katalogi to'g'risidagi Nizomlar ishlab chiqildi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Milliy muzey fondining Davlat katalogini shakllantirish va yuritish tartibini belgilaydi. Davlat katalogi – milliy muzey fond tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjatidir. Davlat katalogi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari

vazirligi tomonidan yuritiladi hamda elektron va bosma ma'lumotlar bazasi ko'rinishida shakllantiriladi.

“SKM-MUZEY” dasturi O'zbekiston Respublikaning “Muzeylar to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taaluqli meyoriy hujjatlar to'g'risida”gi 237-sonli, 2010 yil 12 apreldagi “O'zbekiston Respublikasining “Muzeylar to'g'risida”gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi Sertifikasiya va kompyuterlashtirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan.

Avtomatlashtirilgan “SKM-MUZEY” dasturi respublika muzeylari ashyolarining Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi elektron katalogiga kiritish va ro'yxatdan o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Ushbu dasturni yaratish jarayonidamuzeylar fondidagi eksponatlar harakatini nazoratga olish, yagona bazani shakllantirish borasidaga jahon tajribasi o'rganib chiqilgan. Jumladan, Rossiya, AQSH va Yevropa mamlakatlari yetakchi muzeylarining «Kamis», «MUZEY», «Muzeolog» va boshqa dasturlari tahlil qilingan.

“SKM-MUZEY” dasturi 3 ta alohida kompyuter dasturlaridan iborat bo'lib, ulardan ikkitasi bevosita muzeyning o'zida o'rnatiladi. Birinchi dasturi muzey ashyolarining ma'lumotlar bazasini yuritadi, unda ashyoning turli tomondan olingan tasviri, ilmiy va texnik ta'rifi, sug'urta qiymati va ashyo haqidagi barcha zaruriy ma'lumotlar shakllantiriladi. Dastur muzey ashyolarining hisobga olish va saqlashbo'limi (fond) xodimlari uchun mo'ljallangan. U muzey xodimlariga ashyolar to'g'risidaga barcha ma'lumotlarni avtomatlashgan tarzda yetkazib berish imkonini beradi. Jumladan:

1) Muzey fondalarining davlat hisobini yuritish:

- Ashyolarni dastlabki ro'yxatga olinishi va atribusiyasi;
- Ilmiy tavsifi;
- buyumning kartotekalar bo'yicha kartochkalarini yuritilishi;
- qo'shimcha ma'lumotlarni ro'yxati.

2) Ko'rgazma va ekspozitsiyalarnga tayyorgarlik ko'rish uchun ma'lumotlarni.

3) Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni tez va oson olish imkonini beradi.

Dasturning maqsadi:

- muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarinin hisobga olish va boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

- Muzey fondlarida saqlanayotgan madaniy boyliklarni (muzey ashyolari va kolleksiyalar) saqlanishini ta'minlash.

Dasturning vazifalari:

1. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hisobga olish, hisobdan chiqarish, boshqaruvi, harakatlanishi bilan bog'liq hujjatlarni yuritish;

2. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari matnlari, fotolari (ashyoning kartotekasi, muallifi va b.) ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish;

3. Fondga oid turli ma'lumotlarni tez va oson topish va umumlashtirish;

4. Muzeý ashyolari va kolleksiyalarining ro‘yxatlari, ilmiy tavsiflari hamda kataloglarini tayyorlash;

5. Fondga oid hisobotlar va boshqa ma‘lumotlarni tez va sifatli tayyorlash “SKM-MUZEY”ning birinchi tizimi quyidagi talablarga javob beradi:

– Ma‘lumotlar kiritish va saqlash, nashrga tayyorlash va chop etish;

– Dasturiy ta‘minot bazasiga so‘rovlar, hisobotlar, natijalarini olish va ularni chop etish uchun bir vaqtning o‘zida bir necha foydalanuvchining kirish imkonini beradi;

– muzeý ashyolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, tafsilotlar, tasniflagichlar, shakllarga doir hujjatlarni qulay tarzda shakllantirish imkoniyati;

– tizim bilan ishlashning oddiy va qulayligi.

“SKM-MUZEY”ning ikkinchi tizim dasturi «SKM-MUZEY BAZA» deb nomlanib muzeý ashyolarining yagona ma‘lumotlar bazasini muvofiqlashtirish uchuna Madaniyat va sport ishlari vazirligida o‘rnatiladi. "SKM-MUZEY BAZA" Kompyuter dasturi vazirlikda maxsus himoyalangan server asosida tashkil etilib, Respublika muzeý ashyolarining yagona elektron bazasi hisobi va nazoratini amalga oshiradi.

U muzeý ashyolarining turli parametrlari bo‘yicha hisobotlar tayyorlash, muzeý ashyolarining harakatini nazorat qilish (ko‘rgazmalarda ishtirok etishi, muzeý va vazirlik vakolatidagi boshqa tadbirlarni amalga oshirishini nazorat qilish), muzeý ashyolarining inventarizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Mazkur dastur doirasida Respublikadagi barcha muzeý ashyolarining klassifikatsiyalar bo‘yicha miqdori va sifati nuqtai nazaridan aniq ma‘lumotlar ba‘zai shakllanadi. Ekspонатlarning xavfsizligini ta‘minlash, ularning harakatini to‘la nazorat qilish va saqlash muddatlarini uzaytirish, har bir yangi qabul qilingan ekspонатning tarixiy ahamiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dastur muzeý ashyolar davlat reyestirini shakllantirish va Milliy muzeý fondining yagona katalogini yuritish uchun ishlatiladi.

“SKM-MUZEY” dasturining asosiy vazifasi respublikamizdagi barcha muzeýlar fondidagi ekspонатlar harakatini nazoratga olish, mahalliy va xorijiy ko‘rgazmalarni o‘tkazish jarayonini yengillashtirishdan iborat.

“SKM-MUZEY”ning uchinchi tizim dasturi «SKM-MUZEY GID» deb nomlanadi. Mazkur dastur bevosita muzeýda o‘rnatilib muzeýga tashrif burgan mehmonlarga muzeý ashyolari bilan virtual tarzda tanishish imkonini beradi. Dasturining qulay tomoni shundaki u tashrif buyuruvchiga muzeý fonidida mavjud bo‘lgan hohlagan ashyo to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarni virtual tarzda olish imkonini beradi. “SKM-GID” dasturi orqali - sensorli kiosklar yordamida fond zahiraxonalardagi ekspонатlar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlar berishdan iborat.

Mazkur tizim 2011 yilning 16 mayida UzASI tomonidan S 00249 –son bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, maxsus sertifikat guvoohnomasi berilgan.



Mazkur dastur mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi muzeylarda saqlanayotgan har bir muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar manbai – Milliy muzey fondining yagona elektron katalogidir.

Dastur interfeysi quyidagi 9ta katta bo'lim:

Arxeologiya fondi

Numizmatika fondi

Etnografiya va amaliy san'at fondi

Qurol-aslaha fondi

Tasviriy san'at fondi


Hujjatlar, kitoblar fondi

Kino, foto-hujjatlar, slaydlar, negativlar fondi

Tabiiy-ilmiy ashyolar fondi

Texnika va transport fondidan iboratdir.

Biz quyida arxeologiya bo'limining ko'rinishini keltirib o'tamiz:



Arxeologiya bo'limiga kiritilgan ashyoning o'zbek tilidagi tavsifi

Mazkur dastur mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi muzeylarda saqlanayotgan har bir muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar manbai – Milliy muzey fondining yagona elektron katalogidir.

Davlat katalogini yaratish jarayoni mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylariga toifa berish, muzeylarda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va muzey xodimlarining malakasini oshirish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 2010-2015 yilar O'zbekiston amaliy san'at muzeyi ilmiy xodimlari Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan o'tkazilgan o'quv-seminarida ishtirok etib, muzeyga tashrif buyurayotgan tomoshabinlarga qo'shimcha axborotlar ko'lamini kengaytirish maqsadida sensorli kiosklardan foydalanish, ularga axborot kiritish yuzasidan malaka oshirdilar. Seminar so'ngida ishtirokchilarga sertifikat berildi.

2011-2013 yillarda "SKM-MUZEY" dasturini muzeylarda joriy qilinishi bo'yicha o'tkazilgan seminarida muzey rahbari va muzey bosh muhofizi ishtirok etishdi.

Ushbu dasturdan foydalanish, soha ma'lumot tizimini shakllantirish, axborotni to'laqonli yetkazish imkoniyatlarini kengaytirdi. Muzey muassasalari yagona tarmog'ining yaratilishi muzey fondlarini hujjatlashtirishda ko'pgina qulayliklarni tug'dirdi.

Jumladan, eksponatlarning tasviri raqamli fotokamera orqali bevosita kompyuterga kiritilmoqda. Ularning tahlili va boshqa ma'lumotlar ilova qilinib, ehtiyoj tug'ilganida mutaxassislar tomonidan qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi. Bu tadbir muzey ishida doimiy harakatda bo'lgan katalog va kartotekaning sifatini keskin yaxshilashni ta'minlaydi.

7- mavzu: Muzey va reklama

1. Muzey faoliyatini targ'ibot va tashviqot qilishda reklamaning roli.
2. Afishalar, flayerlar, bukletlar, taklifnomalar, web-saytlar, ko'rgazmalarga bag'ishlangan promo-roliklar, promo-saytlar yaratish.
3. OAV bilan ishlash va press-revizlar tayyorlash.

Reklama – iste'molchilar faoliyatiga o'ziga xos vositalar yordamida ta'sir o'tkazishning shakl va usullari haqidagi fan bo'lib, uning amaliy xususiyati reklama buyurtmachilari, reklama agentliklari, ommaviy axborot vositalarining iste'molchiga birgalikda muayyan ta'sir o'tkazishdan iborat kundalik reklama faoliyatida aniq ifodasini topadi. Bunday yondashish reklamaning psixologiya, sosiologiya va "Reklama psixologiyasi", "Reklama sosiologiyasi", "Reklamada madaniyatlararo aloqa" kabi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalarni kuzatish imkonini beradi hamda reklama haqidagi bilimlarni mustahkamlab borishni ta'minlaydi¹.

¹ Каримова Г. Реклама ва дизайн. – Т.: "Ўзбекистон", 2012. 5 бет.

Reklama yaratishning bevosita ijodiy qismiga kelsak, bunda asosiy e'tibor quyidagi masalaga qaratilishi lozim: reklama tovar yoki xizmat ko'rsatish turining xaridor bo'lishi kutilayotgan shaxs e'tiborini jalb etish uchun ifodali va betakror bo'lishi lozim. Kutilmagan, estetik jihatdan puxta o'ylangan reklama iste'molchining diqqatini o'ziga tortadi – bu esa reklamada aloqa o'rnatishning birinchi bosqichidir. Biroq reklamada “betakrorlik” yagona maqsad bo'lmasligi kerak, chunki iste'molchini aniq manfaat qiziqtiradi. Ushbu muammoning mohiyatini jahon reklama nazariyasining klassigi Devid Ogilvi juda aniq ifodalab bergan: “SHaxsan men reklama tijoratiga ko'ngilocharlik yoki san'atning bir turi deb emas, balki axborot manbai sifatida qarayman. Men reklama mahsulotini yaratganimda oddiy iste'molchi aslo uning “kreativ”ligidan, ya'ni noodatiy ijodiy topilmasidan hayratga tushishi kerak emas. Menga eng muhimi: haridor shu darajada qiziqib qolsinki, borib, reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olsin”. Samarali reklamani yaratish uchun reklama mahsulotini rejalashtirish, yaratish, joylashtirish va huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini bilish lozim.

Reklama – noma'lum shaxslar doirasiga qaratilgan hamda reklama obyektiga e'tiborni jalb qilish, unga qiziqishni shakllantirish yoki saqlab turish, uni bozorda olg'a siljitishga yo'naltirilgan, har qanday usul hamda shaklda, har qanday vositalar yordamida tarqatilgan axborotdir.

“Reklama to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida reklamaga quyidagicha ta'rif berilgan: “Reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va texnologiyalar to'g'risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot”.

Reklamaning yuqorida keltirilgan ta'riflarini tahlil qilib, uning mohiyati, xususiyatlarini sanab o'tish mumkin. YA'ni reklama:

- axborot yetkazish vositasidir (kommunikasiya);
- u aniq bir shaxsga emas, balki aholining u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan qismiga (maqsadli iste'molchilarga) yo'naltirilgan;
- axborot yetkazish to'lov asosida amalga oshiriladi;
- axborot yetkazish vositalari orqali tarqatiladi, yani reklama eltuvchilar;
- maqsadli istemolchilarga tasir o'tkazishni o'ziga rejalashtirib qo'yadi;
- reklama beruvchini aniqlashtirishga imkon beradi.

Extiyojlarni davlatning ijtimoiy iqtisodiy siyosatiga muvofiq ravishda shakllantirish, reklamaning asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi.

Reklama shaxsning o'zni baxolashi, voqelikni chuqur idrok etishda faol ishtirok etadi, insonlarning hayotdagi maqsadlari shakllanishiga tasir ko'rsatib, jamiyat hayotida muxim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 29-moddasida “Har kim o'zi istagan axborotini izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” ekanligi kafolatlab qo'yilgan. Reklama xam ana shu xuquqni amalga oshirishga xizmat qiladi.

1998 yilda “Reklama to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (2002, 2003, 2005, 2006, 2008, 2010-yillardagi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) qabul qilinishi reklama faoliyatining xuquqiy asoslarini yaratdi.

Ushbu qonunga binoan reklamaga nisbatan quyidagi asosiy talablar qo'yilgan;

-qonuniylik;

-ishonchlilik;

-reklamadan foydalanuvchiga zarar yetkazmaydigan shakllar va vositalardan foydalanish.

Reklama dizaynerining mahorati reklama ma'lumotlarini muayyan g'oya, fikrni ta'sirchan ifodalashning badiiy shaklini izlab topishda namoyon bo'ladi. Reklamadagi badiiy obraz qanchalik qiziqarli bo'lsa, ushbu reklama iste'molchilarning e'tiborini shunchalik tortadi. Reklama yaratishga ijodiy yondashish, badiiy-obrazli va vizual ifodalash, shuningdek milliy an'analarimizga sodiq qolgan holda dizaynerga grafika dizaynida o'zining ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun yetarli asos beradi.

Reklama turlari:

I. Matbuotdagi reklama

- reklama e'lonlari va reklama xususiyatiga ega materiallar:
- reklama e'lonlari;
- reklama maqolalari;
- reklama obzorlari.

II. Bosmadagi reklama

- reklama-katalog nashrlari:
- kataloglar;
- prospektlar;
- bukletlar;
- plakatlar;
- varaqalar.
- yangi yil reklama-sovg'a nashrlari:
- firma taqvimlari;
- cho'ntak taqvimlari;
- tabrik otkritka (gulxat)lari.

III. Audivizual reklama

- reklama kinofilmlari;
- videofilmlar;
- slayd filmlari;
- reklama roliklari.

IV. Radiodagi reklama

- radio e'lonlari;
- radio roliklari;
- radio jurnallar;
- reklama radioeshittirishlari.

V. Televideniyaedagi reklama

- telefilmlar;
- teleroliklar;
- telezastavkalar;
- reklama e'lonlari;
- telereportaj.

VI. Ko'rgazma va yarmarkalar

- xalqaro ko'rgazma va yarmarkalar;
- milliy ko'rgazma va yarmarkalar;
- doimiy ishlaydigan ekspozitsiyalar.

VII. Reklama sovgalari

- firma sovg'a buyumlari;
- turkum sovg'a buyumlari;
- firma qadoqlash materiallari.

VIII. To'g'ridan-to'g'ri pochta reklamasi (direkt meyl)

- maxsus reklama-axborot maktublari;
- maxsus reklama materiallari.

IX. Tashqi reklama

- lavxataxtalar, pannolar;
- reklama transparentlari;
- nurlanu vchi lavxalar;
- elektron tablolar
- firma lavxalari;
- ko'rsatkichlar;
- transportda reklama;
- oynavand vitrinalar;
- do'kon old tomonlarini reklama-axborotli bezash;
- bezakli reklamalarning boshqa turlari.

X. Kompyuterlashgan reklama

- kompyuter texnikasi;
- kompyuterli axborot;
- kabel televideniyesi;
- videokataloglar;
- telekataloglar.

Qachonlardir muzey oddiy va aniq tuzilma hisoblangan. Uning shtat jadvali direktor, muhofizlar va zallardagi kuzatuvchilardan iborat bo'lgan. Ammo davrlar o'zgardi, muzeylarda butunlay yangi xodimlar paydo bo'ldi: buxgalterlar, muhandislar, kotiblar, muzey pedagoglari, ta'mirlash, reklama va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar va hokazolar. Boshqacha so'z bilan aytganda, muzey belgilangan tartib-qoidalarga, standart lavozimlar jadvaliga va vazifalarga ega bo'lgan odatdagi byurokratik tashkilotga aylandi. Muzey endilikda o'z devorlari ichida qolib ketmasdan, o'z hududidan tashqarida ham o'z ta'sirini o'tkazishga, o'z ahamiyatini isbotlashga urinmoqda.

Muzey taraqqiyotining qiyin lahzalarida, masalan, uning ochilishida, rekonstruksiya qilishda, ko'rgazmalar tashkil qilishda, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun marketing va kommunikasiya usullaridan ko'proq foydalanilmoqda. Muzey tadbirlari iloji boricha ko'proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, ular keyinchalik nozikta' b va sadoqatli tomoshabinlarga aylanadi. O'z auditoriyasini kengaytirishga harakat qila turib, muzeylar o'z muassasasining nufuzini mustahkamlashga va sheriklar bilan muntazam aloqalarni o'rnatishga harakat qilishlari kerak.

Reklamada o‘zaro hamjihatlikni amalga oshirish uchun shaxsiy va noshaxsiy kommunikasiya kanallari tizimi mavjud. Birinchi variant shu tufayli samaraliki, bunda ishtirokchilarga shaxsan murojaat qilish va qaytma aloqa o‘rnatish uchun imkoniyat beriladi; ikkinchi variantni kommunikasiyaning asosiy usuli deb hisoblash mumkin, ya’ni bunda u ommaviylik effektiga egadir va jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Ommaviy kommunikasiya asosiy muassasa va ommaviy axborot vositasining hamkorligi bilan belgilanib, u qator asosiy funksiyalarga egadir:

- mafkuraviy va siyosiy ta’sir ko‘rsatish;
- ijtimoiy birlikni qo‘llab-quvvatlash;
- uyushtirish, xabardor qilish, ma’rifat va hordiq.
- Muzey yuqorida zikr etilgan tuzilmaga bevosita tegishlidir: u o‘zi joylashgan joyda madaniy muhitni shakllantirishi mumkin va u shunga xizmat qilishi kerak;
- muzey ishi ijtimoiy o‘zlikni anglashni tarbiyalashga qaratilgan;
- o‘z ko‘rgazmalari va tadbirlari orqali muzey har bir tashrifchiga yuzlanadi, auditoriyaga hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Reklama quyidagi holatlarda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi:

- nufuzni kuchaytirish, yaxshilash
- yangi xizmat paydo bo‘lganda (muzeyda yangi ko‘rgazma, taqdimot yoki dastur) ijobiy ko‘rinishni shakllantirish.
- agar madaniyat xizmatlari bozorida o‘tkaziladigan tadbirning muqobili bo‘lsa, unga iste’molchining e’tiborini tortish qiyin kechadi. Bunda pablisitini shakllantirish vositalari – maxsus voqealar, munozaralar, homiyliklar va g‘ayrioddiy hamkorlik unga qiziqishni qayta uyg‘otishi mumkin.
- iste’molchilar va muzey xodimlarining muloqoti tilini soddalashtirish uchun: yangi xizmat yoki tadbirni murakkab, professional izohlash reklama erisha olmaydigan ko‘p joy va vaqtni talab qiladi. Maqola, intervyu tarixni tushunarli tilda bayon qilish uchun katta imkonga ega bo‘ladi.
- byudjetning cheklanganligi reklama uchun xarajatlarga imkon bermasligi mumkin, ammo maqolani joylashtirishga imkon beradi.
- inqirozli vaziyatga munosabat. Inqiroz davrida reklama vositalari tashkilotning ijobiy mashhurligini, obro‘cini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng tezkor va ishonchli vositadir. Tug‘ilgan qiyinchiliklar bartaraf etilgandan keyingina reklama berish o‘rinlidir.

Reklama – bu yangiliklarni xabar qilishdir. Hamma narsa yangilik bo‘lishi mumkin: muzeyda hayot bir joyda turib qolmaydi, har qanday o‘zgarishlar axborot tarqatish manbai sifatida qarab chiqilishi mumkin. Faqat masala shundaki, u yoki bu axborot kimga qiziqarli bo‘lishi mumkin, qanchalik u dolzarb: ko‘pincha kim uchundir yangilik bo‘lgan narsa boshqaga yangilik emas. Faqat bu xabar kimningdir hayotiga va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsagina, u boshqa shaxslar va tashkilotlar uchun yangilikka aylanadi. Shu sababli muzey haqidagi eng qisqa materialga ham quyidagi mazmundagi fikr singdirilishi kerak: “Bizning yangiligimiz faqat biz uchun muhim emas!”

OAV uchun tayyorlangan material haqida so‘z borganda PRda qabul qilingan axborotni berish shakllarini eslash o‘rinlidir.

Axborot muzeyga nisbatan jamoatchilikning ko'ngildagi xatti-harakatini ta'minlash uchun o'zi haqidagi ijobiy jamoatchilik fikrini yaratish va uni qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U qaysi ommaviy axborot vositasi tarqatishiga qarab auditoriyaga yo'nalganligi bo'yicha farq qiladi.

Odatda matbuot bilan ishlash uchun quyidagilar tuziladi:

- bekgraunderlar – sensasion bo'lmagan joriy kundalik voqelik haqidagi axborot, u faoliyatning yangi yo'nalishlari, kundalik tadbirlar haqida bo'lishi mumkin. Masalan, kutilayotgan taqdimot haqida. Bunday axborotni tashkilotdan chiquvchi uzluksiz yangiliklar oqimini qo'llab-quvvatlash uchun muntazam jo'natib turish kerak.

- press-reviz – keng auditoriya uchun muhim bo'lgan yangilikni yoki foydali ma'lumotni aks ettiruvchi xabar. Masalan, maxsus seminarlar o'tkazish to'g'risida.

- media-kit – fotosuratlar ilova qilingan bir necha xil materiallarni mujassamlashtiruvchi media yoki press-paket.

- shuningdek, qiziqarli va sharhli maqolalar, fakt-varaqalar, bayonotlardan foydalaniladi.

Matbuot uchun mo'ljallangan barcha materiallar PR matnlarini tuzishning umumiy qoidalarga bo'ysunadi. Aniq ifodalangan maqsad va g'oyalardan tashqari chop etishga mo'ljallangan material ma'lum mazmuniy yukni o'z zimmasiga oladi:

- xabar gazetxonlarga aloqador bo'lishi kerak.
- u o'quvchini qiziqtirishi kerak.
- u o'quvchini tashvishga solishi kerak.
- u o'quvchining qiziqishlari doirasida turishi kerak.

Materialni matbuotda e'lon qila turib, axborot xizmati materiallarning monitoringini o'tkazishi, pablisitining keyingi yo'nalishlarini belgilashi, kommunikasiyani ta'minlashi kerak.

Radio va televideniye bilan ishlash turli dasturlar auditoriyasini, janrni tanlashni, translyasiya vaqti va davomiyligini bilishni taqozo etadi. Radio va televideniye nafaqat ommaviy axborot vositasi, balki ular uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish vositasi hamdir. Konferensiyalar va ko'rgazmalarda yopiq yoki ichki teletarmoqlardan foydalaniladi. Ularning yordamida bir yerga to'plangan kishilarga o'tayotgan tadbirni yoritishni to'ldiruvchi reportajni ko'rsatish mumkin.

Radio va televideniya da beriladigan material ko'pincha reklama xarakteriga ega bo'lganligi uchun unga pul to'lash talab qilinadi, bunda shartnomalar tizimidan foydalanishga harakat qiling. Muzeylar boshqa madaniyat muassasalari taqdim qila olmaydigan ayrim xizmatlarni ko'rsatish layoqatiga egadirlar. OAVlar esa o'z eshittirishlari jonli va original xarakterda bo'lishidan manfaatdordirlar, bunga birinchi manbalarga kirib borish orqali erishiladi. Masalan, Tolyatti televideniyesi bolalar uchun "Teleteremok" ko'rsatuvlar turkumini tayyorlashda shahar o'lkashunoslik muzeyiga uning ekspozitsiyalarini suratga olishga ruxsat berishni so'rab murojaat qildi. Bundan hamma yutdi: muzey har hafta o'zini reklama qilish imkoniga ega bo'ldi; televideniye original ish shakliga va qiziqarli materialga ega bo'ldi; bolalar va ularning ota-onalari muzeyning tarixiy sahifalaridan olingan ishonchli bilimga va axborotga ega bo'lishdi.

Yangi texnologiyalar turmushga kirib kelayotgan sharoitda axborot bo'shlig'ida qolishni istamagan muzey kommunikasiyaning yangi usullarini hisobga olishi kerak: Internet va unga o'xshash kommunikasion kompyuter tarmoqlari nazarda tutilmoqda. Bu tarmoq mohiyatan yangi axborot makonini yaratadi, bunda kishilar:

- soniyalar ichida bir vaqtning o'zida minglab odamlar bilan xat almashishi;
- uzoqdagi kompyuterning ma'lumotlar xazinasiga kirishi va bu ma'lumotlarni olishi;
- bahslashuv varaqasiga yozilishi va turli masalalarni muhokama qilishda, jumladan interfaol usulda, qatnashishi;
- aniq mavzu bo'yicha muntazam asosda yangiliklarni, press-relizlarni olishi mumkin.

Muzey Internetda o'z veb-sahifasiga ega bo'lishi, uni davriy ravishda yangilab borishi mumkin. Bunday sahifaga ega bo'lgan muzey o'z kompyuter foydalanuvchilarini faoliyatning joriy va istiqbolli yo'nalishlari haqida xabardor qilishi, bo'lajak tadbirlar anonsini jo'natishi mumkin; muzey telekonferensiyalarda ishtirok eta turib, o'z professional imijini qo'llab-quvvatlaydi va xizmatlarini reklama qiladi.

Professional guruhlarni, nyuz-grupp va bahslashuv jarayonlarining asoschilari bo'lmish ko'p ming sonli xalqaro jamoatchilikni xabardor qilish, bu guruhlarda g'oyalarni va manfaatlarni ilgari surish uchun Internetdan foydalanish PRni eng istiqbolli va qudratli vositaga aylantirdi. Butun dunyoda foydalanuvchilar auditoriyasi sonining o'sishi Internetni global ommaviy axborot vositasiga aylantirmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda pablisiti muzeyning PR xizmati faoliyatidagi eng o'rinli shakldir. Chunki OAVlar hamisha doimo axborotga ochlikni his qiladi, shu sababli muzeylar OAVga madaniyat uchun berilgan joyni barcha maqbul vositalari bilan to'ldirishlari mumkin va shunday qilishlari kerak. Bu umuman olganda muzey o'zining ijobiy nufuzini, imijini boshqalar hisobidan yaratishni anglatmaydi; muzey boshqalarga ham o'z imijini yaratishga, kommunikasiyani amalga oshirishga yordam beradi (bu qo'shma ko'rgazmalar yoki dasturlar loyihalari bo'lishi mumkin). Muzey PRLarida albatta madaniyat sohasiga daxldor bo'lmagan boshqa tashkilotlar va muassasalar ham qatnashishlari mumkin. Muzeylar, muzey komplekslari butun shahar hayotiga ta'sir ko'rsatgan holatlar juda ko'p.

Muzey OAVga qancha ko'p murojaat qilsa, OAVda bunday ishonchli manbadan axborot olish istagi shuncha ko'p bo'ladi. Agar muzey axborotining keng omma uchun to'liq yetib bormasligi muammosini esga oladigan bo'lsak, OAVlar bu muammoni hal qilishga yordam berishlari mumkin: reportyorlarning o'zlari o'ziga xos muammolarni tomoshabinlarga va tinglovchilarga tushunarli tilda izohlab berishga tayyordirlar.

Quruq zerikarli matndan qochish uchun uni axborot mo'ljallangan auditoriyaga moslashtirish kerak. Yangiliklarni shirali tilda, mantiqiy aniq shaklda berish kerak. O'z fikrini aniq va asosli ifodalay oluvchi shaxs katta muvaffaqiyatga erishadi.

Madaniyat sohasida yuzlab qiziqarli yangiliklar bo'lishiga qaramasdan muzey axborot o'quvchi uchun eng foydali bo'lib ko'rinishi kerak. Yangilikning global tusda bo'lishi shart emas, ba'zan hamma narsaga mahalliy nuqtai nazardan qarash foydalidir.

Kommunikasiya – ikki tomonlama jarayondir: iste'molchilar talabi muzey taklifini keltirib chiqaradi, muzey yangiliklari kishilarni o'rab turgan hayotga ta'sir ko'rsatadi.

Axborotni qisqa, lo'nda berishga o'rganish kerak. Odatda eng zo'r yangilikni ifodalash muddati 2 daqiqadan oshmaydi, 30-40 soniya eng maqbul hisoblanadi. Har qanday xabar, u eng kichik bo'lsa ham, o'zida dinamizm va informativlikni tashishi kerak, shunda muzey uchun muayyan darajada pablisiti ta'minlanadi.

Tashrif buyuruvchilar e'tiborini jalb qilish uchun yangiliklardan tashqari muzey maxsus voqealarni tashkil qilishi mumkin. Maxsus voqea muzey va uning atrofidagi zerikarli va ko'nikilgan hayot maromini buzishi, jamoatchilik uchun voqeaga aylanishi kerak. Quyidagilar PR vakolatiga kiruvchi tashkil qilinuvchi maxsus voqealarga kiradi: taqdimotlar, ochilish marosimlari, ochiq eshiklar kunlari, qabul marosimlari, konferensiyalar, davra suhbatlari. Taklif qilinuvchilar tarkibi rangbarang bo'lishi mumkin – mashhur siyosatchilardan tortib sport yulduzlarigacha, shou-biznes vakillarigacha; OAVlar va keng jamoatchilik ham ishtirok etadi. Maxsus voqea – olingan taassurotlarni bevosita ifodalash, erkin fikr almashish, yangi sheriklik aloqalarini o'rnatish, kommunikasiya va bir vaqtning o'zida reklama qilish imkoniyatidir.

Muzey imijni muvaffaqiyatli shakllantirish vositasidir, kalitidir. Muzey uchun imij nimani anglatadi? Bu har kunlik ish, jamoatchilik ongida aks-sado bergan g'ayrioddiy, yorqin tadbirlar, bu OAVning axborot ta'minoti va o'z fuqarolik nuqtai nazari; bu taklif qilinadigan xizmatlarning sifati va yuqori darajasi demakdir. Muzey pul ifodasidagi foydadan tashqari muzey muhitini va uning imijini shakllantirishda ishtirok etuvchi tashrifchilardan ma'naviy foyda ham oladi, muvaffaqiyatga erishilganda ular muzeyning ko'ngilli reklama agentlari, do'stlari va sheriklariga aylanadilar.

Agar qandaydir vaziyatda bevosita daromadlar hamda muzeyning nufuzini va mashhurligini oshirishni tanlashga to'g'ri kelsa, bunda albatta hamisha ikkinchisini tanlash to'g'ri bo'ladi, chunki bu muzey ega bo'lgan bosh sarmoyadir.

Reklama qancha yuqori bo'lmasin u sifatsiz xizmatdan olingan taassurotni silliqalay olmaydi. Muzey muhiti, uning ichki tuzilishi, uni o'rovchi muhit ham muzeyning ijobiy imijini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli muzey eng sifatli narsalarni taqdim qilishi kerak. Bayon qilingan imtiyozlar amaliy ishlarda o'z aksini topishiga harakat qilish kerak.

Imij – bu abadiy narsa emas, uni qaytadan hosil qilish yoki o'zgartirish mumkin. Muzeyning imijini nafaqat u haqdagi ijobiy baholar yoki aniq harakat dasturlari, balki muzey mahsulotlarida aks etadigan firma stili, "savdo markasi" ham hosil qiladi. Mahorat bilan tayyorlangan muzey nashrlari, videofilmlar va zamonaviy axborot texnologiyalarining boshqa yutuqlari bir vaqtning o'zida reklama mahsulot va muzeyning "tashrif varaqasi" hisoblanadi. Firma stili uni osonlik bilan bilib olishga, uning o'ziga xos imiji nafaqat muzeyda bo'lganlar uchun,

balki, uning tadbirlarida, ko'chma ko'rgazmalarida ishtirok etganlar uchun ham tushunarli bo'lishga yordam beradi.

Taqdimot vositasi mahsulotning tarkibiy qismi bo'lgan muzeyda reklama juda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat tashrif buyurishning bevosita rag'batchisi sifatida taassurotlarni shakllantirish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Muzey imijini shakllantirishga yordam beradigan uzoq muddatlik muzey reklamasi effekti bir lahzalik muvaffaqiyatga nisbatan muhim hisoblanadi. Reklamaga qo'l uchida kirishib bo'lmaydi, uni professional darajada batafsil ishlab chiqish, muzey uchun yagona stilni yaratish kerak. Hech qachon bu ishga xasislik qilmaslik lozim.

Reklama – bu faqat muzey ishi haqidagi axborot aks etgan ko'chma taxtalar emas. Muzey do'konidan sotib olingan katalog, sovg'a, videofilm, hatto ular o'ralgan sellofan paket reklama qilish rolini bajarishi mumkin. Muzeydan tashqariga chiqqanda bu emblematik nomalar muhim ishni qiladi – ularni sotib olgan kishiga uning muzeyga tashrif buyurganligini eslatib turadi, yo'lda duch kelgan har bir kishiga esa muzeyning mavjudligini eslatadi.

Muzey o'zining potensial auditoriyasini doimo kengaytirishi mumkin, hozirgi dunyoda bilimlarni tarqatish uchun chegaralar mavjud emas. Televideniye, video, elektron kataloglar va boshqa kommunikasion texnologiyalar muzeyga jo'g'rofiy to'siqlarni aylanib o'tgan holda, o'z iste'molchilarini topishga imkon beradi.

VII. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil malaka oshirish boyicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo‘yidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- ta‘lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv rejalari va fanlar dasturlarini shakllantirish;
- o‘quv mashg‘ulotlarining har xil turlari (ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar)ni tashkillashtirish;
- talabalar o‘rtasida milliy mustaqillik g‘oyalari asosida ma‘naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta‘lim jarayoni qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta‘minlash, iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo‘llash;
- oliy ta‘limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.
- mustaqil ta‘lim olish yo‘li bilan o‘z bilimlarini takomillashtirish.

Mustaqil ta‘lim mavzulari:

VIII. GLOSSARIYLAR

GLOSSARIY				
Muzeyshunoslik				
t/r	Ingliz	O'zbek	Rus	Ma'nosi
1.		Anketa so'rovnomasi		tomoshabinlarni muzey haqidagi fikrini bilish uchun tayyorlangan so'roq varaqasi. Muzeyshunoslikda anketa so'rovnomasini olib borish ilmiy tatqiqot ishlaridan hisoblanadi.
2.	Band	Ansambli	Ansambli	tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).binolarning badiiy shakl va uslub jihatdan bir-biriga uyg'un ko'rinishi.
3.	Archives	Arxiv	Arxiv	hujjatlar saqlanadigan muassasa. Har bir muzeyning shaxsiy arxivi bo'lib, ular ilmiy yordamchi bo'lim hisoblanadi. U yerda muzey hujjatlari, hisobotlar, uslubiyat kengashining qarorlari, taklif va mulohazalar kitoblari va shunga o'xshash hujjatlar saqlanadi.
4.	The archaeologist	Arxeolog	Arxeolog	tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan tadqiqotchi.
5.	National catalog of archaeological objects	Arxeologiya ashyolari davlat katalogi	Gosudarstvenniy katalog arxeologicheskix predmetov	har bir arxeologiya ashyosi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjati.
6.	Archaeological objects	Arxeologiya ashyosi	Arxeologicheskii predmet	arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xo'jalik va o'zgacha faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek tasodifan topilgan (xazina) va identifikasiyalashdan o'tkazilgan moddiy qoldiq.
7.	Archaeological Site	Arxeologiya yodgorligi	Arxeologicheskii pamyatnik	Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan arxeologiya obyekti.
8.	The objects of the archaeological heritage	Arxeologiya merosi obyektlari	Obyekti arxeologicheskogo naslediya	arxeologiya obyektlari va arxeologiya ashyolari majmui.
9.	Archaeological supervision	Arxeologiya nazorati	Arxeologicheskii nadzor	arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obyektini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan va arxeologiya obyekti hududining chegaralarida yer qazish, yer tuzish, qurilish, meliorasiya, xo'jalik, yo'lsozlik ishlarini va boshqa ishlarni bajarishda madaniy meros obyektlarini saqlash talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatiladigan turi.
10.	The archaeological site	Arxeologiya obyekti	Arxeologicheskii obyekt	inson faoliyatining barcha ko'rinishlariga taalluqli hamda saqlanish holatidan qat'i nazar arxeologik, antropologik, etnografik qimmatga yoki o'zga tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy qimmatga ega bo'lgan joy, inshoot (asar), imorat, majmua (ansambli), ularning bo'laklari, ular bilan bog'liq hududlar.
11.	Archaeological research	Arxeologiya tadqiqoti	Arxeologicheskoye isledovaniye	arxeologiya obyektlari, arxeologiya yodgorliklari va arxeologiya ashyolarini o'rganish orqali yangi bilimlarni egallash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat.
12.	Archaeological excavations	Arxeologiya qazishmalari	Arxeologicheskoye raskopki	arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obyektida qazishma ishlarini qo'llagan holda madaniy qatlamlar, me'moriy va

				boshqa moddiy qoldiqlarni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan turi.
13.	Archaeological reconnaissance	Arxeologiya qidiruvlari	Arxeologicheskaya razvedka	arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obyekti madaniy qatlamining yemirilishi bilan bog'liq bo'lmagan (madaniy qatlam qalinligini aniqlash uchun cheklangan qazishmadan tashqari) va arxeologiya obyektni aniqlash, xaritalashtirish, uning chegaralarini belgilash, izohlash, tekshirish shuningdek, ilgari aniqlangan arxeologiya obyekti to'g'risida zamonaviy ma'lumotlarni olish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.
14.	Attribution	Atribusiya	Atribusiya	badiiy asarning asilligini, muallifini, yaratilgan joyi, vaqtini aniqlash. Atribusiya muzey ishining eng muhim sohalaridan biridir.
15.	Audio materials	Audiomateriallar	Audiomateriali	fonoyozuvlar, fonosharhlar (qo'shiqchi, shoir, yozuvchi, tarixiy shaxslarning musiqali va hujjatli ovozli yozuvlari; qushlar va hayvonlarning tovushlari, turli tabiiy shovqinlar).
16.	Art Museum	Badiiy muzey	Xudojestvenniy muzey	tasviriy va amaliy san'at hamda me'moriy yodgorliklarni yig'ish, ko'rgazma qilish, saqlash va ommalashtirish bilan shug'illanuvchi ilmiy, ma'rifiy, tadqiqot muassasasi hisoblanadi.
17.	Biennale	Biyennale	Biyennale	ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma.
18.	Biogroups	Bioguruh	Biograppa	o'simlik yoki hayvonlar obyektidan iborat ekspozitsion (kompleks) majmua.
19.	Brief	Brif	Brif	ekspozitsiya ochilishigacha bo'lgan jarayonni tashkillashtiruvchi, yo'naltiruvchi loyiha-rejadir.
20.	Temporary exhibition	Vaqtinchalik ekspozitsiya	Vremennaya ekspozitsiya	ko'chmas va ko'chma ko'rgazmalarga bo'linadi. Ko'rgazmalarning asosiy uch turi bor: tematik ko'rgazma, fond ko'rgazma va hisobot ko'rgazma.
21.	Virtual museum	Virtual muzey	Virtualniy muzey	"Virtual" dastlab "virtus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tasavvur" degan ma'noni anglatadi. Virtual muzey – bu muzey qonunlari asosida loyihalashtirilgan makonda muzey ashyolarining joylashtirilishidir.
22.	Showcase	Vitrina	Vitrina	san'at asarlari qo'yilgan oynavand javon, quti.
23.	Gallery	Galereya	Galereya	(fran. galerie) o'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklariga aytilgan.
24.	Hologram	Gologramma	Gologramma	bu predmetning hajmdor optik nusxasini yaratuvchi, oxirgi o'n yilliklarda muzey sferasida keng tarqalgan uslubdir. U predmet tasvirini yoruklikka sezuvchan plastina yoki lazer texnikasi yordamida yaratadi. Yorug'lik uyuni ta'siri ostida natural kattalikdagi tasvir paydo bo'ladi. Golografiya texnikasi yordamida predmetlarni turli xajmda tasvirlash mumkin.
25.	State directory	Davlat katalogi	Gosudarstvenniy katalog	milliy muzey fond tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjatidir.
26.	Diaksatsiya	Diaksasiya	Diaksasiya	muzey ahamiyatiga ega bo'lmagan yoki muzey yo'nalishiga javob bermaydigan eksponatlarni sotish. Dastlabki diaksasiya amaliyoti Gugenxeym muzeyi, Nyu-Yorkdagi Zamonaviy san'at muzeyi, Baltimor san'at muzeyi, Chikago badiiy muzeylarida amalga oshirilgan.
27.	Diorama	Diorama	Diorama	Dioramadagi (grekchadan dia – orqali, ichidan, horama - ko'rinish) tasvir faqat oyna ortidan tomosha qilinadi (uch tomonlama, alkovli deb nomlangan dioramalar bundan mustasno). U gorizontning faqat bir qismini qamrab oladi va yarim aylana yoki to'g'ri burchak shaklidagi xonaga devorda joylashishi mumkin. Dioramalar, panoramaga o'xshab juda ko'p maydonni egallamaganligi bois, tabiiy-ilmiy muzeylarda unga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.
28.	Showplace	Diqqatga sazovor joylar	Dostoprimechatelnoye mesto	inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar

				yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.
29.	Monuments	Yodgorliklar	Pamyatniki	tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.
30.	Live exhibition	Jonli ekspozisiya	Jivaya ekspozisiya	bunda ekspozisiya asosini nomoddiy ma'daniy meros obyektlari tashkil etadi. Jonli ekspozisiyada urf-odatlar, folklor, hunarmandchilikning ishlab chiqarish jarayoni (master-klass) ko'rsatilganligi uchun ko'proq etnografiya muzeylari uchun xosdir.
31.	Inventory book	Inventar kitob	Inventarnaya kniga	(ilmiy ro'yxatdan o'tkazish kitobi) olingan manbalarni ashyolar va kolleksiyalarning xillari va san'at turlariga qarab turkumlashiriladi, ularni aniqlab, kitobda kengaytirilgan va aniq tavsiflar bilan aks ettiriladi.
32.	Inventory	Inventarizasiya	Inventarizasiya	muzeydagi barcha eksponatlarni hisobga olish, hamda bor-yo'qligini tekshirishdir. Inventarizasiya davlat mulkini qo'riqlashni, ularni sifatli asrashni, hisobga olish bo'limidagi hisobotni to'g'ri olib borishni nazorat qiladi. Inventarizasiya to'liq yoki qisman, rejali yoki to'satdan o'tkaziladi.
33.	Installation	Instalyasiya	Instalyasiya	modernistik san'at asari bo'lib, faktura sifatida turli xil maishiy buyumlardan foydalaniladi. Muзей instolyasiyasi ekspozisiyada badiiy obraz yaratadi.
34.	Cabinet	Kabinet	Kabinet	dastlab hujjatlar, taqinchoqlar, qimmatbaho buyumlarni saqlash juda qulay bo'lgan tortmali qutilar va kichik javonlarga nisbatan ishlatilgan. Bunday konstruksiyada antik tangalar, gemmalar, zargarlik buyumlarini saqlash qulay bo'lganligi uchun kolleksionerlarni o'ziga jalb qilgan. Keyinchalik ushbu mebel bilan jihozlangan xonalar ham kabinet deb atalgan (Nemis tilida "kabinet" so'ziga sinonim bo'lib, "kamera" so'zi ishlatiladi).
35.	File	Kartoteka	Kartoteka	har bitta bo'limga tegishli bo'lgan eksponat haqida ma'lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi. Bu kartotekalar muzeyning kundalik ishida muhim o'rin tutadi. Ular o'ziga xos ma'lumotnomachi vazifasini o'taydi. Muzeyda saqlanadigan ashyolarni hisobga olish va o'rganish ishini osonlashtirishga yordam beradi.
36.	Catalog	Katalog	Katalog	asarlari va mualliflari to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan kitob.
37.	Receipt book	Kirim kitobi	Kniga postupleniya	(KP) muzeyning bosh hisobga olish kitobi hisoblanadi. Muzeyga keltirilgan har bir eksponat qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida darhol dastlabki kirim kitobiga qayd

				qilinadi. Muzeyga kelib tushgan eksponatlarni kirim kitobiga kechiktirmasdan 2 kun ichida qayd qilinishi shart.
38.	Collection	Kolleksiya	Kolleksiya	san'at asarlari, ilmiy, badiiy, tarixiy yoki boshqa ahamiyatga ega bo'lgan va ma'lum tartibda saqlanadigan bir xil buyumlar majmui.
39.	Integrated Components	Kompleks koplektlash	Kompleksnaya koplektasiya	muзей ahamiyatiga ega bo'lgan ashyolarni sistemali va tematik to'plash vazifalarini bajaradi.
40.	Conservation	Konservasiya	Konservasiya	san'at asarlari, arxeologik materiallar, arxiv hujjatlari va boshqa narsalarni uzoq vaqt yaxshi saqlash tadbiri. Buning uchun harorat, havoning namligi doimo bir xil, yorug'lik va ventilyasiya bir meyorda bo'lishi, chang va hashoratlar kirishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Konservasiya muzeydagi ta'mirlash ishlari bilan uzviy bog'liqdir.
41.	Curiosities	Kunstkamera	Kunstkamera	(nem. <i>Kunstammer</i>) tabiatning noyob buyumlari, san'at asarlari saqlanadigan xona.
42.	Copy	Nusxa (kopiya)	Kopiya	asl ashyoni takrorlash yoki uning o'rinini to'ldirish maqsadida yaratiladi. Nusxa ikki turga bo'linadi. 1. Muзей ashyosini xuddi asliday takrorlaydi, bu esa nusxa ko'chirishning maqsad va vazifalari nuqtai-nazaridan muhimdir. Ushbu nusxa ko'rinishi ilmiy-ko'makchi fond tarkibiga kiradi, lekin asl ashyo yo'qolganda muзей ahamiyatiga ega bo'ladi. 2. Tasviriy san'at asarini muallif yoki boshqa rassom tomonidan takroran ishlanishi. Agar nusxani muallif ishlasa "muallif takroni" yoki "replika" deb ataladi. Nusxa aslidan texnikasi yoki hajmi bilan farq qilishi mumkin, lekin usuli va kompozitsiyasini aniq takrorlashi lozim.
43.	landscape exhibition	Landshaftli ekspozitsiya	Landshaftnaya ekspozitsiya	landshaftli dioramalar va ayrim turdagi bioguruhlar yordamida "tabiat ansambli"ni asl holicha yaratish.
44.	Cultural values	Madaniy boyliklar	Kulturniye sennosti	moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'chma ashyolari.
45.	Export of cultural values	Madaniy boyliklarning olib chiqilishi	Vivoz kulturnix sennostey	madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o'tish.
46.	Import of cultural values	Madaniy boyliklarning olib kirilishi	Vvoz kulturnix sennostey	madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o'tish.
47.	Temporary export of cultural values	Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi	Vremenniy vivoz kulturnix sennostey	madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni shartlashib qo'yilgan muddatda qaytarib olib kirish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish.
48.	Cultural heritage	Madaniy meros	Kulturnoye naslediye	avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.
49.	Objects of the Intangible Cultural Heritage	Madaniy meros obyektlari (nomoddiy)	Obyekti nematerialnogo kulturnogo naslediya	tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.
50.	Objects of cultural heritage	Madaniy meros obyektlari (moddiy)	Obyekti materialnogo kulturnogo naslediya	tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.
51.	Maecenas	Mesenat	Mesenat	san'at homiysi. Qadimgi Rim davlatida imperator Avgust davrida yashagan Mesenat ismli badavlat shaxs nomidan olingan bu atama san'atga homiylik qiladigan odam ma'nosida kirgan.
52.	Temporary importation of cultural values	Madaniy boyliklarning	Vremenniy vvoz kulturnix sennostey	madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni shartlashib qo'yilgan muddatda qaytarib olib chiqish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish.

		vaqtincha olib kirilishi		
53.	National Museum Fund	Milliy muzey fondi	Nasionalniy muzeyniy fond	O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui
54.	State catalog of the National Museum Fund	Milliy muzey fondining Davlat katalogi	Gosudarstvenniy katalog Nasionalnogo muzeynogo fonda	Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan hisobga olish hujjati.
55.	Museum	Muzey	Muzey	(yunon. museion- muzalarga bag'ishlangan joy) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi.
56.	Museography	Muzeografiya	Muzeografiya	(lot. grapho – yozmoq) muzeyni yaxlitligicha yoki biror bir yo'nalishini tavsiflovchi nashr korpusi. U yoki bu nashr muzeografik turning mezoniga ta'luqligi undagi muzey haqidagi mavjud ma'lumotlar tavsifiga bog'liq. Muzeografiya nashrlariga: yo'lko'rsatkich, ma'lumotnomalar, hisobotlar va boshqalar kiradi.
57.	Museology	Muzeyshunoslik	Muzeyvedeniye	(muzeologiya) muzeylarning tarixi va ijtimoiy vazifalari, muzey ishining nazariyasi va uslubiyati.
58.	Waxwork	Mulyajlar	Mulyaj	asl nusxaning xajmini, shaklini, rangini va fakturasini aniq qilib takrorlaydi. Ular asl nusxani aniq o'lchamlari, ba'zida esa chizmatasvirlari bo'yicha tiklanadi.
59.	Museum items	Muzey ashyosi	Muzeyniy predmet	sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy boylik.
60.	The museum store	Muzey zahiraxonasi	Muzeynoye xranilish	muzey ashyolarini saqlash uchun maxsus jihozlangan xona.
61.	The museum collection	Muzey kolleksiyasi	Muzeynaya kolleksiya	o'z kelib chiqish xususiyati yoki shaklan yaqinligi tufayli yoxud boshqa belgilari bo'yicha birlashtirilgandagina muzey ashyosi xususiyatiga ega bo'ladigan madaniy boyliklar majmui
62.	Museum communication	Muzey kommunikasiyasi	Muzeynaya kommunikasiya	muzey va jamiyat o'rtasidagi informatsiya berish va informatsiyani qabul qilish jarayoni. "Muzey kommunikasiyasi" tushunchasini kanadalik muzeyshunos D.F.Kameron tomonidan 1968 yilda ilmiy muomilaga kiritgan.
63.	Museum madrassas	Muzey-madrasa	Muzey-medrese	ayrim diniy yodgorliklarni muzeylashtirish asosida tashkil etilgan badiiy-me'moriy muzey.
64.	Museum marketing	Muzey marketingi	Muzeyniy marketing	nodavlat tashkilotlar, mesenatlar, xomiyalar, jamoat fondlari, xususiy firmalar yordamidan foydalanishni yo'lga qo'yish hamda qonun doirasida qo'shimcha mablag' va manbaalarini topish uchun muzey imkoniyatlaridan keng foydalanish.
65.	Museum- Reserve	Muzey- qo'riqxon	Muzey-zapovednik	yuridik huquqiy daraja bo'lib, muzeyga davlat organlarining qaroriga muvofiq beriladi. Bu tarixiy-madaniy va tabiat muhitining bir bo'lagini saqlovchi ochiq osmon ostidagi muzey nomi bilan bog'liq.
66.	Palace Museum	Muzey-saroy	Muzey-dvores	shahar yoki shahar tashqarisida yaratilgan saroy ansambli asosida tashkil etilgan tarixiy-badiiy muzey. Bunda me'moriy-badiiy va dekorativ ansamblni butunligicha saqlash va qayta tiklash muhim o'rinni egallaydi.
67.	House-Museum	Uy-muzey	Dom-muzey	madaniyat, davlat yoki jamoat arbobi, tarixiy shaxsga bag'ishlangan bo'lib, shu shaxs yashagan uy asosida tashkil etilgan memorial muzey.
68.	Museum management	Muzey menejmenti	Muzeyniy menejment	muzey muassasalarini rivojlantirish, ular oldida turgan vazifalarni bajarish, yangi loyihalar va rejalarni ham tashkiliy, ham moliyaviy jihatdan ta'minlanishi uchun zamonaviy tadbir, chora va uslublarni qo'llash amaliyoti.
69.	Museum Education	Muzey pedagogikasi	Muzeynaya pedagogika	bu pedagogika fanining tarmog'idir. U muzey auditoriyasini o'rganib turli yoshdagi tomoshabinlar guruhi va ularning turli ijtimoiy talablarini, ekspozitsiyaning o'ziga xos qabul qilishini tahlil qiladi va shunga qarab ayrim hollarda ekspozitsiyaga o'zgartirish kiritadi. Turli toifadagi tomoshabinlar bilan ishlashda yangi dastur va metodikalar ishlab chiqadi.

70.	Museum sociology	Muzey sosiologiyasi	Muzeynaya sosiologiya	sosiologiyaning alohida sohasidir. U muzey auditoriyasining ma'naviy talablari, qiziqishlari va muzey faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganadi. Dastlab muzeylarda sosiologik tadqiqotlar 1920 yillarning o'rtalarida o'tkazilgan.
71.	Technology Museum	Muzey texnologiyasi	Muzeynaya texnologiya	muzey ishida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ekspozitsiya-ko'rgazma, hisobga olish va fond ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati (informasiya texnologiyasi) va muzey boshqaruvining takomillashishiga (menejment texnologiyasi), madaniy-ta'limiy faoliyatni amalga oshirishga (marketing texnologiyasi), notijorat loyihalarni amalga oshirish uchun qonun doirasi qo'shimcha resurslarni jalb etish (fandrayzing) va boshqalarga erishish mumkin.
72.	Museum equipment	Muzey to'plami	Muzeynaya komplektasiya	barcha muzey kolleksiyasiga aytiladi. Muzey kolleksiyasiga nafaqat ilmiy tashkillashtirilgan barcha muzey predmetlari balki ilmiy yordamchi materiallar hamda muzeyda saqlanadigan turli ilmiy axborot bilan ta'minlovchi vositalar, qisman arxiv va kutubxonalar kiradi.
73.	Museum Visitors	Muzey tashrifchilari	Muzeyniye posetiteli	zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ko'ra muzey tashrifchilari uch turga bo'linadi: 1. Faktik tashrifchilar – muzeyga kelgan tashrifchilar. 2. Potensial tashrifchilar – muzeyga jalb qilinmoqchi bo'lgan tashrifchilar. 3. Virtual tashrifchilar – Internet yoki pochta orqali muzey faoliyati va eksponatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'layotgan tashrifchilar.
74.	Museum fundraising	Muzey fandrayzingi	Muzeyniy fandrayzing	bu notijorat loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilish ishining majmuidir. 1970 yillarda xorijiy muzeylar orasida ushbu termin paydo bo'lgan.
75.	The museum fund	Muzey fondi	Muzeyniy fond	muzey tomonidan doimiy saklash uchun kabul kilingan barcha ilmiy tashkillashtirilgan materiallarga aytiladi. Shu bilan birga ular nafakat fond zaxiralari balki ekspozitsiyada, ta'mirlashda yoki tashkilotlarga berilgan bo'lishi mumkin.
76.	Museography	Muzeografiya	Muzeografiya	(lot. grapho – yozmoq) muzeyni yaxlitligicha yoki biror bir yo'nalishini tavsiflovchi nashr korpusi. U yoki bu nashr muzeografik turning mezoniga ta'luqligi undagi muzey haqidagi mavjud ma'lumotlar tavsifiga bog'liq. Muzeografiya nashrlariga: yo'lko'rsatkich, ma'lumotnomalar, hisobotlar va boshqalar kiradi.
77.	Waxwork	Mulyajlar	Mulyaj	asl nusxaning xajmini, shaklini, rangini va fakturasini aniq qilib takrorlaydi. Ular asl nusxani aniq o'lchamlari, ba'zida esa chizmatasvirlari bo'yicha tiklanadi.
78.	The keeper	Muhofiz	Xranitel	muzeyning bosh muhofizi (fond mudiri) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish, saqlash, muhofazalash va ta'mirlash ishlariga bevosita yoki bo'lim mudirlari orqali rahbarlik qiladi hamda zahiraxonalarga shaxslarni kiritish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan foydalanishda belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilish, kalit xo'jaligini yurgazish ishlarini nazorat qiladi.
79.	Replica	Novodel	Novodel	vaqt ta'sirida eskirgan, yo'qolgan moddiy madaniyat yodgorligini saqlab qolingan bo'laklari yoki yozma ma'lumotlar asosida asl ashyoning materialida va hajmida ishlangan aniq nusxa.
80.	Copy	Nusxa	Kopiya	asl ashyoni takrorlash yoki almashtirish maqsadida yaratiladi. Nusxa ko'chirish ikki turga bo'linadi. Birinchisi, muzey ashyosini xuddi asliday takrorlaydi. Bu esa nusxa ko'chirishning maqsad va vazifalari nuqtai-nazaridan muhimdir. Ushbu ashyo nusxasi ilmiy-ko'makchi fond tarkibiga kiradi, lekin asl ashyo yo'qolganda muzey ahamiyatiga ega bo'ladi. Ikkinchisi, tasviriy san'at asarini muallif yoki boshqa rassom tomonidan takroran ishlanishidir. Agar muallif o'z ishidan nusxa ko'chirsa "muallif takrori" yoki "replika" deb ataladi. Nusxa asl ashyodan texnikasi, hajmi va ikkinchi darajali detallari bilan

				farq qilishi mumkin, lekin usuli va kompozitsiyasini aniqlash takrorlashi lozim.
81.	Panorama	Panorama	Panorama	(grekchadan rap- hammasi va horama- ko'rinish) – katta hajmdagi tasmasimon kartina bo'lib, silindrik shakldagi podramnining ichki tomoniga tortilgan polotnogo chiziladi. Undagi tasvirlar birinchi planga qo'yilgan predmetli plan- ya'ni maketlar, inshoatlar, figuralar bilan uyg'unlashtiriladi. Panorama o'zining markazidagi maydonchadan tomosha qilinadi va tomoshabin o'zini xuddi tasvirlanayotgan muhitning ichida turgandek his qiladi. Birinchi panorama 1787 yili Irland rassomi R.Barker tomonidan yaratilgan bo'lib, Edinburg shahrining aylana tasvirini aks ettirgan.
82.	Paramuzey	Paramuzey	Paramuzey	(xorijiy muzeylarda) tarixiy voqea va hodisalarni tasvirlash uchun maxsus yaratilgan muzey ashyolarining nusxalari: mum haykallar, san'at asarlarining yuqori sifatli reproduksiyalari, ashyolar kompleksi, novodellar va boshqa ashyolarni saqlovchi va ekspozitsiyada namoyish etuvchi muzey tipidagi muassasa.
83.	Pinakotek	Pinakoteka	Pinakoteka	Qadimgi greklar o'zlarining mashhur rang-tasvir asarlari (pinaki – mum bo'yoqlarda yog'och yoki terakkota doskalariga ishlangan asar) joylashtirilgan xonalarni shunday deb atashgan. Shulardan eng mashhuri Afinadagi Akropolda joylashgan.
84.	Valorization	Revalorizasiya	Revalorizasiya	(lot. re – qo'shimcha, takroriy harakat ma'nosida va fran. valoris – ahamiyat) vaqt yoki boshqa yemiruchi omillar ta'sirida o'z ahamiyatini yo'qotgan tarixiy-madaniy obyektlarni qayta tiklash. Bunda obyektning ham fizik holati, ham ijtimoiy ahamiyatining tiklanishi nazarda tutiladi. O'ta ahamiyatli obyektlarni revalorizatsiyasi ularni muzeylashtirish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.
85.	Replica	Replika	Replika	san'at asarini muallif yoki boshqa rassom tomonidan takroran ishlanishi.
86.	Reproduction	Reproduksiya	Reproduksiya	turli tasvirlar, rasm, chizma, fotosuratlar, hujjat va boshqalarning nusxasini fotografiya yoki poligrafia usulida ko'chirish va ko'paytirish.
87.	Keep	Saqlash	Xranit	muzeyning muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi but saqlanishini ta'minlash uchun moddiy va huquqiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutuvchi faoliyat turi.
88.	Studiolo	Studiola	Studiola	antik davrda faqat kutubxonalar shunday nomlangan bo'lsa, XV asrga kelib, barcha noyob buyumlar to'plamiga nisbatan ham qo'llanilgan.
89.	Restoration	Ta'mirlash	Restavratsiya	san'at asarlarini uchgan, singan, buzilgan qismini tiklab, asl holiga keltirish.
90.	Taxidermy	Taksidermiya	Taksidermiya	hayvonlarni terisiga maxsus ishlov berish orqali tulumlarni tayyorlash. Asoschisi Charlz Uilson Pil.
91.	The specialized exhibit plan	Tematik ekspozitsion reja (TER)	Tematiko-ekspozitsionniy plan (TEP)	ko'rgazmani namoyish qilish uchun ishlatiladigan barcha jihozlar va ko'rgazmani tashkil etish yuzasidan amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlar majmui. Unga har bir bo'limning nomi, mavzusi, tematik majmui, bosh matnlar va fikrlar, jihozlarning va ko'rgazma kompleksining nomi va shifri, o'ziga xos xususiyatlari, belgilari, hajmi, saqlanish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, etiketaj, eksponatni birinchi yoki ikkinchi planda joylashtirish, badiiy usullarni qo'llash va ashyolarni saqlash yuzasidan ko'riladigan choralar ham kiradi.
92.	Turnstiles	Turniketlar	Turniketi	sharnirga mahkamlangan yassi materiallar, hujjatlar, plakatlar, fotolar joylashtirilgan osma varaqalar.
93.	Subject collections	Tematik kolleksiya	Tematicheskaya kolleksiya	ma'lum bir mavzuni yoritishda turli xildagi muzey ashyolaridan tashkil topgan kolleksiya.
94.	International Council of Museums	Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM)	Mejdunarodniy sovet muzeyev (IKOM)	1946 yilda Amerika muzeylari assosiasiyasi prezidenti Chonsi Xemlin tashabbusi bilan Parijda asosan IKOM (International Council of Museums) nomi bilan mashhur

				bo'lgan Xalqaro muzeylar tashkiloti tuzildi. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1993 yilda a'zo bo'ldi.
95.	International Museum Day	Xalqaro muzeylar kuni	Mejdunarodniy den muzeyev	1977 yil 18 maydan buyon har yili Xalqaro muzeylar kuni nishonlanib, shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi.
96.	Instruments for measurement of temperature and humidity	Harorat va namlik o'lchash asboblari	Instrumenti dlya izmereniya temperatura i vlnosti	psixrometr, gigrometr, termometr yoki o'zi yozuvchi termograf va gigrograflar.
97.	Accounting	Hisobga olish	Uchet	muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olishning asosiy huquqiy hujjatlari – eksponatlarni qabul qilib olish yoki berish dalolatnomalari, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining kirim kitobi va inventar (ilmiy ro'yxatdan o'tkazish) kitoblaridan iboratdir.
98.	Exposure	Ekspozisiya	Ekspozisiya	(lot. expositio so'zidan olingan bo'lib, expono- tomosha uchun ko'rsatmoq, terib qo'yish, sitio - ro'yxatga olish, bayon etish ma'nolarini anglatadi). Muzey ekspozitsiyasi – bu maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan muzey eksponatlarining namoyishi bo'lib, ular kompozitsion tashkillashtirilib sharhlar bilan to'ldirilgan, texnik va badiiy jihozlanib, umumiy muzeyning o'ziga xos xususiyatini yaratuvchi ijtimoiy ko'rinishdir. Muzey ekspozitsiyasi ilmiy xodimlar, rassomlar, dizaynerlar, muzey pedagoglari va muxandislar hamkorligida yaratiladigan murakkab ilmiy-texnik jarayon hisoblanadi.
99.	Publish	E'lon qilish	Opublikovat	muzeyning muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini omma oldida namoyish etish, bosma nashrlarda, elektron va boshqa turdagi jismlarda takrorlash orqali jamiyatga taqdim etishning barcha shakllarini nazarda tutuvchi faoliyat turi.
100.	Label	Etiketka	Etiketka	bu predmet nomi va uning alohida belgilaridan tarkib topgan matn. U muallifi, tug'ilgan yili, joyi, asarning yaratilgan vaqti, materiali, hajmi, yaratilish usuli, tarixiy va memorial ahamiyati to'g'risida qisqa ma'lumot beradi. Pastki qismida esa eng muhimi eksponatning asl yoki ko'chirma ekanligi haqida yoziladi. Agarda ekspozitsiyada asosan asl nusxalar qo'yilgan bo'lsa unda etiketkalarda faqatgina ko'chirmalarni ko'rsatish mumkin yoki aksincha (badiiy muzeylar uchun).
101.	Explication	Eksplikasiya	Eksplikasiya	(lot. explication – sharhlash, tushuntirish) ko'rgazma, ekspozitsiya haqida ma'lumot.
102.	Exhibitor	Eksponent	Eksponent	o'z asari, ishini namoyishga qo'ygan shaxs, tashkilot, buyum, mulk, xazina egasi, ko'rsatuvchi.
103.	Exhibit	Eksponat	Eksponat	tomosha uchun qo'yilgan va muzey ekspozitsiyasining asosi hisoblangan muzey ashyosidir. Muzey eksponati sifatida asl ashyolar bilan bir qatorda qayta tiklovchi (model, maketlar va h.k.) va ilmiy ko'makchi materiallar (xarita, sxema, jadval va matnlar) bo'lishi mumkin.
104.	Excursion	Ekskursiya	Ekskursiya	ekskursovod boshchiligida jamoa bo'lib muzey, ko'rgazma va diqqatga sazovor yerni tanishtiruv, ilmiy va ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda ma'lum bir yo'nalish bo'yicha tomosha qilish.

X. TESLAR

Fan bobi	Fan bo'limi	Qiyimlik darajasi	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1	1	1	Qaysi tipdagi muzeylarda mahalliy joyning tarixi, madaniyati, etnografiyasini aks etuvchi eksponatlar, ashyoviy dalillar qo'yilishi kerak?	*O'lkashunoslik muzeylarida	Me'morial muzeylarda	Muzey-qo'riqxonalarida	Tabiat muzeylarida
1	1	1	Brif deb nimaga aytiladi?	*ekspozitsiya ochilishigacha bo'lgan jarayonni tashkillashtiruvchi, yo'naltiruvchi loyiha-reja	Ko'rgazmani tantanali ochilish qismi	Ekspozitsiyaning barcha tashkiliy qismi	Ko'rgazmani yopilishi
1	1	1	Turniketlar –	*sharnirga mahkamlangan yassi materiallar, hujjatlar, plakatlar, fotolar joylashtirilgan osma varaqalar.	vitrina turlaridan biri.	ashyolar saqlanadigan jovon	Rangtasvir asarlari saqlanadigan stelaj
1	2	2	Tematik ekspozitsion reja (TER) –	*ko'rgazmani namoyish qilish uchun tanlab olingan ashyolar, ishlatiladigan barcha jihozlar va ko'rgazmani tashkil etish yuzasidan amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlar majmui.	ashyo belgilari, hajmi, saqlanish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, etiketaj, eksponatni birinchi yoki ikkinchi planda joylashtirish, badiiy usullarni qo'llash va ashyolarni saqlash yuzasidan ko'riladigan choralar	har bir bo'limning nomi, mavzusi, tematik majmui, bosh matnlar va fikrlar, jihozlarning va ko'rgazma kompleksining nomi va shifri, o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlar majmui.	har bir bo'limning nomi, namoyish etiladigan eksponatlar soni ko'rsatiladigan hujjat.
1	2	2	Ekspozitsiya loyixasining tarkibiy qismini aniqlash nima deyiladi?	*Ilmiy loyixalash – bunda ekspozitsiyaning asosiy g'oyalari va konkret mazmuni ishlab chiqiladi	Badiiy loyixalash - mavzuning ifodali, mutanosib holda amalga oshirilishi	Texnik va ishchi loyixa – har bir eksponatning, matnning, texnik vositalarning joyini aniq belgilab beradi	Barcha javoblar to'g'ri
1	2	1	Ansambлга oid ekspozitsiya bu ...	* Aniq bir davrga oid ijtimoiy sharoitni saqlaydi yoki qayta tiklaydi.	Xotira muzeylari, muzeylashtirilgan tarixiy yodgorliklar, madaniy saroylar, qo'rg'onlar va boshqalar kiradi.	Ilmiy asoslangan mavjud ma'lumotlar asosida tarixiy davrning ma'lum bir qismini tiklaydi.	Ochiq osmon ostidagi muzeylar jamlanmasi

1	1	1	Eksplikatsiya – bu...	*(lot. explication – sharhlash, tushuntirish) ko'rgazma, ekspozitsiya haqida ma'lumot.	muzey yo'lko'rsatkichi	Eksponatga qo'yil KP va INV raqamlari	Eksponatlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumot.
1	2	2	Eksponent – bu...	*o'z asari, ishini namoyishga qo'ygan shaxs, tashkilot, buyum, mulk, xazina egasi, ko'rsatuvchi.	ko'rgazmadagi dominant eksponat.	eksponatning asl yoki ko'chirma ekanligi haqida ma'lumot beruvchi matn.	ekspozitsiya to'g'risida qisqacha ma'lumot.
1	2	2	Etiketka – bu...	*predmet nomi va uning alohida belgilaridan tarkib topgan matn.	muallifi, tug'ilgan yili, joyi, asarning yaratilgan vaqti, materiali, hajmi, yaratilish usuli, tarixiy va memorial ahamiyati to'g'risida qisqa ma'lumot beradi.	eksponatning asl yoki ko'chirma ekanligi haqida ma'lumot beruvchi matn.	ekspozitsiya to'g'risida qisqacha ma'lumot.
